

O‘Z TILIM

—

O‘ZBEK TILIM

T O S H K E N T – 2 0 1 0

Ushbu qo‘llanma o‘zbek tiliga oid bilimlarini, imlo va savodxonlikka oid ko‘nikma va malakalarini mustaqil tarzda rivojlantirish, takomillashtirishni niyat qilgan tildosh va dildoshlarimizga mo‘ljallangan.

Kitobning qiziqarliligini ta‘minlash uchun undagi matn va materiallarning rang-barangligiga e‘tibor berildi.

Kitobdan o‘zbek tilining barcha muxlislari, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarning o‘quvchilari, oliy o‘quv yurtlarining talabalari, shuningdek, o‘qituvchi va murabbiylar foydalanishlari mumkin. Metodik qo‘llanmani yozishda:

“O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” (Sh.Rahmatullayev), “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” (Sh.Rahmatullayev va A.Hojiyev), “O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi”, “Yozuv tarixidan qisqacha lug‘at”; (N.Mahmudov), “O‘zbek tili ma‘lumotnomasi” (A.Aliyev, K.Nazarov), “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (S.Akobirov, T.Aliqulov va boshqalar), “Hamroh” (Y.Abdullayev), “O‘zbek xalq maqollari”, yangi o‘zbek alifbosi kursi uchun tuzilgan dasturlar va metodik qo‘llanmalardan foydalanildi.

Mas‘ul muharrir:

Filologiya fanlari nomzodi N.Mahkamov

Taqrizchilar:

Filologiya fanlari doktori, professor M. Yo‘ldoshev

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent R. Jomonov.

Mazkur o‘quv qo‘llanmasi Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

B. To‘xliyev, O. Ametova,
D. To‘xliyeva

O‘Z TILIM — O‘ZBEK TILIM

(mustaqil o‘rganuvchilar uchun)

T o s h k e n t — 2010

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MADHIYASI

Madhiya — «madh», «maqtov» so‘zidan kelib chiqqan. Madhiya — gimn o‘z mustaqilligiga ega bo‘lgan, rivojlangan har bir mamlakatning alomati ramzi. Madhiya tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Diniy, jangovar mazmunga ega bo‘lgan madhiyalar ma‘lum.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi (matni va musiqasi) tanlovida so‘zini shoir Abdulla Oripov, musiqasini bastakor Mutal (Mutavakkil) Burhonov yozgan madhiya g‘olib chiqdi va o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston

Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi (1992-yil 10-dekabr)da O‘zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi sifatida tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi tantanali damlarda ijro etiladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Naqarot:

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash‘ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo‘l obod!

Naqarot:

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

KIRISH

“Навоийни ўрганамиз” тўғараги бўйича махсус дастур олий ўқув юртлари бакалавриат босқичининг ўзбек тили ва адабиёти йўналишига мўлжалланган. Унда бўлажак олий маълумотли мутахассисларни кўзда тутган ҳолда мазкур курснинг моҳияти, мақсад ва вазифалари, асосий мазмуни ифодаланган. Дастур талаба-ёшларнинг маънавий камолотини белгиловчи фазилатларни шакллантиришга қаратилган бўлиб, уларни бадиий-эстетик нуқтаи назардан етук шахс қилиб тарбиялаш, мустақил ҳаётга тайёрлаш, уларда мустақил фикрлаш ҳамда амалий ҳаракат қилиш малакасини шакллантириш, Алишер Навоий асарларини, хусусан, лирик ва эпик асарларини ўрганиш асосида юксак маънавиятли шахсга хос дунёқарашни кенгайтириш мақсадини кўзда тутади.

Машғулотлар амалий характерга эга бўлиб, суҳбат, брейн-ринг, дебат шаклида ўтказилади ва ўқув режасида белгиланган ижтимоий-гуманитар, айниқса, махсус фанлар: адабиётшунослик асослари, адабиёт назарияси, адабиёт тарихи фанларида олинган билимлар, ҳосил қилинган кўникма ва малакаларни мустаҳкамлашга қаратилган. Бугунги кунда **ижтимоий-сиёсий, маънавий-маърифий жабҳаларда аниқ мақсадга эришишнинг бош йўли** – жамият аъзоларида юксак маънавий фазилатларни шакллантириш, унга боғлиқ бўлган туйғуларини юксак даражага кўтаришдан иборат. Бунда китобхонлик, бадиий адабиёт билан ошнолик, шулар асосида юксак маънавиятли шахс моделининг таркибига кирувчи юксак маънавий-ахлоқий фазилатлар силсиласи маънавий юксакликнинг ўзаги бўлиб, у шахс камолотининг муҳим белгиларидан ҳисобланади.

Бугун замонавий юксак маънавиятли шахс моделини китобсиз, китобхонликсиз, айниқса, мумтоз адабиётимиз, буюк Навоий асарларидан хабарсиз ҳолда тасаввур этиб бўлмайди. Навоий асарларини пухта ўрганган ёш авлодгина мамлакат равнақи, фаровонлиги йўлида ватанпарвар, бағри кенг, ҳалол, инсонпарвар, **тиришқоқ, ижтимоий фаол, интизомли, тежамкор, масъулиятли, ватан ва юрт манфаати учун фидойи, уларнинг ҳар қандай ҳолати учун ўзини дахлдор деб билувчи ташаббускор шахс бўла олади.** Худди шунинг учун ҳам ёшларда айти шу хислатларнинг барқарор тарздаги ривожини юрт келажагининг асосий пойдевори бўла олади.

II. ТЎГАРАКНИНГ МАҚСАДИ

“Навоийни ўрганамиз” тўғараги ЎзР ОЎМТВнинг “Шахснинг маънавий камолотини белгиловчи фазилатлар” умумий дастуридаги таркибий қисмлардан биридир. У Навоийнинг лирик ва эпик асарларни ўрганиш асосида юксак маънавиятли шахс моделига кирувчи асосий фазилатларнинг буюк Алишер Навоий асарларида намоён бўлиш шакллари ва ўзига хосликларини илмий-иждодий таҳлил қилиш асосида талабаларнинг Навоий асарларига бўлган қизиқишларини ошириш,

уларда Навоий асарларини ўқиш, тушуниш ва таҳлил қилишга оид кўникма ва малакаларини янада такомиллаштиришдан иборат.

III. ТЎГАРАКНИНГ ВАЗИФАЛАРИ:

- Алишер Навоийнинг ҳаёти ва ижодига оид тарихий, илмий, бадиий асарларни мустақил (аудиториядан ташқари) ишлар имкониятлари доирасида таҳлил қилиш;
- Навоий асарларида акс этган юксак маънавий фазилатлар тараннумини, шунингдек, инсон шаънига номуносиб бўлган ҳаракат ва хусусиятлар танқидининг моҳиятини ўрганиш;
- Алишер Навоий ҳаёти ва ижодий меросининг бутун жамиятимиз, алоҳида олинган инсон, шунингдек, бутун инсоният ҳаётида тутган ўрни ва аҳамиятини унинг лирик ва эпик асарлари мисолида ёритиб бериш, бунда ишонтириш, лирик ва эпик асарлар таҳлили мавзуидаги суҳбат ва ҳикояларни ташкил этиш, тушунтириш, баҳс-мунозара, намуна кўрсатиш сингари шакл ва усуллардан фойдаланиш;
- глобаллашув жараёнларида ёшларнинг бадиий-эстетик соҳадаги билим ва туйғуларига бўлган эҳтиёжини илмий асослаш;
- Навоий бадиий меросининг мазмун-моҳиятини маънавиятшунослик-нинг умумназарий мезонлари асосида қиёсий таҳлил қилиш;
- жамиятни модернизация қилиш жараёнида Навоий асарларини ўрганиш билан алоқадор бўлган тушунчалар ва тамойилларга янгича ёндашувни қарор топтириш;
- Навоий олға сурган ғоя ва образларнинг умумбашарий аҳамияти ва уларнинг мақсадли йўналтирилганлигини бугунги кунда маънавий соҳада олиб борилаётган ишлар мисолида ёритиб бериш.

IV. “НАВОЙНИ ЎРГАНАМИЗ” ТЎГАРАГИ ОЛДИГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР:

- Навоий асарларини, хусусан, унинг лирик (асосан, ғазал, туюқ, рубоий, қитъа ва фардлари) ҳамда эпик (асосан, “Хамса” дostonлари, шунингдек, “Лисон ут-тайр” асари)ни ўрганиш матншунослик ва китобхонлик нуқтаи назаридан ўрганиш;
- уларда акс этган асосий ижтимоий-бадиий ҳодисалар моҳиятини теран идрок этиш;
- шахс маънавий камолотини белгиловчи фазилатларнинг Навоий асарларида акс этиши, моҳияти, тасвир ва талқиндаги ўзига хосликларни идрок этиш, тушуниш ва тушунтиришни уддалаш;
- Навоий эстетик қарашларининг тараққиёти ҳамда уларнинг оила, жамият аъзолари, хусусан, ёшлар тарбиясида тутган ўрни ва қандай аҳамият касб этишини идрок этиш, бундан оғзаки ва ёзма тарзда ифода қилиш;
- ижтимоий-маънавий муносабатлар жараёнида Навоий асарларидан фойдаланишнинг, уларнинг жамият ижтимоий-маънавий ҳаётида катта

ўринга эга эканлигини тушуниб етиш, таълим-тарбия жараёнида улардан фойдаланиш йўллариини ўрганиш;

- таълим-тарбия соҳасидаги асосий масалалардан бири – талабаларга китобхонлик “дардини” юктириш, Навоий асарларига бўлган меҳр-муҳаббатни тарбиялаш – уларни юксак маънавиятли шахслар бўлиб улғайишларини таъминловчи мезонлардан бири эканлиги, ёшларни китобхонлик, том маънодаги навоийхонлик руҳида тарбиялаш уларни ўз Ватани ва халқига садоқатли, ахлоқли, виждонли ва иродали инсон бўлиб етишишларидаги муҳим омиллардан бири эканлигини тушунтириш;

- Навоий асарларини мукаммал даражада ўрганиш бўлажак тил ва адабиёт ўқитувчилари учун касбий бурч ва масъулият, маънавий фазилят эканлигини, адиб асарларида акс этган миллийлик ва умуминсонийликнинг ўзаро диалектик алоқадорлиги, мазкур асарларда акс этган юксак маънавиятли шахс тараннумининг ўзига хос ахлоқий-маънавий талаблар шакли сифатида намоён бўлиши, уларда юксак бадиият ва таъсирчанлик юксак маънавий қадриятлар эканлигини англаб етиш, улардан ҳаётий-амалий фаолиятда самарали фойдалана олишга эришиш;

- Навоий асарларидаги буюк инсонпарварлик, эзгулик, ватанпарварлик, меҳнатсеварлик, ростгўйлик, фидойилик, жасурлик, мардлик, адолатпарварлик ва бошқа фазилятлар тасвири ва талқинидаги миллий ва умуминсоний хусусиятларини эътиборга олган ҳолда таҳлил этиш, унинг маънавият ва маънавий салоҳият тизимидаги юксак мавқеи ва заруриятини таҳлил этиш ҳамда меҳнатсеварликнинг ҳаётимиздаги маънавий, ижтимоий, ахлоқий тараққиётдаги ўрни, шахсни меҳнатсевар қилиб тарбиялашда индивидуал ва жамоавий ёндашув кўникмаларига эга бўлишини таъминлаш.

V. ТЎГАРАК ФАОЛИЯТИНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯДАГИ БОШҚА ЖАРАЁНЛАР БИЛАН БОҒЛИҚЛИГИ

Мазкур тўгарак фаолияти ўз ишини ўқув режасидаги асосий фанлардан олинган билимларга таянган ҳолда олиб боради, уларни ўрганиш асосида олинган билимлар, эгалланган кўникма ва малакаларнинг кенгайиши ва мустаҳкамланишига имкон беради. Бунда фалсафа, иқтисод, маънавият асослари, маданиятшунослик, диншунослик, адабиёт назарияси, адабиёт тарихи, ҳозирги адабий жараён, адабий танқид, санъат, тарих, этика, эстетика, педагогика, психология, социология, ахлоқ фалсафаси каби ижтимоий-гуманитар фанлар билан мустаҳкам алоқада бўлади.

VI. ТЎГАРАК ИШИНИНГ ҲАЖМИ ВА МАЗМУНИ

6.1. Тўғарак машғулотларининг ҳажми

<i>T/p</i>	<i>Машғулот тури</i>	<i>Ажратилган соат</i>	<i>Ҳафталик машғулот</i>
1	<i>Мулоқот</i>	16	2
2	<i>Мустақил иш</i>	32	4
3	<i>Тақдирот</i>	16	2
4	<i>Назоратлар</i>	<i>Якуний мониторинг</i>	1
	<i>Жами:</i>	64	

6.2. “Мулоқот” машғулотларининг мавзулари, мазмуни, кутиладиган натижа ва уларга ажратилган соатларнинг миқдори

<i>T/p</i>	<i>Мавзулар</i>	<i>Масъулнинг вазифаси</i>	<i>Талабанинг фаолияти</i>	<i>со-ат</i>	<i>Кутиладиган натижа</i>
1.	Навоий ғазаллари ҳақида умумий маълумот	Навоийшунос олимларнинг бири иштиро-кида Навоий ғазаллари ҳақида суҳбат уюштириши	Навоий ғазалларини ўқиши, улардан ўзига ёққанларини таҳлил қилиши	2	Навоий ғазалларини ифодали ўқиши, тушунишига оид кўникма ва малакаларини такомиллаштириши
2.	Мустақил иш		ғазаллардан бирини ёд олиши		
3.	Бир ғазалнинг икки талқини	“Кеча келгумдур дебон...” ғазали матни билан таништириши, унинг талқинларини ҳавола этиши	Ғазал лугатини тузиши, байтларнинг насрий баёнини амалга ошириши	2	Ғазаллар таҳлили ва талқинидаги хилма-хилликларни идрок этиши, нота-ниши сўзлар бўйича лугат тузишига оид кўникма ва малакалари ортади
4.	Мустақил иш		ғазалларни ифодали ўқиши		
5.	Ғазал композицияси – маҳорат белгиси	Ғазал байтлари аро муносабатларни идрок этишига имкон берадиган мисолларни тарқатма материал сифатида тайёрлаши	Байтлараро муносабатларни ўрганиши, улар-га баҳо бериши, ихтиёрий тарздаги бошқа мисоллар устида ишлаши	2	Ғазал композициясини ўрганиши, уни таҳлил қилиши асосида мустақил ва ижодий фикр ривожини таъминланади
6.	Мустақил иш		Ихтиёрий ғазал композициясини аниқлаши		
7.	Навоийнинг шеърий	Навоий қўллаган шеър санъатлари	Навоий ғазалларидаги тасвир	2	Навоий ғазалларини англаш ва англашишига оид кў-

	санъатла ри	ҳақидаги илмий- методик адабиётлар рўйхатини тавсия этиши	воситалари устиди ишлаш		никма ва малакалар такомиллашади, уларнинг бадиий- эстетик дидлари камол топади
8.	Мустақил иш		“Навоийнинг бадиий маҳорати” мавзусида реферат тайёрлаш		
9.	ғазаллар- нинг образлар tizими	Бу ҳақда мутахассис билан суҳбат ва учрашувлар ташkil этиади	Бир ғазалнинг образлар tizимини таҳлил қилади	2	Ғазал образлар tizимини таҳлил қилишига оид кўник- ма ва малакалар такомиллашади
10	Мустақил иш		ғазал образлар tizимини таҳлил этиши	2	
11	“Навоий ғазали менинг талқиним да” танловини ташkil этиши	Талабаларнинг қизиқиши ва имконидан келиб чиққан ҳолда ғазалнинг танланишига ёрдам беради	Ўзи танлаган ғазал матнини ўқийди, луғат тузади, унинг насрий баёни- ни яратади, ун- га шарҳ тузади	4	ғазалларни англаш ва англашишга оид кўникма ва малака- лар такомиллаша- ди, уларнинг бадиий-эстетик дидлари камол топади
12	Мустақил иш	Танлов шартлари- ни тушунтиради, методик масла- ҳатлар беради	Танлов учун алоҳида олин- ган ғазални таҳлил қилади		
13	таянч тушунча ва сўзлар доирасин и белгилаш	Ғазал матнини тарқатма материал сифатида тайёрлаш	Таянч тушунча ва сўзлар луғатини тайёрлаш, уларга изоҳ ва шарҳлар ёзиш	2	Таянч тушунча ва сўзлар билан ишлашга оид кўникма ва малакалар барқарорлашади
14	Ғазал таҳлилиг а оид слайд лойиҳасин и яратиши	Слайд намунасини тайёрлаш	Слайд намуналарини тайёрлаш	2	Материалларни саралаш ва муно- сибларини тан- лашга оид кўникма ва малакалар ривожланади

Ўқув-тарбия курси учинчи семестр давомида жами 64 соатдан иборат бўлиб, улардан 16 соати - мулоқот, 32 соати - мустақил таълим ҳамда 16 соати мустақил (тақдимот)дан иборат.

VII. Машғулот жараёнини ташкил этиш ва ўтказиш бўйича тавсиялар:

Т/р	Машғулот босқичлари	Вақти
1	Саломлашув ва танишув (йўқлама, давомат).	4 дақиқа
2	Мавзуни эълон қилиш ва машғулот тартибини тушунтириш.	3 дақиқа
3	Тайёрланган тарқатма материалларни талабаларга тарқатиш.	3 дақиқа
4	Мавзу баёни (слайдлар, видеороликлар, кўргазмали материаллар асосида).	20 дақиқа
5	Мавзу баёни жараёнида тилга олинган истилоҳларни шарҳлаш:	(машғулот давомида)
6	а) Турли ўйин методлари воситасида талабаларнинг мавзуни ўзлаштиришига, ўз фикрларини ривожлантиришларига эришиш; б) ўйин натижасини баҳолаш.	20 дақиқа
7	Гуруҳ аъзоларига ўтилган мавзу юзасидан тайёрланган биттадан савол (ёки истилоҳларни) тарқатиш ва ҳар бир талабанинг қисқача чиқишини ташкиллаштириш.	10 дақиқа
8	Машғулот ниҳоясида ўтилган мавзуга доир тест синовини ўтказиш.	10 дақиқа
9	Тест натижаларини таҳлил қилиш ва талабалар жавобини баҳолаш. Нотўғри белгиланган жавоблар таҳлили бўйича тушунтириш бериш.	5 дақиқа
10	Машғулотни якунлаш. Мустақил ишлаш учун вазифа бериш.	5 дақиқа

Мустақил таълим-тарбия жараёни машғулотлари суҳбат, мулоқот (устоз-шогирд), мунозара, мустақил иш (тақдимот) тарзида ташкил этилади. Ушбу машғулотлар қуйидаги алгоритм (билиш, қўллаш, таҳлил қилиш ва натижа) асосида амалга оширилади.

		4. Мустақил иш (тақдимот) а) билиш – ўзлаштирилган тушунчаларни намоён қилишга тайёрлаш; б) қўллаш – тайёрланган тақдимотни намоёйиш қилиш; в) таҳлил – тақдимот натижасини ҳимоя қилиш, савол-жавоб, таҳлилий хулосалар; г) натижа – тайёрланган тақдимот асосида талабалар билимини баҳолаш.
	3. Мунозара	а) билиш – ўзлаштирилган тушунчалар асосида фикр алмашиш; б) қўллаш – индивидуал ёки гуруҳли шаклда тушунчалар мазмунини ва йўналишларини белгилаш; в) таҳлил – олинган натижалар асосида таҳлилий баҳс юритиш; г) натижа – натижаларга таҳлилий хулосалар бериш.
	2. Мулоқот (Устоз-шогирд)	а) билиш – асосий тушунчалар ҳақида маълумотга эга бўлиш; б) қўллаш – йўлланма бериш методикаси; в) таҳлил – устоз-шогирд ўртасида ўрганилган маълумотларни таҳлил қилиш; г) натижа – тақлиф ва тавсиялар бериш.
1. Суҳбат		а) билиш – назарий маълумотлар, таянч тушунчалар, қоидалар, тамойиллар асосида материаллар берилади; б) қўллаш – амалга ошириш шакллари, методлари, воситаларини аниқлаш асосида ташкил этилади; в) таҳлил – бажарилиши лозим бўлган таҳлилий асосда берилади; г) натижа – натижаларга хулосалар бериш.

Тўғараклар ишини ташкил этишдаги педагогик технологиялар, кўргазмали воситалар ва методлар ҳамда машғулотларни ўтказиш тартиби

Тўғараклар ишини ташкил этишда аудио ва видео кассеталардан фойдаланиш мумкин. Шунингдек, ўқитишнинг **анъанавий ва илғор услубларини**, жумладан, соҳа мутахассислари билан учрашувлар, **экспресс**

сўровлар, тест сўровлари, дастурий ўқитиш, давра суҳбатларини ўтказиш, муаммоли ўқитиш, техник воситаларни қўллаш, экскурсия, аудио-видео имкониятларидан ва бошқа усуллардан фойдаланиш орқали амалга оширилади.

Талабалар билан тўғараклар ишини ташкил этишда Навоий асарларини замонавий усулда ўргатиш, уларнинг мустақил билим олишига шароит яратиш ҳамда олган билимини мустақил равишда баҳолаш учун қуйидагилардан фойдаланилади:

- талабалар билан Навоийнинг лирик ва эпик асарларини таҳлил қилиш жараёнида “ақлий хужум”, “дебатлар”, “брейнсторминг”, “кластер (ахборотни ейиш)”, “синквейн (ахборотни йиғиш)”, “аквариум”, “чархпалак”, “бир сўз шарҳи”, “ғоялар баҳси”, “матбуот-конференцияси” каби интерфаол методлардан фойдаланиш;

- талабаларни олдиндан тарқатма материаллар билан таъминлашга эришиш;

- талабаларни кичик гуруҳларга бўлиб, мураббий-устозлар раҳбарлигида мустақил билим олишга ўргатиш;

- маъруза матнидаги жадвал, диаграмма ва рақамли маълумотларни олдиндан тайёрлаб, гуруҳ талабаларига тарқатиш (Бу усул ўқитувчининг вақтини тежаб, талабаларни ортиқча ёзишдан озод қилади);

- тест саволларини тузиш;

- “таянч” ибораларни ишлаб чиқиб, талабаларга уларни мукамал ўзлаштиришда қўмаклашиш;

- “таянч” иборалар луғати тутишни ташкил қилиш;

- масофавий ўқитишни ташкил этишда компьютерда бажариладиган дастурлардан фойдаланиш;

- талабаларга хорижий ва республиканинг етакчи олий ўқув юртлари профессорлари томонидан ёзилган айрим маърузаларни ўқиб, техник воситалар орқали намойиш этиш;

- иқтидорли талабалар билан уларни қизиқтирувчи мавзулар бўйича қўшимча машғулоти ташкил этиш;

- талабаларда ахлоқийлик қобилиятини ривожлантириш;

- талабаларни ўзгаларга ўрнатмаларни ўргатиш;

- талабаларни замонавий компьютер дастурлари асосида тайёрланган слайдлар билан кўргазмаларни маъруза қилишга ўргатиш;

- талабаларга ўз билимини ўзи баҳолайдиган шароитни яратиб бериш.

VIII. Методологик манба:

Тўғарак ишини ташкил этиш жараёнида Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг асарлари ва унда илгари сурилган концептуал методологик ҳамда назарий таълимотида келиб чиққан ҳолда уларда келтирилган қуйидаги фикрларидан фойдаланиш мумкин:

“Тарихдан маълумки, Ўрта Осиё ҳудудида аҳоли азалдан водийларда, катта сув манбалари – дарё ва анҳорлар бўйида яшаб келади. Атрофи чўл ва саҳролар билан ўралган, табиати, иқлими ғоят мураккаб бўлган минтақа шароитининг ўзи ана шу элат ва миллатларнинг минг йиллар давомида бир-бирига мослашиб, яқин елкадош бўлиб, бир-бирининг оғирини енгил қилиб яшашини тақозо этиб келади.

Чиндан ҳам, бу заминда истикомат қиладиган одамларнинг тарқоқ бўлиб яшашга имкони йўқ, табиатнинг ўзи, ҳаётнинг ўзи уларни шу руҳда тарбиялаган. Турмуш ва тафаккур тарзимизнинг ажралмас қисмига айланиб кетган мана шундай азалий тушунчалар минтақамизда яшаб ўтган улуғ алломалар, мутафаккир зотларнинг қолдирган бебаҳо меросида ҳам ўзининг ёрқин ифодасини топган. Мисол учун, Алишер Навоий бобомиз бўладими, Рудакий, Абай, Махтумқули ёки Тўқтагул каби улуғ зотлар бўладими, уларнинг барчаси ўз ижоди билан нафақат икки дарё оралиғидаги халқларни, балки бутун башарият фарзандларини доимо меҳр-оқибатли, дўст-биродар бўлиб яшашга даъват этгани бежиз эмас, албатта.

Ота-боболаримиз неча асрлар мобайнида шу бепоён минтақада қандай ҳамжиҳат бўлиб, қандай қадриятлар асосида яшаб келган бўлса, бугун ҳам, таъбир жоиз бўлса, тарих ва ҳаёт гардиши, табиатнинг ўзи бизни – бутун Ўрта Осиё халқларини айнан ана шундай дўстлик ва ҳамкорлик руҳида ҳаёт кечиришга даъват этмоқда”.

(Юксак маънавият - енгилмас куч. - Т., Маънавият, 2008. 9-10-бетлар.)

Ўзбек халқи маънавий дунёсининг шаклланишига ғоят кучли ва самарали таъсир кўрсатган улуғ зотлардан яна бири – бу Алишер Навоий бобомиздир. Биз унинг мўътабар номи, ижодий меросининг боқийлиги, бадиий даҳоси замон ва макон чегараларини билмаслиги ҳақида доимо фахрланиб сўз юритамиз.

Алишер Навоий халқимизнинг онги ва тафаккури, бадиий маданияти тарихида бутун бир даврни ташкил этадиган буюк шахс, миллий адабиётимизнинг тенгсиз намояндаси, миллатимизнинг ғурури, шаъну шарафини дунёга тараннум қилган ўлмас сўз санъаткоридир. Таъбир жоиз бўлса, оламда туркий ва форсий тилда сўзловчи бирон-бир инсон йўқки, у Навоийни билмаса, Навоийни севмаса, Навоийга садоқат ва эътиқод билан қарамаса.

Агар бу улуғ зотни авлиё десак, у авлиёларнинг авлиёси, мутафаккир десак, мутафаккирларнинг мутафаккири, шоир десак, шоирларнинг султонидир.

Инсон қалбининг қувончу қайғусини, эзгулик ва ҳаёт мазмунини Навоийдек теран ифода этган шоир жаҳон адабиёти тарихида камдан-кам топилади. Она тилига муҳаббат, унинг бекиёс бойлиги ва буюклигини англаш туйғуси ҳам бизнинг онгу шууримиз, юрагимизга аввало Навоий асарлари билан кириб келади. Биз бу бебаҳо меросдан халқимизни, айниқса, ёшларимизни қанчалик кўп баҳраманд этсак, миллий маънавиятимизни

юксалтиришда, жамиятимизда эзгу инсоний фазилатларни камол топтиришда шунчалик қудратли маърифий қуролга эга бўламиз.

Маълумки, бирон-бир халқ маънавиятига хос қадриятларнинг бошқа халқлар томонидан тан олинishi, табиийки, ана шу халқ тарихига нисбатан чуқур ҳурмат ифодасидир. Бундай эътироф халқнинг ғурур ва ифтихори, миллий ўзлигини янада юксалтиришга хизмат қилади.

Шу маънода, кейинги пайтда буюк аждодларимизнинг сўнмас даҳосига ҳурмат-эҳтиром, уларнинг бой илмий меросини ўрганишга бўлган қизиқиш хорижий элларда ҳам ортиб бораётгани барчамизни қувонтиради. Бунинг тасдиғини дунёнинг турли мамлакатларида уларнинг ҳаёти ва фаолияти ҳақида эълон қилинаётган илмий ва бадиий асарлар, улуғ аждодларимиз хотирасига барпо этилаётган ёдгорликлар мисолида ҳам кўриш мумкин. Шулар қаторида Бельгияда Ибн Синога, Литвада Мирзо Улуғбекка, Москва, Токио ва Боку шаҳарларида Алишер Навоий бобомизга, Миср пойтахти Қоҳира шаҳрида эса Аҳмад Фарғоний хотирасига ўрнатилган мухташам ҳайкаллари эслаш жоиз.

(Юксак маънавият - енгилмас куч. - Т., Маънавият, 2008. 47-48 - бетлар.)

“Ўз фикрини мутлақо мустақил, она тилида равон, гўзал ва лўнда ифода эта олмайдиган мутахассисни, авваламбор, раҳбар курсисида ўтирганларни бугун тушуниш ҳам, оқлаш ҳам қийин” (Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. - Т., Ўзбекистон. 1998. 9-бет.)

Маълумки, инсонпарварлик ғоялари билан озиқланган Хожа Аҳмад Яссавий, Хожа Баҳоуддин Нақшбанд, Нажмиддин Кубро каби зотлар асос солган муқаддас ғоя ва тариқатларнинг ватани ҳам Туркистон заминидир.

Ҳазрат Баҳоуддин Нақшбанд ўғитларини эслайлик. У ҳар бир инсонни доимо Худони дилга жо қилган ҳолда, уни доим ўзига мададкор деб билиб, касб ўрганишга, ўз ишининг устаси бўлишга, қисқаси, меҳнат қилишга чақирган.

Асрлар давомида дин одамларни энг улуғ мақсадлар йўлида бирлашишга, ҳамжиҳат бўлишга ундаган. Халқимиз турмушида, ҳаётида катта ўрин тутган “Отанг боласи бўлма, одам боласи бўл” деган ҳикматнинг яшовчанлигида ҳам айнан диний ақоид ва одобнинг хизмати бор.

Демак, дин халқ маънавиятининг, маърифатнинг юксалишига катта ҳисса қўшиб келган экан, бугунги давлатчилигимиз ҳақида сўз юритганда, режалар тузганда динни, энг аввало, ҳам миллий, ҳам умуминсоний қадрият сифатида эътиборда тутишимиз лозим. (3- том 40-бет).

Birinchi mashg'ulot

O'ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI HARFLAR IMLOSI

Unlilar imlosi

1. A a harfi:

1) aka, alanga, aloqa, og'a; sentabr, noyabr kabi so'zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) bahor, zamon; savol, gavda; vasvasa kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida, vaqt, vahm kabi so'zlarda a aytiladi va yoziladi.

1. Quyidagi so'zlarni o'qing. Ularning imlosiga e'tibor bering. Mazkur so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

abadiy	aloqa	Avesto
abadiylashtirish	ampula	avj
Abdulhamid	andava	avliyo
Abdulxoliq	avaylash	avliyolarimiz
Abdurauf	avvalambor	avlod
alla	avgust	azaliy

2. Jadvalni tegishli so'zlar bilan to'ldiring:

a		a					
a		a					
a			a				
a			a				
a				a			
a				a			
a					a		
a					a		
a						a	
a						a	
a							a
a							a

3. Mazkur so'zlar ishtirokida darak va so'roq gaplar tuzing.

4. So'zlarning o'qilishi va yozilishiga e'tibor bering. Ularning to'g'ri variantlari asosida gaplar tuzing.

muomila	– muomala	kanstitutsiya	– konstitutsiya	direktir	– direktor
munosibat	– munosabat	zovod	– zavod	traktir	– traktor
muhokima	– muhokama	revizo'r	– revizor	diktir	– diktir

5. Nuqtalar o'rniga tegishli harflarni qo'yib ko'chiring:

Sabr va vaqt kuch yoki ehtirosqa qaraganda ko'pr...q sam...ra keltiradi. (J.Lafonten) Nish unmas biyobon, sho'rxok tuproq ham, Gulzorga aylanur sabr qilsa odam. (Gulxaniy) Sabr bilan yumush bitar, sabrsizlar o'z oy...g'idan ketar.

(Sa'diy) Mehnat va huzur-halov...t tabi...tan turlicha bo'lsalar ham baribir ular orasida qandaydir tabiiy bog'lanish m...vjud. (Tit Liviy)

6. Matnni o'qing.

Til haqida

Til o'ta murakkab ilohiy bir hodisa bo'lib, uning turli jihatlari bor. Tilning moddiy jihati tovushdir, yozuvda – harf. Lekin harf tovushga nisbatan ikkilamchi hodisadir. Tabiiy tillarning hammasi tovushdan iborat bo'lib, harf tovushning zamon va masofasini kengaytirish uchun paydo bo'lgan belgidir.

Tovush tabiatan havo to'lqinlaridan iborat bo'lgani uchun u jonsiz tabiiy hodisalarga o'xshaydi. Ammo til tovushi og'izdan chiqib quloqqa eshitiladi. Mana shu aytilish va eshitilish jihatdan u har bir shaxsning ozigagina xos hodisadir. Ammo til yakka shaxsga xos tug'ma hodisalarga kirmaydi. Chunki tilning mavjud bo'lishi uchun jamiyat bo'lishi shart.

Masalan, kishi bolalikdan insonlar orasida o'smasa, u umuman til bilmaydi. Kishilar orasida o'sganda ham o'z millatidan qat'i nazar qaysi xalq orasida o'ssa, shu xalq tili uning ona tilisi bo'ladi. Ingliz Arabistonda katta bo'lsa, arab tilini o'rganadi, ingliz tilini bilmaydi. Agar arab Angliyada ulg'aysa ingliz tilini bilib, arab tilini bilmaydi. Arablar orasida o'sgan ingliz o'z xalqining tilini o'rganmoqchi bo'lsa, uni chet tiliday o'rganadi, inglizlar orasida o'sgan arab ham o'z tilini o'rganishni istasa, uni chet tilini o'rgananday o'rganadi.

Har bir narsaning mohiyatini aniqlashda uning vazifasini ham hisobga olish zarur bo'ladi. Tilning vazifasi nimalardan iborat? Tilning bir necha vazifasi bor, lekin bizga uning asosiy, ya'ni ijtimoiyligi bilan bog'liq vazifasi kerak. Kishilar bor hodisaga, fikr, istak, so'roq yoki hayajonni til bilan ifodalaydilar, ifodalanmish narsani bir-biriga bildiradilar. Demak, til ifoda va aloqa vositasi ekan. Tilning aloqa vositasi bo'lishi uning ijtimoiyligini taqozo qiladigan vazifasidir. Shunday qilib, tilning mohiyati uning ijtimoiyligi, ifoda va aloqa quroli vazifasini bajarishdan iborat ekan.

Tilshunoslikda va mantiqda til bilan tafakkurni qorishtirmaslik ta'kidlanadi. Til va tafakkur mavzusi tilning ana shu ifoda vositasi ekanligi bilan, aniqroq qilib aytganda, uning fikr ifodalashi bilan bog'liq.

“Tafakkur” fikr yuritish, o‘ylash degani. Inson hayvondan o‘ylash qobiliyati bilan farq qiladi. Yashash uchun har bir jondor o‘zidan boshqa jonli va jonsiz mavjudot bilan ma’lum bir munosabatda bo‘lishi shart. Unga havo, suv va ozuqa kerak, dushmandan o‘zini saqlashi, do‘stiga ko‘maklashishi lozim. Hayvondagi bu munosabat ongsiz ravishda amalga oshadi. Hayvon o‘ylab ish qilmaydi. Uning hamma harakati tug‘ma tabiiy, qisman taqlidiy tarzda kechadi.

Insonning hayvondan farqli o‘laroq ma’naviyat jihatida bo‘lgani uchun ham uning o‘z atrofiga bo‘lgan munosabati ongli tarzda bo‘ladi. U har bir ishni o‘ylab qiladi. Har bir kishi o‘z ishining unumli bo‘lishini va yaxshi natija berishini istaydi hamda unga erishishning turli yo‘llarini o‘ylab topadi. Kishining boshqa insoniy jihatlarida uning tafakkurga aloqador tomoni ham o‘z tajribasi o‘zgalardan o‘rganish natijasida to‘planib borgan bilim hisobiga rivojlanib boradi. Bunda kishilarning bir-biri bilan fikrlashishi eng zaruriy shartlardan biridir. Kishilar bir-birlarining fikrini bilmasa, o‘zlashtirmasa, avloddan avlodga qoldirmasa, jamiyatda ham, insonda ham rivojlanish bo‘lmaydi, fikrni ifodalash, ma’lum qilish va almashishda til vositachilik qiladi. Shu bilan birga fikrlash jarayonida ham tilning bevosita ishtiroki bo‘ladi va til tafakkurning rivojlanishiga, ongning o‘sishiga yordam beradi.

Demak, til mohiyatan tabiiy hodisa ham, yakka kishiga xos hodisa ham emas ekan. Til faqat bir jihatida, ya’ni tovush tomoni bilan tabiiy, yana bir jihatida – nutqiy qobiliyat tomoni bilan yakka shaxsga xos. Ammo mohiyat e’tibori bilan jamiyat mahsuli bo‘lib, ijtimoiy hodisa ekan. (A.Rustamiy)

Savol va topshiriqlar:

1. *Matnni ifodali o‘qing.*
2. *Uni qisqartirib yozib oling.*
3. *Matndagi tayanch so‘zlarni belgilang. Nima uchun shu so‘zlarni tanlaganingizni izohlab bering.*
4. *Til haqidagi maqollardan ayting.*
5. *Shunday maqollardan ikkitasini daftaringizga yozing.*

Ikkinchi mashg'ulot

2. Oo harfi:

1) ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin; mukofot, mahorat kabi so'zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) boks, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon; direktor, termos kabi o'zlashma so'zlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi.

1. Quyidagi so'zlarning o'qilishi va yozilishiga e'tibor bering:

ardoq	obod	Olim	orqavorotdan
begona	obro'	Oллоh	ofitser
Buxoro	obyektiv	olmos	onkologiya
viloyat	og'zaki		ammo
komputer	ogoh	ommabop	
qarorgoh	odamzod	Osiyo	oh-u fig'on
monitor	ozod	oshkora	Ozarbayjon
muammo	oilaviy	oliyjanob	ochqich
nodir	oynadek	ohanrabo	oynayi jahon
obida	oqilona		
	oqim	ona	

2. Quyidagi uchtdan so'zlarni qatnashtirib gap tuzing:

Ardoq, begona, Buxoro; viloyat, komputer, qarorgoh; monitor, muammo, nodir.

3. Quyidagi to'rttdan so'zlarni qatnashtirib gap tuzing:

Obida, obod, obro', obyektiv; og'zaki, ogoh, odamzod, ozod; oilaviy, oynadek, oqilona, oqim; ommabop, Osiyo, oshkora, oliyjanob.

4. Matnni oqing.

Sevish fani

Bizning kunlarimizdan ikki ming ellik yil ilgari yozilgan Rim shoiri Publiy Ovidiy N...zonning "Sevish fani" degan go'zal asari j...h...nga mashhur va barcha vaqtlarda sevib o'qilgan. Ovidiy asarini aslyatda "Ars amatoriya" deb atagan. Ars – lotinchada san'at, amatoriy – sevgi. Bu asar Iso Masih tavalludidan bir yil ilgari dunyoga kelgan. Bu kitob sevish san'atining butun ...shublari, fitnalari, g'amzalari, fas...nalari, d...g'uliliklari, go'zal hunarlari haqida hikoya qiladi. Rus tiliga bu asar "Nauka lyubit" deb o'girilgan. XX asrning buyuk faylasuflaridan biri Erix Fr...mm "Sevish san'ati" deb atalgan falsafiy, teran t...dqiq...t yaratgan. U muhabbatning rang-barangligi va insoniy, ijtimoiy, estetik mohiyatlarini hozirgi zamon ilmlari erishgan taraqqiyot nuqtayi nazaridan turib tadqiq qiladi. Muh...bb...tga insonning buyuk bir qadriyati sif...tida qaraydi. Rus tiliga Frommning asari "Iskusstvo

lyubit” deb tarjima qilingan. Shulardan kelib chiqib, o‘zbek tilimizga “muhabbat fani” degan tushunchani kiritsak, m...bodo bu tilning iste’mol stixiyasida o‘zlashib borsa, ifoda va tasviriy boyligimiz ortadi, ehtimol. (I. G‘afurov)

(Ovidiy Nazon, jahon, oshublari, fasonalari, dog‘uliliklari, Erix Fromm, tadqiqot, Muhabbatga, sifatida, mabodo)

Savol va topshiriqlar:

1. Aytilishi va yozilishida tafovut seziladigan so‘zlarni toping. Ularning aytilishi va yozilishiga e’tibor bering.

2. Noto‘g‘ri yozilgan harflarni toping. Ularning to‘g‘ri variantlarini qo‘yib matnni ko‘chiring.

3. Nuqtalar o‘rniga tegishli tovushlarni qo‘yib matnni ifodali tarzda o‘qing.

4. Matnning qisqa rejasini tuzing.

5. Matn nima haqida ekanligini ayting.

6. Matndagi tayanch so‘zlarni aniqlang. Bunda Siz nimalarni e’tiborga olganingizni izohlab bering.

7. Ushbu maqollarda sodir bo‘lgan xatolarni tuzating:

Astaydil yig‘lasa,
So‘qir ko‘zdan yosh chiqar.
Ahid qilgan baxt topar.
Ovom tabib – ofati jon.
Ayib yilda emas – mehnatda.

Yuqoridagi maqollarning to‘g‘ri varianti:

Astoydil yig‘lasa,
So‘qir ko‘zdan yosh chiqar.
Ahd qilgan baxt topar.
Avom tabib – ofati jon.
Ayb yilda emas – mehnatda.

o		o					
o		o					
o			o				
o			o				
o				o			
o				o			
o					o		
o					o		
o						o	
o						o	
o							o
o							o

Uchinchi mashg'ulot

3. I i harfi:

1) ish, iz, qil; xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki; volida, piramida; bilan, biroq, sira, qishloq, chiroq kabi so'zlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) o'tin, o'rik, bo'lim kabi oldingi bo'g'inida o' unlisi keladigan so'zlarning keyingi bo'g'inida i aytiladi va yoziladi.

Quyidagi so'zlarning yozilishi va o'qilishiga e'tibor bering:

Ikki	girgitton		
iboratdir	ilinjida	muhitda	
ibrat	inshootlari	nazarimizda	chiqishiga
ivrit	iste'dodi	rivojlanish	qiynaladi
idroki	istiqlol	sifat	hamkorlik
ijodiy	ishtiroki	bilak	hisobidan
iztirobli	iqtisodiyot	faoliyati	Italiya
izhor	kurtaklari	xiyobonlari	
	milliy	Xitoy	

Quyidagi uchtdan so'zlarni qatnashtirib gap tuzing:

Ikki, girgitton, iborat; ibrat, ivrit, idrok; sifat, bilak, milliy.

She'rni ifodali o'qing.

Vatan haqida so'z

So'ritoklarda uzum, novdasi quloch-quloch,
Ayvonida har bahor bola ochar qaldirg'och,
Salom berib kirsam kim, to'yib chiqar bo'lsa och,
Bilolmadim, Farang-u Afrikada qanaqa,
Dunyo hayron bo'lsa ham, o'zbeklarda shunaqa.

Kampirlarin qo'lida kuylaydi urchug'iyam,
Bolamga, deb, don cho'qir, kaptar, chug'urchug'iyam,
O'g'il ko'rsa, to'y qilar, hattoki, chumchug'iyam,
Bilolmadim, Farang-u Afrikada qanaqa,
Dunyo hayron bo'lsa ham, o'zbeklarda shunaqa.

Yangi pishgan anjirin ilinar qo'shnisiga,
«Non yoping», deb tandirin ilinar qo'shnisiga,
Uch kun uyda bo'lmasa, bilinar qo'shnisiga,
Bilolmadim, Farang-u Afrikada qanaqa,
Dunyo hayron bo'lsa ham, o'zbeklarda shunaqa.

Yashab yurishi mumkin qo'l, oyog'-u barmoqsiz,
Ammo yashay olmaydi el-yurt, urug'-aymoqsiz,
Kuzatishmas mehmonni novvot, mayiz, qaymoqsiz,
Bilolmadim, Farang-u Afrikada qanaqa,

Dunyo hayron bo'lsa ham, o'zbeklarda shunaqa.

To'y qilib, el-yurtiga yedirib, mazza qilar,
Ketayotganda, chopon kiydirib, mazza qilar,
Bu mazzani londonlik boy ota qaydan bilar,
Bilolmadim, Farang-u Afrikada qanaqa,
Dunyo hayron bo'lsa ham, o'zbeklarda shunaqa.

Qanday yashab bo'ladi handalaksiz, qovunsiz,
Erkak erkak bo'ptimi uloq, kurash, o'yinsiz,
Busiz ham elman, degan safsatani qo'ying siz,
Bilolmadim, Farang-u Afrikada qanaqa,
Dunyo hayron bo'lsa ham, o'zbeklarda shunaqa.

Aziz qilar qaysi el bizday ota-onani,
Yon qo'shnisi to'y qilsa, chiqmaganam odammi,
To'kis bo'lmas o'zbeksiz insoniyat olami,
Bilolmadim, Farang-u Afrikada qanaqa,
Dunyo hayron bo'lsa ham, o'zbeklarda shunaqa.

Beshik mayli, tuvagin ko'rib lol bo'lganlar bor,
Ming yil oldin ham bu el edi buyuk ijodkor,
Farzandlarin qonida yashar o'sha iqtidor,
Bilolmadim, Farang-u Afrikada qanaqa,
Dunyo hayron bo'lsa ham, o'zbeklarda shunaqa.

Yurt aylanib kuzatsang, bozori yo'q baqqolsiz,
Yurishmaydi chollari, do'ppi, yaxtak, soqolsiz,
Tilin uchida hazil, gap gapirmas maqolsiz,
Bilolmadim, Farang-u Afrikada qanaqa,
Dunyo hayron bo'lsa ham, o'zbeklarda shunaqa.

O'zbeklarning ko'ksida turib oy sochar ziyo,
Shunday yashash kerakdir aslida butun dunyo,
Bu elatni boshqacha qilib bo'lmas, Marhabo,
Bilolmadim, Farang-u Afrikada qanaqa,
Dunyo hayron bo'lsa ham, o'zbeklarda shunaqa. (Marhabo)

Savol va topshiriqlar:

1. *She'rdagi o'zbeklarga xos bo'lgan qaysi fazilatlar haqida gap bormoqda?*
2. *Muallif o'zbeklarning "shunaqa" ekanligidan mamnunmi yoki xafa? Fikringizni qaysi misollar bilan dalillay olasiz?*
3. *Oxirgi bandni yana bir marta jiddiy o'qing. Muallifning fikriga qo'shilasizmi? Nima uchun?*
4. *She'rning o'zingizga ma'qul bo'lgan bandlarini yod oling.*

5. *Matndagi har bir tinish belgisining qo'llanishini izohlang.*

To'rtinchi mashg'ulot

4. U u harfi:

1) uy, kun; buzoq, buloq, Buxoro; butun, uchuq, usul, yulduz; mafkura, ko'zgu, uyqu; aluminiy, yubiley kabi so'zlarda orqa qator, tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) qovun, sovun, tovush, yozuv, qirg'ovul, chirmovuq kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida o unlisi kelsa, keyingi yopiq bo'g'in boshidagi v undoshidan keyin u aytiladi va yoziladi.

1. Quyidagi so'zlarning aytilishi va yozilishiga e'tibor bering:

buyuk	suyuk	uyg'oq	unvonga
guvullamoq	suyuq	uyg'unligi	urchug'i
kakku	tuyg'un	ulamolar	ustuvorlik
munosabat	tumshuq	ulgurmagan	chug'urchuq
musohib	udum	Ulug'bekka	shuur
musofir	uzluksiz	ulug'vor	qutlug'
rutubat	uzum	umumjahon	humoyun

2. Yuqoridagi so'zlarni qatnashtirib sodda va qo'shma gaplar tuzing.

3. Quyidagi to'rttadan so'zlarni qatnashtirib gap tuzing:

Ikki, girgitton, kakku, iborat; qutlug', ibrat, udum, idrok; sifat, bilak, munosabat, milliy.

4. Quyidagi matnni o'qing. Undagi u tovushining ifodalanishiga e'tibor bering.

...

Hammamizga ma'lumki, muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka chaqiradi, lekin, shu bilan birga, hayotda bu kabi da'vatlarga amal qilishga intiladigan odam ko'pincha turli qiyinchiliklar, hatto azob-u qubatlarga duch kelishini kuzatish qiyin emas. Tan olish kerakki, yuksak ma'naviy tushunchalar bilan yashashga harakat qiladigan odamning bugun ham ko'p mashaqqatlarni, og'ir sinov va to'siqlar, muammolarni yengib o'tishiga to'g'ri keladi.

Agarki e'tibor bersak, tilimizda halollik va nopoklik haqidagi ibratli hikmatlar bilan birga, «Yo'lini topibdimi, qandini ursin», «Uzumini yeng-u, bog'ini

surishtirmang» degan maqollar ham borligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Albatta, bunday maqol-matallar bejiz paydo bo'lmagan, ular ham ma'lum bir haqiqatning ifodasi. Binobarin, biz hayotning ma'no-mazmunini shunday tushunib, shu asosda yashashga intiladigan kishilar ham borligini inkor etolmaymiz.

Lekin, mening nazarimda, bunday gaplar odamning boylik va mol-dunyoni qanday yo'llar bilan topayotganiga loqayd va beparvo qaraydigan, manfaatparast shaxslar tomonidan to'qib chiqarilgandek tuyuladi. Ularning fikricha, inson o'z boyligini peshona teri to'kib, Olloh bergan aql-idrok va tafakkurini ishlatib topyaptimi yoki qing'ir-qiyshiq, harom-xarish yo'llar bilan orttiryaptimi – bu go'yoki hech kimni qiziqtirmasligi kerak.

Shu bois biz ma'naviyat haqida fikr yuritar ekanmiz, bu masalani atroflicha va chuqur tahlil etishimiz, uning faqat o'zimizga ma'qul, ijobiy tomonlari bilan cheklanib qolmasdan, ana shunday murakkab jihatlarini ham nazardan chetda qoldirmasligimiz lozim.(I.Karimov)

Savol va topshiriqlar:

1. Ushbu matnga sarlavha toping. Matnning qisqa rejasini tuzing.
2. Matn nima haqida ekanligini ayting. Unga o'z munosabatingizni bildiring.
3. Matndagi tayanch so'zlarni aniqlang. Bunda Siz nimalarni e'tiborga olganingizni izohlab bering.
4. Endi quyidagi gaplarni o'qing. Undagi xato yozilgan so'zlarni toping. Ularni yuqoridagi matn asosida tuzatib, gaplarni daftaringizga ko'chirib yozing:

1) Hammamizga malimki, muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyik mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka chaqiradi, lekin, shu bilan birga, hayotda bu kabi davatlarga amal qilishga intiladigan odam ko'pincha turli qiyinchiliklar, hatto azob-u uqibatlariga duch kelishini kuzatish qiyin emas. 2) Tan olish kerakki, yuksak ma'naviy tushinchalar bilan yashashga harakat qiladigan odamning bugin ham ko'p mashaqatlarni, og'ir sinov va to'siqlar, muammolarni yengib o'tishiga to'g'ri keladi. 3) «Uzimini yeng-u, bog'ini surishtirmang» degan maqol xam bor.

Beshinchi mashg'ulot

5.O' o' harfi:

O' o' harfi o't, o'q, o'zbek, o'simlik, do'ppi; bo'tako'z, semizo't, gulko'rpa, noo'rin kabi so'zlarda orqa qator o'rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

1. Quyidagi so'zlarning aytilishi va yozilishiga e'tibor bering:

obro' (y)	so'zlovchi	to'q	to'liq
yo'l	so'ngida	to'kib	to'plam
ro'yobga	so'nmas	to'kilgan	to'rt
ro'yxatiga	to'g'ri	to'qib	to'fon
ro'kach	to'g'risidagi	To'qtag'ul	Xo'jayev
so'z	to'y	to'laqonli	o'ylarimiz

2. Yuqoridagi so'zlarni qatnashtirib sodda va qo'shma gaplar tuzing.

3. Quyidagi to'rttadan so'zlarni qatnashtirib gap tuzing:

o't, o'q, to'g'ri o'zbek; o'simlik, so'zlovchi, do'ppi; bo'tako'z; semizo't, gulko'rpa, noo'rin

4. Matnni o'qing.

Nutq shakllari

Nutq shakllari ikki xil ko'rinishda bo'ladi: og'zaki va yozma. Og'zaki nutq og'izda aytilishi bilan, yozma nutq esa yozuvda ifodalanishi bilan farqlanadi. Gapirish va eshitishda og'zaki nutqdan foydalanamiz. Yozish va o'qishda esa yozma nutq qo'l keladi.

5. Quyidagi maqollarni o'qing. Ularning qaysi birida og'zaki, qaysi birida yozma nutq nazarda tutilganiga e'tibor bering. Maqollarni yod oling:

Xalq aytsa, elab aytar,
Haq so'zni bilib aytar.

Aytguvchi nodon bo'lsa,
Tinglovchi dono kerak.

Betga aytganning zahri yo'q.

Kitob ko'rmagan kalla –
Giyoh unmagan dala.

Yozma, qo'lim, eshitma,
qulog'im.

Mulla bilganin o'qir,
Bo'zchi bilganin to'qir.

1. Endi ayting-chi, qaysi nutq shakli oldin paydo bo'lgan. Nega shu fikrdasiz? Asoslab bering.

2. *Tushirib qoldirilgan soʻzlarni qoʻygan holda gaplarni yozing:*
Avval ..., keyin
Aytilgan ... – otilgan

Matnni oqing.

* *
*

Xalq ogʻzaki ijodi namunalarining juda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega ekanligi haqidagi fikr bizning kashfiyotimiz emas. Uni bizning bobokolonlarimiz, ulugʻ ajdodlarimiz juda yaxshi bilishgan. Har holda alla, maqol, topishmoq, tez aytish, ertak singari adabiy-folklor janrlarining bola ongida juda erta vaqtdan boshlab oʻrin ola boshlashi bejiz emas. Bular zaminida bolada millatga, el-yurtga, atrofida qilarga, kattalarga, umuman, odam va olamga boʻlgan munosabatlar tizimi shakllanib, kamol topib boradi. Uning ona tilidagi joziba, sehr va fusunkorlikni ilgʻashi, anglashi va undan foydalanishga oid koʻnikma va malakalarining shakllanishi hamda kamol topishi ham shu jarayonlarga bogʻliq holda amalga oshadi. Shunga koʻra, Prezidentimizning “Maʼlumki, oʻzlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar oʻrtasidagi ruhiy-maʼnaviy bogʻliqlik til orqali namoyon boʻladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”,– degan gaplari fikrimizni yana bir marta qoʻllab-quvvatlaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. *Aytilishi va yozilishida farq boʻlgan soʻzlarni toping. Ularning aytilishi va yozilishiga eʼtibor bering.*
2. *Quyidagi gaplarda notoʻgʻri yozilgan soʻzlarni toping. Ularning toʻgʻri variantlarini belgilab matnni koʻchiring.*

1) Xalq ogʻzaki ijodi namunalarining juda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega ekanligi haqidagi fikr bizning kashpiyotimiz emas. 2) Buni bizning bobokolonlarimiz, ulugʻ ajdotlarimiz juda yaxshi bilishgan. 3) Har holda alla, moqol, topushmoq, tez aytish, ertak singari adabiy-folklor janrlarining bola onigida juda erta vaqitdan boshlab oʻrin ola boshlashi bejiz emas. 4) Bular zamiynida bolada millatka, el-yurtga, atrofida qilarga, kattalarga, umuman, odam va olamga boʻlgan munosibatlari tizimi shakllanib, kamol topib boradi.

(Yozganlaringizning toʻgʻriligini tekshirish uchun yuqoridagi matndan foydalaning)

Oltinchi mashg'ulot

6. E e harfi:

E e harfi ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn; kecha, behi; telefon, teatr; poyezd, atelye; e'lon, ne'mat, she'r kabi so'zlarda old qator o'rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

1. Quyidagi so'zlarning aytilishi va yozilishiga e'tibor bering:

ehrom	fe'l	sher	epkin
teva		sheryurak	erkin
tegra	cherik	el	eski
tezda	chetda	em	et
er	Chexiya	emgaklamak	ekskavator
yer	chehra	endi	
	she'r	enchi	

2. Yuqoridagi so'zlarni qatnashtirib sodda va qo'shma gaplar tuzing.

3. Quyidagi uchtadan so'zlarni qatnashtirib gap tuzing:

ehrom, teva, tegra; tezda, er, yer; enchi, epkin, erkin; eski, et, ekskavator.

4. Matnni oqing.

...

Odamlarga tarbiya berish usuli ikki turli bo'ladi. Avvalgi usul – san'atni o'z rag'batlari bilan o'rganuvchilarga ishlatiladigan usul. Ikkinchi usul esa, majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul. Manzil egasi yoki shogirdlar ustida turgan o'qituvchining tutgan usuli bunga misoldir. Masalan, hukumat (yoki davlat) mazkur mamlakatda yashovchilarning muallimi – tarbiyachisi bo'lganidek, shohlar ham fuqaroning muallimi va tarbiyachisi bo'ladilar. Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo'lib, u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi. Mana shundan ma'lum bo'ladiki, hukumat (davlat) va muallim har ikkovi o'z yo'lida bolalar yoki xalqqa tarbiya beruvchi ustod va muallimdir. (*Abu Nasr Forobiy*).

Savol va topshiriqlar:

1. Ushbu matnni o'qing. Unga sarlavha toping. Matnning qisqa rejasini tuzing.
2. Matn nima haqida ekanligini ayting.
3. Matndagi tayanch so'zlarni aniqlang. Bunda Siz nimalarni e'tiborga olganingizni izohlab bering.
4. Quyidagi gaplarda xato yozilgan o'rinlarni tuzatib, ularni daftaringizga ko'chirib oling:

1) Odamlarga tarbiya byerish usuli iki turli bo'ladi. 2) Avvalgi usul – san'atni o'z rag'batlari bilan o'rganuvchilarga ishlatiladigon usul. 3) Ikkinchi usul yesa,

majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usil. 4) Manzil igasi yoki shogirtlar ustida turgan o'qituvchining tutgan usili bunga misoldir.

Yettinchi mashg'ulot

7. Yonma-yon keladigan unlilar imlosi:

1) unlilar orasiga ba'zan y undoshi qo'shib aytilsa ham, yozilmaydi:

a) ia: material, milliard, radiator, tabiat, shariat kabi;

b) io: million, biologiya, stadion, radio kabi;

d) ai: mozaika, ukrain, said, maishat kabi;

e) oi: alkaloid, ellipsoid, doim, shoir, oila kabi;

f) ea: teatr, okean, laureat kabi;

2) ae, oe unlilari, so'z ichida kelganda ikkinchi unli y aytilsa ham, asliga muvofiq e yoziladi: aerostat, poema kabi.

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, rioya va boshqalar.

1. Quyidagi so'zlarning talaffuzi va imlosiga e'tibor bering:

biologiya	diod	maishiy	aksioma
geologiya	ion	badiiy	teorema
iona	oid	sinoat	akkordeon
melioratsiya	aeroport	psixiatr	pianino
soat	seans	toifa	fojia

2. "O'zbek tilining imlo lug'ati"dan yonma-yon keladigan unlilar mavjud so'zlarni yozing. Ular yordamida gaplar tuzing.

3. Matnni oqing.

...

Shaxsning **intellektual** hamda ma'naviy rivojlanishiga oid dastur bundan o'ttiz yillar muqaddam tuzilgan va Oleg Andreyevning maktabiga **oid** ilmiy guruh tadqiqotlari va tajribalarining natijasidir. Bu yerda ham mahalliy, ham xorijiy mamlakatlardagi psixologiya, **pedagogika**, **nevrofiziologiya**, kibernetika sohasidagi mutaxassislarning yutuqlari aks etgan. Oleg Andreyev maktabi o'quvchi qizlaridan biri moskvalik Svetlana Arxipova o'qish tezligi bo'yicha **rekord** o'rnatib, bir minutda 60 ming belgini o'qidi.

O'rgatuvchi dasturning asosiy maqsadi insonning shaxs sifatida intellektual hamda ma'naviy rivojlanishidan iborat. U o'qish tezligini 5 – 20 marta oshirish, o'qilgan matnni o'zlashtirish sifatini yaxshilash, xotirani mashq qildirish, diqqat va

intuitsiyani rivojlantirish, insondagi ijodiy qobiliyatlarni sezilarli darajada faollashtirish, uning ma'naviyatini boyitish va jismonan sog'lom bo'lishini ta'minlaydi.

O'qish texnikasining o'rni va ahamiyati, ayniqsa, maktabda katta. Xarkov pedagogika **institutida** o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'qish tezligi va o'quvchilarning o'zlashtirishi orasida bevosita aloqadorlik mavjud. Bir misol: tez o'qiydigan o'quvchilar orasida "yaxshi" va "a'lo" baho oladiganlari 53 %ni tashkil etadi. Sekin o'qiydiganlar orasida esa bu ko'rsatkich 4% ga teng.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Matnni o'qing. Uning asosiy mazmunini aytib bering.*
- 2. Matnga sarlavha tanlang. Uni asoslang.*
- 3. Matndagi tayanch so'zlarni ajrating.*
- 4. Ajratilgan so'zlar asosida gaplar tuzing.*
- 5. Matnni ifodali o'qing. Uning mazmuniga e'tibor bering.*
- 6. Bir minutda nechta so'z o'qiy olishingizni sinab ko'ring.*

Sakkizinchi mashg'ulot

Undoshlar imlosi

8. B b harfi:

- 1) bobo, bahor, bir, majbur, zarb kabi soʻzlarda jarangli portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;
- 2) kitob, yuzlab, kelib kabi soʻzlar oxirida p aytilsa ham, b yoziladi;
- 3) qibla, tobla kabi soʻzlarda baʼzan v aytilsa ham b yoziladi.

Endi quyidagi soʻzlarning aytilishi va yozilishiga eʼtibor bering:

boʻyoq	Boʻriboy	boʻshliqni	toʻqib
Boʻzsuv	boʻronlardan	boʻhtonlardan	bir
boʻyinturuq	boʻrttirib	birvarakay	boʻliq
Boʻka	boʻshashgudek	boʻkib	budjet
boʻladigan	boʻshliq	bukilgan	biryoʻla

1. Mazkur soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.

2. Quyidagi gaplarni oʻqing. Xato yozilgan soʻzlarni toʻgʻrilab ularni koʻchiring.

1) Karim hoji qivlaga qaragan holda ibodatga kirishdi. 2) Doirachi doirasini oʻtga tovlab oldi. 3) Kitop – oʻftop. 4) Oʻzbek aftomobilining dovruqʻi dunyoga ketdi.

3. Quyidagi matnni oʻqing. Matnda qoʻllangan imlo belgilarini koʻrsating, ularning tinish belgilaridan farqini ayting.

Oʻlmas siymo

(Ustod Oybek haqida oʻylar)

Xalqimizda oʻlmas siymo, degan yaxshi bir gap bor. Xalq oʻzining eng katta mutafakkirlari, ulkan olim va sanʼatkorlarini shunday deb ataydi. Bu bilan xalq oʻzining cheksiz mehri, izzat-hurmati, buyuk iftixorini izhor etadi. Ana shunday oʻlmas siymolardan biri ustod Oybekdir.

Adabiyot va uning eng nodir asarlari xalq mulkidir, umumxalq boyligidir. Lekin adabiyotning oʻziga xos va murakkab xususiyatlaridan biri shundaki, bu nodir asarlarni ayrim ulkan sanʼatkorlar oʻz isʼtedodlari, fidoyi mehnatlari, iroda va aql-zakovatlariga suyanib yaratadilar. Shuning uchun ham biz, oʻzlarining butun salohiyatlari, iroda va iqtidorlarini xalq xizmatiga boʻysundira olgan ulkan sanʼatkorlar oldida doim bosh egamiz. Ularning nomlarini chuqur hurmat va ehtirom bilan tilga olamiz. Haqiqat, bugun biz xalqimizning maʼnaviy boyligi

hisoblanmish, adabiyotimiz haqida va ruhiy xazinadagi eng noyob asarlar to'g'risida o'ylar ekanmiz, lop etib, u bebaho boylikni yaratgan ulug' adiblarni – Hamza va Abdulla Qodiriy, Sadridin Ayniy va Oybek, Hamid Olimjon va G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va Maqsud Shayxzodalar esimizga tushadi. Biz o'z adabiyotimizni bu tabarruk zotlarsiz tasavvur eta olmaymiz.

Har bir insonning hayotida shunday kitoblar, shunday asarlar uchraydiki, bu asarlar kishini larzaga solib, uning qalbida bir umr o'chmas iz qoldirgan asarlardan biri buyuk yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romani, ikkinchisi ustod Oybekning «Qutlug' qon» romani bo'lgan edi. Adabiyotimizning shoh asari bo'lmish «Qutlug' qon» romanini ilk bor qo'limga olganimda men o'n besh-o'n olti yashar bir o'spirin edim. Lekin hali-hanuz esimdan chiqmaydi. Sodda, oq ko'ngil qishloq yigiti Yo'lchining fojiali muhabbati to'g'risidagi bu nodir kitobni men bir kechada, xira lampa shu'lasida o'qib chiqqan edim. Albatta, u paytlarda men bu ulkan ijtimoiy asar zahirida yotgan chuqur ma'noni, asarning o'lmas obrazlari asosida yotgan katta ijtimoiy mazmunni yaxshi tushunmas edim. Lekin bir narsa hanuz yodimda. O'sha kecha roman qahramoni Yo'lchi o'z tug'ishgan akamdan ham yaqin, undan ham aziz bo'lib qoldi. Gulnorni, bu pok, oliyjanob, samimiy va baxtiqaro qizni esa o'z tug'ishgan opamdan ham yaxshiroq ko'rib qolgan edim. O'sha kecha umrimda birinchi bor mening qalbmida zulm, nohaqlik va adolatsizlikka qarshi chuqur nafrat va isyon tuyg'usi uyg'ongan edi. Ayni zamonda ezgulik istagi tug'ildi.

O'sha kecha men, «Qutlug' qon»ni o'qib o'tirib, yaxshilik nima, yomonlik nima, adolat va adolatsizlik nima, insof va noinsoflik nima, tushunganday bo'ldim. Boshqacha qilib aytganda, bu o'lmas asarning teran ijtimoiy mazmuni bebaho ezgu tuyg'ularga aylanib, o'n olti yashar bir o'spirinning qalbiga yorug' nur bo'lib quyilgan edi. Men bu nur, bu yorug' tuyg'ularni toabad unutmayman...

Oybek domlaning adabiyotimiz uchun, madaniyatimiz uchun qilgan xizmatlarini sarhisob qilish oson emas. Bu behisob xizmatlari ichida men ustozning yana bir ulug' xizmatini alohida bir mehr bilan, shogirdlik bir hurmati

bilan aytib o'tishni istardim, u ham bo'lsa Oybek domlaning yana bir ulug' asari «Navoiy» romaniga singgan mehnatidir.

Ustoz Oybekning ulug'ligi shundaki, u kishi xalqimiz uchun buyuk bobomiz Navoiy hazratlarini tiriltirib berdilar.

Albatta, biz onadan tug'ilibmizki, buyuk bobomiz she'rlari qo'shiq va kuy bo'lib qulog'imizga quyiladi. Biz bu she'rlar, bu qo'shiq va kuylarni onalarimiz allasi bilan birga eshitamiz. Bobomizning o'lmas asarlarini – «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin»larning mungli sevgisini onalarimiz va buvilarimiz bizga go'daklik chog'larimizdayoq ertak qilib so'zlab berishgan. Lekin bu asarlarni, besh yuz yildan beri butun insoniyatni lol qoldirib kelayotgan bu sevgi dostonlarini, cheksiz mung bilan yo'g'rilgan bu qo'shiqlarni, bu nurday yorug' she'rlarni yaratgan insonning o'zi, Navoiy hazratlarining o'zlari qanday odam bo'lgan, bobomiz qanday ishlar qilgan, boshidan qanday savdolar o'tgan, qanday musibatlar kechgan – biz buni yaxshi bilmas edik, bilsak ham bu buyuk zotni bir odam sifatida, inson sifatida yaqqol ko'z oldimizga keltira olmas edik. Bu murakkab ishni, ijodiy jasorat deb atalmish bu bebaho ishni qilgan odam – Ustod Oybekdir. Oybek domla adabiyotimizda birinchilardan bo'lib, buyuk bobomiz siymosini yaratdi. Ulug' ajdodimizning o'ylarini bizning o'ylarimizga, dardlarini bizning dardlarimizga ulab, ulug' zotni o'z zamondoshlarimizday yaqin, hamdard, hamfikir bir insonga aylantirdi. (O.Yoqubov)

Savol va topshiriqlar:

- 1. “O'lmas siymo” ifodasining Oybekka nechog'lik munosib ekanligini izohlab bering.*
- 2. Bu ifodani yana kimlarga nisbatan qo'llash mumkin deb o'ylaysiz? Nega?*
- 3. Oybek nima uchun Navoiy siymosini yaratishga juda qattiq kirishganligini izohlab bering.*
- 4. Mazkur matn asosida ixcham bayon yozing.*

To`qqizinchi mashg`ulot

9. P p harfi:

P p harfi paxta, pichoq, opa, tepa, tup, yop kabi soʻzlarda jarangsiz portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

Quyidagi soʻzlarni koʻchirib yozing:

paydo	Parijda	pichoqchilik	poytaxti
payt	parlament	Platon	pokiza
paytga	pahlavon	poydevorini	prezidentlik
pallasida	peshona	poylab	professional
paradlar	pirovard	poymol	puxta

2. Quyidagi juftliklarning toʻgʻri variantlarini belgilang:

poiz – foiz	kitop – kitob	oftob – optop	Feruza – Peruza
aft – apt	fil – pil	serop – serob	hisob – hisop
janob – janop	fontan – pontan	farq – parq	javob – javop

3. Alisher Navoiyning quyida keltirilgan hikmatlarini yod oling:

Telba qulogʻga pand – quyun oyogʻiga band. Soʻzni koʻnglungda pishqormaguncha tilga kelturma, har nakim koʻnglungda boʻlsa tilga surma.

3. Quyidagi matnni ifodali oʻqing.

Bahor keladi. Birin-ketin oʻriklar, shaftolilar, olcha-olxoʻrilar, bahor ishqil bilan xilma-xil nafis gullarga tantana ila burkanadi. Daraxtlarning bunday fusunkor gullari, koʻm-koʻk mayin yaproqlari ruhlarni koʻtaradi, zavqlarni chayqaydi.

Bahor shamoli bizlarga hamqur. Bizlar hammamiz tomida. Hammamiz varrakka yopishganmiz. Gʻip-gʻir shamol. Tomda maysalar koʻrkam. Ayniqsa, hammamizning dardimiz, havasimiz quroqda. Quroq – baquvvat, rangdor qogʻozlardan quralib yasalgan zoʻr, katta varrak. Shunday quroqlar boʻladiki, bolalar fanor yoqib uchiradilar. Mahkam bilan Moʻmin – quroqning ustasi. Tun qorongʻiligida fanorlari yulduzday chaqnagan quroqlar vangʻillab turadi. Men ham bolalarga ergashib, havas bilan, urina-urina kichik bir oʻrgamchik varrak yasayman. Tomning u boshidan-bu boshiga yugurib uchira boshlayman.

Havo yoqimli. Gʻir-gʻir mayin bahor shamoli... Quyosh osmonda ulugʻvor kezadi... Tomlarda, ayniqsa, oʻtgan kuz suvoqdan qolgan eski tomlarda turli mayin

o‘tlar, har xil gullar ko‘p. Endi bizning o‘yin sahnimiz – tom. Tomdan tomga oshib, varrak uchiramiz.

Varrakdan zerikib, tomdan ko‘chaga o‘zimni tappa tashlayman. Bobom boshini egib, o‘ychan holda, oftobda maza qilib o‘tiribdi. Mahallamizda bir vaqtlar bo‘zchilar ko‘p bo‘lgan. Hozir ular uncha-muncha shohi to‘qishga boshlaganlar. Tor ko‘chada tandani har yoqlama tortib, yoyib tashlashibdi. Tanda – murakkab narsa. Chollar tanda yoyganda men nari siljimayman.

To‘quvchilar tanda qurganda bobom chetda, devorga suyanib, oftobda ular bilan suhbat qilishni sevadi. (Oybek)

Savol va topshiriqlar:

1. *Matnga sarlavha toping.*
2. *“Chollar tanda yoyganda men nari siljimayman” gapidan bolaning qaysi xislati (injiqligi, erinchoqligi, surbetligi, qiziquvchanligi) namoyon bo‘ladi? Fikringizni dalillang.*
3. *Matn asosida qisqacha bayon yoki diktant yozing.*

O`ninchi mashg`ulot

10. V v harfi:

1) ov, suv, kuyov; ovoz, savol; volida, vatan kabi soʻzlarda ovozdor sirgʻaluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) avtobus, avtomat kabi oʻzlashma soʻzlarda v baʻzan f aytilsa ham, v yoziladi.

Vahiy	ventilator	afv	ovcharka
valeryanka	gʻavvos,	davlat	siylov
variant	avval	ivirsimoq	oʻquv

1. Mazkur soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.

2. Quyidagi gaplarni oʻqing. Xato yozilgan soʻzlarni toʻgʻrilab ularni koʻchiring. Mushikka rioyat – kabutargʻa ofatdur. Shogʻl jonibin tutmoq (yonini olmoq) – tovuq tuxmin quritmoqdur. Vafoligʻ qoʻtuz (qoʻtir) it yaxshiroqkim, vafosiz xush barno yigit. Oʻt ishi – qovirmoq, yel ishi – sovirmoq. (Alisher Navoiy)

3. Quyidagi matnni oʻqing. Undagi v tovushining ifodalanishiga eʼtibor bering.

Oʻzbekiston Respublikasi faxriy unvon, orden va medallari

Har bir xalqning, har bir mamlakatning oʻz qahramonlari boʻladi. Ularning Vatan taraqqiyoti yoʻlida, iqtisodiyot va madaniyatni yuksaltirish sohasida va el farovonligi uchun qilgan xizmatlari ardoqlanadi, ulugʻlanadi, mukofotlanadi.

Mustaqil Oʻzbekistonimizda ham ana shunday fidoyilar munosib taqdirlanadi. Shu maqsadda istiqlol yillarida talay faxriy unvon, orden va medallar taʼsis etilgan.

“Oʻzbekiston Qahramoni” unvoni va “Oltin Yulduz” medali respublikamizning eng yuksak mukofotidir. Bu unvon Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 5-maydagi Farmoni bilan taʼsis etilgan va Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan boʻlib, davlat hamda xalq oldida qahramonona jasorat koʻrsatish bilan bogʻliq xizmatlar uchun Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolariga beriladi. “Oʻzbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlangan shaxsga «Oltin Yulduz» medali va unvon berilganligi toʻgʻrisidagi hujjat topshiriladi. «Oltin Yulduz» medalini tantanali va keng oshkoralik vaziyatida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti yoki uning nomidan Oliy Majlis raisi, Bosh vazir topshiradi. Medal 585 probali oltin qotishmasidan tayyorlanadi va

old tomonida har bir qirrasining ikki yonbag‘ridan oltin nurlar taralgan, sakkiz qirrali yulduz shaklida bo‘ladi. Markazidagi doira ichida O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining ramziga monand yarim oy va besh qirrali yulduz joylashgan, orqa tomoni markazida Davlat gerbining tasviri tushirilgan.

«O‘zbekiston Qahramoni» unvoni va «Oltin Yulduz» medaliga birinchi bo‘lib «Suveren va mustaqil O‘zbekistonni barpo etish, xalqparvar demokratik huquqiy davlat yaratish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni ta‘minlash ishiga qo‘shgan ulkan hissasi hamda bu borada matonat va jasorat ko‘rsatganligi uchun» O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov sazovor bo‘ldi (1994-yil 5-may).

«Mustaqillik» ordeni (1994-yil 5-mayda ta‘sis etilgan) – mustaqil huquqiy davlat barpo etish va uni mustahkamlashga, respublikada tinchlik va taraqqiyotni ta‘minlashga qo‘shgan ulkan hissalari uchun;

«Amir Temur» ordeni (1996-yil 26-aprelda ta‘sis etilgan) – davlatchilikni mustahkamlashdagi ulkan xizmatlar, me‘morchilikni, ilm-fan, adabiyot va san‘atni, harbiy mahoratni rivojlantirishga qo‘shgan ulkan hissalari uchun;

«Buyuk xizmatlari uchun» ordeni (1996-yil 29-avgustda ta‘sis qilingan) – fan va texnikani, iqtisodiyot va madaniyatni rivojlantirishdagi katta xizmatlar, davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish va O‘zbekistonning xalqaro obro‘sini yuksaltirishga qaratilgan ichki va tashqi siyosatni amalga oshirish ishiga qo‘shgan sezilarli hissalari uchun;

«El-yurt hurmati» ordeni (1998-yil 28-avgustda ta‘sis etilgan) – mamlakat mustaqilligini, iqtisodiy qudratini mustahkamlashga, milliy ma‘naviyatni, madaniyatni yuksaltirishga katta hissa qo‘shganlik, o‘z mehnati, ilmiy, jamoat ishi, mehnatsevarligi va vatanparvarligi bilan jamoatchilik izzat-hurmatiga sazovor bo‘lganlik uchun;

I va II darajali «Sog‘lom avlod uchun» ordeni (1993-yil 7-mayda ta‘sis etilgan) – onalik va bolalikni muhofaza qilishdagi, sog‘lom avlodni kamol toptirish uchun eng yaxshi moddiy sharoit va axloqiy muhitni ta‘minlashdagi alohida xizmatlar uchun;

«Mehnat shuhrati» ordeni (1995-yil 6-mayda ta'sis qilingan) – iqtisodiyot va madaniyat yuksalishiga, xalq farovonligi oshishiga, tinchlik va barqarorlik saqlanishiga xizmat qiladigan ulkan ishlar uchun;

«Jaloliddin Manguberdi» ordeni (2000-yil 29-avgustda ta'sis etilgan) – Vatan sarhadlarini, ona yurtimiz tuprog'ini, mamlakatimiz mustaqilligini himoya qilishdagi yuksak xizmatlari uchun;

I va II darajali «Shon-sharaf» ordeni (1995-yil 6-mayda ta'sis etilgan) – Vatanni himoya qilishda ko'rsatgan fidoyilik va mardlik uchun, O'zbekistonda mudofaa qudratini va milliy xavfsizlikni mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarligini oshirish va huquq-tartibotni ta'minlash ishidagi katta xizmatlar uchun;

«Do'stlik» ordeni (1995-yil 5-mayda ta'sis qilingan) – O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning vakillari o'rtasida do'stlik, o'zaro hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, O'zbekiston xalqining boshqa mamlakatlar xalqlari bilan do'stlik va har taraflama hamkorligini rivojlantirishdagi xizmatlar uchun beriladi.

Shuningdek, «Shuhrat» va «Jasorat» medallari hamda turli kasb va soha kishilari uchun alohida faxriy unvonlar ta'sis etilgan.

Jahon chempionatlarida, Olimpiya o'yinlarida va shularga teng jahon sport anjumanlarida g'oliblik – chempionlik unvoniga erishgan hamda o'z yutuqlari bilan Vatan obro'sini, shon-u shuhratini ulug'lashga ko'maklashgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga «O'zbekiston iftixori» faxriy unvoni beriladi (1998-yil 28-avgustda ta'sis qilingan).

Orden, medal va faxriy unvonlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan beriladi.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Respublikamizdagi faxriy unvon nomlarini aytib bering.*
- 2. Respublikamizda joriy etilgan orden va medallarning nomlarini sanang.*
- 3. «O'zbekiston Qahramoni» unvoni va «Oltin Yulduz» medaliga birinchi bo'lib kim va nima uchun sazovoh bo'lgan?*
- 3. Atoqli otlarning yozilishiga e'tibor bering.*

O`n birinchi mashg`ulot

11. F f harfi:

1) fan, fe'l, futbol, fizika; asfalt, juft; insof, isrof kabi so'zlarda jarangsiz sirg'aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) fasl, fan, Fotima, fursat kabi so'zlarda f tovushi ba'zan p aytilsa ham, asliga muvofiq f yoziladi.

1. Quyidagi so'zlarning aytilishi va yozilishiga e'tibor bering:

foiz	fil	farq	fuqaro
aft	fontan	Feruza	futbol
fakultet	oftob	fir'avn	afsun

4. Qaysi qatordagi barcha so'zlarda nuqtalar o'rniga f harfi qo'yiladi?

A) a...tol, a...gor, ta...silot

B) a...zal, a...g'on, ta...fiq

C) a...zun, sa...sargul, ta...tish

D) a...sona, sha...qat, ta...siflamoq

4. Matnni ko'chiring:

Eski chopon bila forig' tufrog'da o'lturmoq yaxshiroqkim zarbaft xafton (hashamdor to'n) kiyib birov olida turmoq. (Alisher Navoiy)

Matnni o'qing.

G'afur G'ulom

G'afur G'ulom ijtimoiy bo'ronlar gurlagan XX asrning tongida dunyoga kelib, o'z o'rnini ham uning suronli saflaridan topdi. U to'xtovsiz ro'y berib turgan siyosiy zilzilalar ta'sirida o'sdi. Oqil, fozil, davrni teran tushungan, adabiy iste'dod nuri ziyosidan bahramand bo'lgan ilg'or qarashli ota-ona tarbiyasini oldi. Asr boshidagi milliy maktablarda ta'lim ko'rdi. Madrasa tahsilini tugatdi. Rossiya, Qrim, Tatariston, Hindiston, Afg'oniston, Turkiyadan kelib turadigan gazeta-jurnallar, kitoblarni qidirib, topib, o'qib, ulardan yosh ongi va qalbining izlanishlarini bahrador qilardi. Shoirning otasi G'ulom Mirza o'g'li el-yurtga taniqli ma'ruf, nozim kishilardan bo'lib, uning atoqli xonadonida Muqimiy, Furqat, Asiriy, Muhyi, Xislat kabi ko'zga ko'ringan xalqparvar shoirlar tez-tez mehmon bo'lganlar. G'afur G'ulom o'smirlik pillapoyalariga qadam qo'ygan kezlarda birin-ketin ota-onadan ayrildi. Yoshligida aka-singillari bilan birgalikda yetimlikning og'ir zahrini tottdi. Ular yosh bo'lishlariga qaramay hech qanday

mehnatdan or qilmadilar, bolalarni mehnat qutqardi. Ularning hammalari ishga ham, o'qishga ham g'oyatda o'ch edilar. Yetimlikda zabunlikni tan olmay, ilm, bilim, tahsil olish payiga tushdilar. G'afur G'ulom juda serharakat, serg'ayrat, har narsaga qiziqadigan, serzavq bola – hayotning ne-ne dorilfununlarida tahsil ko'rdi, boy tajriba orttirdi. U ma'rifat tarqatuvchi – muallim bo'lib yetishdi. Jon-dildan mamlakatda boshlangan madaniy yangilanish ishlariga sho'ng'idi. Butun vaqtini yangi maktablar tashkil etishga, yetim, qarovsiz bolalarni tarbiyalashga, ularni boshpana bilan ta'minlashga bag'ishladi.

G'afur G'ulomni butun elga tanitgan, unga elning muhabbatini uyg'otgan “Netay”, “Tirilgan murda”, “Yodgor” va ayniqsa, “Shum bola” singari nasriy asarlarining mazmun mohiyatida yetimlik ko'rguliklari, yetimlik sarguzashtlari, yetimlikdan qutulish, uni yengib o'tish yo'lidagi urinish va intilishlar turadi. G'afur G'ulom yetimlik nimaligini hammadan ko'ra yaxshiroq bilgani uchun ham yetimlar va yetimlik taqdirini mislsiz bir hamdardlik bilan yozadi, o'zida tuganmas, yo'qolmas, bitmas insonparvarlikni kashf etadi. Uning eng ulug' asarlaridan birining “Sen yetim emassan” deb atalishi bejiz emas. Bu asar inson sharafiga gimndir. Agar adabiyotda gimndan ham ortiqroq tantanali bir narsa bo'lsa, bu she'r ham o'sha gimndan ham ortiq bir hodisadir. (Ibrohim G'afurov)

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o'qing.
2. Undagi “f” undoshi qatnashgan so'zlar ro'yxatini tuzing.
3. Matnning ixcham rejasini tuzing.
4. O'zingiz tuzgan reja asosida matn mazmunini qayta aytib bering.
5. G'afur G'ulom haqida “U to'xtovsiz ro'y berib turgan siyosiy zilzilalar ta'sirida o'sdi” deyilgan. Buni Siz qanday izohlaysiz?
6. Nima uchun G'ulom Mirza xonadoniga nisbatan “atoqli” degan sifat qo'llanmoqda? Matnga tayanib izohlab bering.
7. G'afur G'ulomning qaysi asarlarini o'qigansiz? Ularning nomlarini sanab bering.
8. Adib yozgan hikoyalarning nomini ayting.
9. Uning “Mening o'g'rigina bolam” hikoyasini o'qiganmisiz? U nima haqida yozilgan?

O`n ikkinchi mashg`ulot

12. M m harfi:

M m harfi moy, muborak, tomon, ilhom kabi soʻzlarda ovozdor lab-lab burun undoshini ifodalash uchun yoziladi.

1. Quyidagi soʻzlarning oʻqilishi va yozilishiga eʼtibor bering:

muhabbat	mahmadona	toʻzim	shtamp
malʼun	Amazonka	chashma	yumma
maorif	Muhammad	vahm	yutum
mafkura	seysmologiya	fahm	turizm

2. Berilgan soʻzlardan qaysi birining ikkinchi boʻgʻinida u yoziladi?

- A) mushf...q, muh...m B) muq...m, muh...t
C) mushk...l, sov...n D) mutr...b, musl...m

Matnni ifodali oʻqing.

FAZILAT VA NUQSON

Elig Oytoʻldidan qanday fazilatlari borligini soʻraydi.

– Fazilatim juda koʻp, – deb javob beradi u. – Kishilarga naf tegadigan boʻlsa, albatta, men tufayli boʻladi. Mening qiligʻim – xatti-harakatim doimo goʻzal va yoshim kichikdir. Har qanday istak men tufayli qoʻl beradi. Tugal orzu-umidlar men bilan yonma-yon yuradi. Sevinch – menda. Emgak menga yaqin yoʻlamaydi. Quvonch va shodlik – menda. Qaygʻu-gʻamlar menga begona.

– Endi nuqsonlaring haqida ham gapirib ber, – deydi Kuntugʻdi.

– Aslida nuqsonim yoʻq, – javob beradi Oytoʻldi.

– Men (yaʼni Oy) oʻzgarib, yangilanib turaman. Axir eski narsa yaroqsiz boʻladi. Yangi narsa borida eski nega kerak?! Yetuk narsa borida yovuz, yaroqsiz narsa nima uchun kerak?!

Mening yagona nuqsonim oʻzgaruvchanligim. Shuning uchun kishilar meni bevafo deb atashadi. Elig:

– Bu oʻtkinchiligingni angladim. Ammo seni tutishning yoʻli bormi? – deya savol beradi.

Oyto‘ldi shunday javob beradi:

–Men kiyikka o‘xshayman. Istagan odam meni topa olmaydi.

Bordi-yu, topsa ham, uzoq ushlab turolmaydi.

Meni qo‘lga kiritgan odam qattiq ushlasagina undan qocholmasligim mumkin. Ammo buning bir qator shartlari bor.

Eng avvalo, meni qo‘lga kirituvchi kishining qilg‘i ravon, ko‘ngli yumshoq, til va so‘zi shirin bo‘lishi lozim. O‘zini ehtiyot qilsa, g‘ururlanmasa, yovuz va yaramas ishlarga yaqin turmasa kifoya. U kattalarga xizmatni, kichiklarga shirin so‘zni ravo bilsin. Gerdayib kishilarni oyoqosti qilmasa, o‘zidan kichiklarga mensimay qaramasa, fe‘l-atvorini to‘g‘rilikda tutsa yaxshi.

Kimda-kim mana shularga rioya qilsa, men u bilan birga qolaman, bo‘lmasa, kiyikdek qochib ketaman. Unda menga kim yetga oladi?!

Bu javobdan keyin elig yanada xursand bo‘lib ketadi. Oyto‘ldining donoligi, tajribakorligiga qoyil qoladi. So‘ng undan davlatli va baxtiyor bo‘lishning yo‘llarini so‘raydi. Oyto‘ldi buning yo‘li zariflik, dili ravshanlik, qat‘iyatlilik, yovuz – yaramaslardan uzoq turish, o‘zidan ulug‘larni hurmat qilish, kichiklarni e‘zozlash, hasaddan yiroqlik, isrofgarchilikdan asranish, hiylalardovlardan yiroqda turish ekanligini aytadi. (Yusuf xos Hojib)

Savol va topshiriqlar:

1. Harbiylarga xos bo‘lgan asosiy fazilatlarini aytib bering.
2. O‘zingizdagi qaysi nuqsonlarni e‘tirof qilasiz? Ularni qay tarzda bartaraf qilmoqchisiz?
3. “Qutadg‘u bilig” asarida lashkarboshi haqida alohida bob mavjud. Uni topib o‘qing.

O`n uchinchi mashg`ulot

13. D d harfi:

1) dala, odat, bunyod, modda, jiddiy kabi soʻzlarda til oldi jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) obod, savod, marvarid; zavod, pud, sud; badqovoq, badxoʻr kabi soʻzlarda t aytilsa ham, d yoziladi.

1. Quyidagi soʻzlarning oʻqilishi va yozilishiga eʼtibor bering:

admiral	dallol	dispetcher	Samarqand
tavallud	doʻngalak	defitsit	mard
tadbirkorlik	donishmand	dastyor	Moturud
tahdidlarga	duet	maddoh	gard

2. Navoiy hikmatlarini oʻqing. Ularni izohlang.

Shogird agar shayx ul-islom, agar qozidur, agar ustod andin rozidur – tengri rozidur. Dehqonki dona sochar, yerni yormoq bila rizq yoʻlin ochar. Himmatsiz kishi er sonida emas, ruhsiz badanni kishi tirik demas. Har koʻngulnikim vafo maskan qilur, hayo ham qilur va har maskandakim, ul topilur, bul ham topilur. Vafosizda hayo yoʻq, hayosizda vafo yoʻq.

3. Jadvalni tegishli soʻzlar bilan toʻldiring:

d		d						
d			d					
d				d				
d					d			
d						d		
d							d	
d								d

Matnni ifodali oʻqing.

...

Unashtirish marosimi tugagach, mehmon boʻlib kelgan sovchilar qudalar bilan xayr-xoʻsh qilib, toʻyga taraddud koʻrish uchun oʻz yurtiga qaytib ketishdi. Tayyorgarlik boshlanib ketdi. Hammasi koʻngildagiday boʻlayotgan edi. Urf-odat va anʼanalarga koʻra hamma-hammasi boshqa oʻtovlardan nariroqda koʻrinarli joyda kelin-kuyov birinchi kechasi tunaydigan toʻy oʻtovidan, shuningdek, quda-

andalar hamda qarindosh-urug'lar uchun mo'ljallangan o'tovlardan tortib sovg'a-salomlar hamda ziyofatlar hozirlashgacha – barcha-barchasi shay qilib qo'yildi. Oqinlarning aytishuvlari, yoshlarning qo'shiqlari va o'yin-kulgilari ham nazarda tutilgan va rejalashtirilgan edi. O'sha zamonlarda to'y barcha qabilalarning umumiy ishi bo'lgan.

Mehmonlar keladigan va to'y boshlanadigan kun ham yaqinlashib qoldi. Hurmatli mehmonlar uchun yangi ov go'shti va quda-andalarga tortiq qilish uchun qimmatli mo'ynalar olib kelish niyatida ovchi kuyov ikkita ukasi bilan ovga jo'naydilar. Ko'ngildagiday ov bo'ldi. Biroq tush paytiga uzoq-yaqindan ovozlar eshitiladi – ovchi kuyovni qarindosh-urug'lari qidirib yurishgan ekan. Bir to'p kishilarning hammasi hayajonda. “Sho'rimiz qurib qoldi! To'xta! Orqaga qayt!” – deb qichqirishdi va dod-faryod solib shum xabar keltirishdi: unashtirib qo'yilgan kelin sevib yurgan yigiti bilan shu bugun kechasi qochib ketib qolibdi, ko'pchilik uni katta shaharga olib ketishgan deyishyapti.

Shundan so'ng nima bo'ldi deng? Osmonni g'ubor qopladi, dovul ko'tarildi, yoz kunida xuddi qishdagiday qor-bo'ron quturdi. Qarindosh-urug'lar: “Sharmandalik!” – deb baqirib qichqirishar, o'zlarini yerga otishar va ko'kka yolvorishar edi. – Bu isnod qayerdan keldi, shunisi bormidi?! U ablahni o'ldirish, uyatsizni topib olib, o'sha joyning o'zida kallasini olish kerak. Hamma qidirib ketishga tayyor edi. Lekin ovchi kuyov miq etmas edi. U tildan qolganday turgan joyida qotib qoldi.

–Yo tavba! Yo tavba! Bu qanday dahshat?! – dildan kuyganidan pichirlar edi Aydana.

–Men aytyapman-ku! – dedi Arsen Somanchin. – Bularning hammasi opera sahnasida ko'rsatilsa-chi? Shunga yarasha musiqa, ovozlar bo'lsa, sahna naqadar hayajonli chiqar edi. Aya, o'shandan so'ng yanada dahshatli voqealar bo'lib o'tgan.

Qarindosh-urug'lar kelinni quvib topish uchun shosha-pisha tayyorlanar ekanlar, ovchi kuyovni tezroq otga min deb zo'rlasha boshladilar, jim turgan kuyov birdan tilga kirdi. “Bas qilinglar, jim bo'linglar! Men hech qayoqqa

bormayman! Mening shunday qarg'ishga qolganim rost bo'lsa, men ham o'sha yaramasni qarg'ayman. Butkul odam zotini qarg'ayman! Odam bo'lgandan ko'ra hayvon bo'lganim yaxshi, endi jo'nab qolinglar. Dunyoda bironta odamni ko'rgani ko'zim yo'q va bundan buyon meni ham hech kim ko'rmaydi. Eshitdilaringmi? Ko'zimdan yo'qolinglar! Meni axtarmanglar!" Shunday dedi-da, otidan sakrab tushdi va piyoda yurib tog'dan oshib ketdi. Qarindosh-urug'lari bu voqeadan so'ng turgan joylarida qotib qolishdi, lekin u nom-nishonsiz yo'qoldi. Shundan so'ng uni hech kim ko'rgan emas. (Ch.Aytmatov)

Savol va topshiriqlar:

1. *“Er yigitning uyalgani – o'lgani” maqolining matnga aloqasini izohlab bering.*
2. *Yozuvchi nima uchun “Hammasi ko'ngildagiday bo'layotgan edi”,– deb alohida ta'kidlamoqda?*
5. *Siz qizning harakatlarini qanday baholaysiz ? Yigitning-chi?*
6. *Shunday vaziyatda Siz nima qilgan bo'lar edingiz ?*

O`n to`rtinchi mashg`ulot

14. T t harfi:

T t harfi tong, tun; butun, o`tin, o`t, kut kabi so`zlarda til oldi jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

1. Quyidagi so`zlarni ko`chirib yozing:

bitta	tamoyil	Termiziy	to`g`rilik
do`st	tarbiya	texnologiya	to`laqonli
iltifot	tarz	tibbiyot	to`siqlar
pitirlamoq	tariqa	tortiq	to`fon
taassufki	tarovat	totli	universitet
tabarruk	tahsil	toshyozuv	ust
tabiat	Taxtapul	Toshkent	mitti
tabiatga	ta`lim	Teshiktosh	niqtamoq
tajovuzkorlik	teatr	tug`ma	otaxon
taqdiriga	Temur	tuyg`u	saxovat
taqozo	teran	turmush	taajjub
taassurotlar			

2. Nuq talar o`rniga tegishli harflarni qo`yib, gaplarni ko`chiring:

Bekorchilik va aysh-ishrat nafaqat nodonlikka olib keladi, ayni vaq...da kasallikning tug`ilishiga ham sabab bo`ladi. (*Ibn Sino*) Aysh-ishrat va bekorchilikdan buzuqlik va kasalmandlik kelib chiqadi, aksincha, aqlning nimagadir in...ilishi sog`li...ni mut...asil mustahkamlab boradigan bardamlikni yuzaga chiqaradi. (*Gippokrat*) Mehnat ochlikning da`vosi, oshqozonning ma...hami, sihat-salomatlikning garovidir. (*M. Safir*) Eng yaxshi a...loqiy va estetik dori – mehnat. (*A. Frans*)

3. Matnni ifodali o`qing.

Taxallus

«Taxallus» arabcha so`z bo`lib, u ikki ma`noni – xalos bo`lish, qutulish hamda o`z nomidan boshqa bir nomni qabul qilish ma`nolarini anglatadi. Taxallusni yozuvchi va shoirlar, rassom va artistlar, olim va jurnalistlar, davlat hamda jamoat arboblari ikkinchi nom sifatida qabul qiladilar. Masalan, o`zbek xalqining buyuk shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy o`zbek tilida yozgan asarlarida «Navoiy», fors-tojik tilida yozgan asarlarida esa «Foniy» taxalluslarini qo`llagan.

Taxallus tanlaganda quyidagi shartlarga rioya qilingan. Eng avvalo, o'zining mehnati evaziga berilgan unvonni taxallus sifatida qo'llash. XI asrda yashab ijod etgan shoir Yusuf o'zining «Qutadg'u bilig» («Saodatga yo'llovchi bilim») asarini qoraxoniylar sulolasining hukmdori Bug'roxonga taqdim etganda, hukmdor bu asarni ma'qullab, xizmati evaziga shoirga «Xos Hojib» (eshik og'asi) unvonini bergan. Mana shundan so'ng shoir Xos Hojib unvonini o'ziga taxallus qilib oladi.

Shoir Abdurahmon Jomiy o'ziga o'zi tug'ilgan joy – Jom shahrining nomini, Ismat Buxoriy esa Buxoroni, Badriddin Chochiy esa Choch (Toshkent)ni o'z vataniga mehr-sadoqat ramzi sifatida taxallus qilib olganlar.

Ko'pchilik taxalluslar ijodkorlarning kasb-hunari, sevgan mashg'ulotlaridan olingan. Umar Xayyom chodir tikuvchilik bilan shug'ullanganligi uchun Xayyom taxallusini olgan. Chunki arab tilida chodir “xayma” deb yuritiladi. Shoir Sakkokiyni pichoqchilik bilan shug'ullanganligi sababli Sakkokiy deb atashgan. Chunki pichoq arab tilida “sakkok” deyiladi.

Bir qancha shoir-u san'atkorlar o'zlarining ijtimoiy kelib chiqishlari, moddiy turmush darajalari, o'zlari mansub bo'lgan tabaqaning ahvoliga qarab taxallus tanlaganlar. Masalan: Amiriy, Vaziriy, G'aribiy, Miskin kabi.

Ijodkorlarning xislatlari, ruhiy holati, kayfiyati va taqdiri kabilar ham ularning taxalluslariga asos bo'lgan. Savdoiy, Jununiy, Mashrab, Furqat, Maxmur kabilar.

Ba'zi ijodkorlar o'zlariga o'z ismlarini ham taxallus sifatida qo'llaganlar. Masalan, Muhammad Solih, Mavlono Mo'miniy kabi.

Yoki Navoiy, Bobur, Hiloliy, Oybek, Nihoniy, Shamsiy, Suhayliy va boshqa ijodkorlar o'zlariga yaxshi ko'ringan yoki yoqqan narsalarni ramziy ma'noda taxallus qilib olganlar.

Hukmdorlarning maslahati yoki amir-amaldorlarning tavsiyasi bilan qabul qilingan taxalluslar ham anchagina. Mujrim Obid, Mavlono Zamoniyy kabilar. Taxallus badiiy adabiyotda muallifning nominigina bildiruvchi vosita bo'lmay, keng ma'noda ramziy atamadir. Shu sababli taxallus tanlashga ijodkorlar jiddiy munosabatda bo'lganlar. Tanlagan taxalluslarning o'zlariga mos kelishiga, bu

taxallusning ilgari yoki o'z zamonlarida boshqalar tomonidan qo'llanmaganligiga katta ahamiyat berilgan. ("Bolalar ensiklopediyasi"dan)

Savol va topshiriqlar:

1. Atoqli otlarning yozilishiga e'tibor bering.
2. Matnlagi taxalluslarni alifbo tartibida yozing.
3. Qaysi lirik janrda taxallus, albatta, ishtirok etadi?

O'n beshinchi mshg'ulot

15. Z z harfi:

1) zar, zamon; toza, o'zbek; yoz, g'oz kabi so'zlarda til oldi jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) iztirob, izquvar, bo'zchi, tuzsiz kabi so'zlarda jarangsiz undoshdan oldin s aytilsa ham, z yoziladi.

1. Z z harfining o'qilishi va yozilishiga e'tibor bering:

zambarak	zaxira	zaryadka	zuluk
za'faron	zalvarli	zanjabil	zurriyot
zootexnik	zajigalka	zamburug'	zohir
ziroat	zaharxanda	zeriktirmoq	zotiljam

2. Quyidagi uchtdan so'zlarni qatnashtirib gap tuzing:

Zambarak, za'faron, zootexnik; ziroat, zaxira, zalvarli; zajigalka, zaharxanda, zaryadka; zanjabil, zamburug', zeriktirmoq.

3. Matnni o'qing.

ATIRGUL ZAHARLAYDIMI?

Atirgulni xalqimiz dildan sevadi, uning rang-barang nozik gullariga boqib, dillarini xushnud etadi. O'zbekistonda hovlisiga atirgul ekmagan oila yo'q desak, ehtimol, xato qilmagan bo'larmiz. O'zbek xalqi atirgulni juda ham e'zozlaydi. Eng quvonchli damlarda uni yor-do'stlariga hadya etadi. To'ylarida esa unga davra to'ridan joy beradi. Respublikamizda bu go'zal o'simlikning juda ko'p navlari mavjud. Atirgul – deyarli barcha kitobxonlarga tanish o'simlik.

Tegishli asarlarda saqlanib qolgan ma'lumotlarga qaraganda, atirgul uzoq o'tmishga ega. Uni ekish bir vaqtlar ko'hna Eronda keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, yunonlar uni shu yerdan olib ketishgan. Qadimgi yunonlar atirgullardan tuzilgan grilyandlar bilan saroylarni, xudo haykallarini bezatganlar, qahramonlarni, yosh kelin-kuyovlarni qutlaganlar, murdalar ustiga, go'r ustidagi toshlarga qo'yganlar.

Qadimgi Rim davlatida o'lganlarni xotirlash uchun yoz boshida atirgul kuni o'tkazilgan. Qadimgi Rim imperiyasining so'nggi davrlarida atirgul bezak sifatida haddan tashqari ko'p ishlatilgan. Obro'ning yuqoriligi atirgulning mo'lligi bilan belgilanadigan bo'lib qolgan. Masalan, Neron qasridagi bir yig'inda mehmonlar ustidan minglab atirgul tojbarglari yog'dirib turilgan. Neron Shimoliy Afrikadan keltirilib sochilgan atirgullar uchun (qullarning tekin xizmati inobatga olinmaganda) oltin hisobida 45 ming so'm pul sarf qilgan. Atirgulning xushbo'y hidi uning tojbarglari tarkibidagi efir moylarga bog'liq. Efir moyining ozginasigina kishilarni xushnud qilishi mumkin, ko'pi esa, albatta, zaharli ta'sir qiladi. Shuning uchun ham kishilarning tarixda atirguldan o'ldiruvchi qurol sifatida foydalanish holatlari ham bo'lgan. Chunonchi imperator Geliogabal o'ziga yaqin kishilar orasida dushman bor, degan shubha ostida barcha yaqin kishilarini mehmonga taklif etgan. Mehmonlar zalga kirganlaridan so'ng barcha eshiklar berkitilib, ularning ustidan behisob atirgul tojbarglari yog'dirib turilgan. Natijada mehmonlar zaldagi atirgul hidi bilan to'yingan havodan halok bo'lgan.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Atirgulning qanday turlarini bilasiz? Sanab bering.*
- 2. Imperator Geliogabalning xatti-harakatlarini qanday baholaysiz?*
- 3. "Gullar – hayotimiz ko'rki" mavzusida hikoya yoki lavha yozing.*

O`n oltinchi mashg`ulot

16. S s harfi:

S s harfi sogʻ, somon, oson, asos, olmos kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

S s harfining oʻqilishi va yozilishiga eʼtibor bering:

mos

sabab

sadoqat

sazovor

salohiyati

samarali

sanʼat

sarkarda

saxovat

sessiya

siyosat

sinov

oʻspirin

gʻavvos

Sobir

sohada

sohibi

suyanch

semurgʻ

palaxsa

Matnni o'qing.

Sabzi Respublikamizda yetishtiriladigan va ko'p iste'mol qilinadigan sabzavotlar turiga kiradi. Sabzining 10 ga yaqin turi bo'lib, yurtimizda asosan mirzoyi, mushak, qizil sabzi ko'p iste'mol qilinadi.

Sabzining shifobaxsh xususiyati uning o'zida va suvida, bargi va urug'ida hisoblanadi. Sabzi insonning oshqozon (me'da) faoliyatini yaxshilashda va undagi ortiqcha kislotani kamaytirishda alohida ahamiyatga ega.

Ota-bobolarimiz qadimdan ovqatlangandan so'ng ma'lum vaqt o'tgach, jig'ildon qaynab, "zarda" qilsa, bir-ikkita sabzini archib yeganlar. Go'daklarning oshqozon faoliyati buzilganda hazm qilish zaiflashadi. Bolaga sabzi suvi berilsa, ahvoli yaxshilanadi. Buning uchun 2-3 ta qizil sabzini qirib, suvini dokadan o'tkazib, har kuni 2-3 qoshiqdan berilsa, bolaning oshqozonidagi kislota mo'tadil holga keladi va oshqozon ish qobiliyatini yaxshilaydi. Shu bilan birga bolaning tez rivojlanishiga yaxshi yordam beradi.

Sabzi inson tanasiga quvvat berish xususiyatiga ham egadir. Ko'p qon yo'qotib yoki uzoq xastalikdan so'ng kamquvvat bo'lib qolgan kishilar sabzini ko'proq iste'mol qilsalar, tezda salomatliklarini yaxshilab oladilar.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Tinish belgilarining qo'yilishiga e'tibor bering.*
- 2. Tinish belgilarini almashtirish orqali matn mazmunini o'zgartirish mumkinmi? Fikringizni isbotlang.*

O`n yettinchi mashg`ulot

17.Sh sh harflar birikmasi:

Sh sh harflar birikmasi shahar, shisha, shodlik; ishq, pishiq; bosh, tosh kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi undoshini ifodalash uchun yoziladi.

S, h harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga (') tutuq belgisi qoʻyiladi: Is'hoq, as'hob kabi.

Quyidagi soʻzlarni koʻchirib yozing:

Shariat
shahodatnoma
shimpanze
shrift
shpris
she'riyat
sher
tashabbus
olqish
qo'shoyoq
tashviqot
tushkun
vahshiy
xushovoz
shalabbo
qishin-yozin
pishillamoq
hashtak-pashtak
beshiktervatar
bashariyat
ishtiyoq
sharoit
shikast
maosh

Matnni o'qing. Unga sarlavha toping.

Mustaqillik va ezgulik monumenti – Toshkent shahridagi Mustaqillik maydonida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. Karimov g'oyasi bilan bunyod etilgan me'moriy-badiiy majmua. O'zbekiston istiqlolining dastlabki yillari(1992)da maydonda o'rnatilgan obida Mustaqillik I monumenti deb atalgan. Ramziy ravishdagi yer sharida O'zbekiston Respublikasi xaritasi aks etgan ushbu obida jahon xaritasida mustaqil O'zbekiston mamlakati mustahkam o'rin olganini ifodalaydi. 2005-yil 28-dekabrda ushbu monument oldiga farzandini bag'riga bosib turgan munis o'zbek ayoli siymosi – Baxtiyor ona haykali o'rnatildi (haykaltarosh I. Jabborov).

Mustaqillik monumenti va Baxtiyor ona haykali Ezgulik arkasi, oq poyondo shaklidagi keng yo'lak bilan birga yaxlit ansamblni tashkil qiladi. Mustaqillik va ezgulik tushunchalarini ramziy tarzda uyg'un ifodalovchi ushbu yodgorlik Mustaqillik va ezgulik monumenti deb ataldi. 2004–2005-yillarda Mustaqillik maydoni va unga tutash hududda keng ko'lamdagi qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Vazirlar Mahkamasi binosi tubdan qayta ta'mirlandi, Senat binosi, Ezgulik arkasi, Tasviriy san'at galereyasi kabi muhtasham me'moriy inshootlar, yashil maydon va xiyobonlar barpo etildi. Yangi Ma'muriy bino, Biznes markazi qurilishlari nihoyasiga yetdi. Bunday katta bunyodkorlik ishlari tufayli maydonning faqat qiyofasi emas, uning vazifasidagi mazmun-mohiyati ham o'zgardi. Mustaqillik maydonining ijtimoiy-siyosiy hayotimizda tutgan muhim o'rni va ahamiyatini inobatga olib hamda xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga istiqlol g'oyalarini, milliy g'urur va iftixor, vatanparvarlik tuyg'ularini yanada chuqurroq singdirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 3-fevralda "Mustaqillik va ezgulik monumenti to'g'risida" qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi umumxalq bayramlari hamda davlat miqyosidagi boshqa tantanali marosimlarda, shuningdek, mustaqil taraqqiyotimiz, milliy qadriyatlarimiz bilan bog'liq muhim sanalar, kasb bayramlarini nishonlash, tantana va anjumanlar o'tkazish munosabati bilan Mustaqillik va ezgulik monumenti poyiga gulchambar

qo'yish rasmiy marosimini belgilangan tartibda amalga oshirish joriy etildi va boshqa tadbirlar belgilandi. (*"Bolalar ensiklopediyasi"*dan)

Savol va topshiriqlar:

- 1. Matndagi atoqli otlarni daftaringizga ko'chiring.*
- 2. Nima maqsadda Baxtiyor ona haykali Mustaqillik monumenti oldiga o'rnatildi?*
- 3. Mustaqillikdan keyin poytaxtimizda barpo etilgan inshootlar haqida gapiring. Ularning nomlarini daftaringizga yozing.*

O`n sakkizinchi mashg`ulot

18. J j harfi:

1) jon, jahon, jiyda, tijorat; rivoj, vaj kabi soʻzlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) jurnal, projektor; gijda, ajdar, garaj, tiraj kabi oʻzlashma soʻzlarda til oldi jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

1. Jj harfining oʻqilishi va yozilishiga eʼtibor bering:

jurnalistika	jabr-zulm	kollej	jayron
jigʻibiyron	masjid	jumla	jenshen
juzʻiy	manjur	garaj	gʻijjak
josus	shatranj	vijdon	jirafa
jurʻat	pidjak	trikotaj	jahl

2. Quyidagi maqollarni oʻqing:

Jahl – dushman, aql – doʻst. Johil ulfat – boshingga kulfat. Joy berganga joy ber, jon berganga – jon. Jasur boʻlsang yov qaytar. Jon ogʻritgan doʻst boʻlmas. Joʻja kuzda sanalar.

3. Sheʼrni ifodali oʻqing.

Vatanparvar

U «Vatan!» deb baqirmaydi hech,
Koʻchalarga chiqmas hayqirib.
Tiliga ham olmas erta-kech,
Maqtamaydi kenglik, aygʻirin...

Koʻzlariga yosh ham olmaydi
Vatan uchun jamoat joyda.
Oʻzi bilganidan qolmaydi,
U Vatandan koʻzlamas foyda.

Biror kimga uqtirmaydi u
Vatanini suyishni qanday.

* * *

Uzun togʻlarining toshini
Yurak taftin berib ilitar.
Yurtga muhabbatin shoshilmay
Toʻkayotgan qon bilan bitar.

U qoʻrqmaydi, zorlanmaydi ham,
Qonlar uchun marhamat kutmas.

Minbarlardan sochmaydi tuygʻu,
U jimgina yashar... Vatanday.

Bir ayolni suyganday suyar
U Vatanin jimgina va xos.
Yelkasiga qoʻllarin qoʻyar
Va ardoqlar bagʻriga bosib.

Kerak boʻlsa, jonini berar,
Lekin uni hech kimga bermas.
Har bitta tosh, har bitta terak
Unga aziz, begona ermas.

Jon berarga orlanmaydi ham,
Qolgan gaplar bari uydirma.

Vatanidan uning koʻngli toʻq,
Bilar, uni Vatan unutmaz.
Ona boʻlib unutmaz Vatan,
Bir yor boʻlib saqlaydi yodda.

Xohlang, uni qahramon atang,
Xohlang, vatanparvar – bir oddiy.

Uning uchun buning farqi yo‘q,
Maqto‘v tinglashga jon kuydirmas.

(Faxriyor)

Savol va topshiriqlar:

1. *She’rdagi vatanparvar obrazining qanday o‘ziga xosliklari bor?*
2. *U qanday so‘zlar vositasida tasvirlanmoqda?*
3. *“Tiliga ham olmas erta-kech” ifodasi ijobiy ma’noda qo‘llanganmi yoki salbiy ma’noda? Tushuntirib bering.*
4. *“Kerak bo‘lsa, jonini berar, Lekin uni hech kimga bermas” misralarining ma’nosini tushuntiring..*

O`n to`qqizinchi mashg`ulot

19. Ch ch harflar birikmasi:

Ch ch harflar birikmasi choy, chevar, chaman; achchiq, uchun, bichiqchi, kuch, kech kabi so‘zlarda til oldi jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Ch ch harflar birikmasining o‘qilishi va yozilishiga e’tibor bering:

Chegara	chig‘atoy	o‘chirg‘ich	tayanch
championat	yelpig‘ich	zirapcha	ko‘chmanchi
chorraha	qaldirg‘och	xivich	Chimkent
cho‘kich	chuchvara	ichimlik	tiqilinch

Chingiz Ahmarov

O‘zbekiston xalq rassomi, monumental devoriy rasmlarning mohir ustasi Chingiz Ahmarov(1912–1995)ning nomini eshitmagan, uning ijodi bilan bog‘liq bo‘lgan nafis tasvirlarni bilmagan san‘at ixlosmandlari bo‘lmasa kerak. O‘zbekiston tasviriy san‘atida miniaturaga xos ajoyib rang polotnolar yaratib milliy san‘atimizning rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan bu buyuk rassomning o‘z ijodiy yo‘li va san‘at maktabi mavjud. Chingiz Ahmarov Rossiyaning Troisk shahrida tavallud topgan. Davr taqozosi bilan ularning oilasi O‘zbekistonga kelishadi. U yoshlik yillaridayoq Qarshi, Samarqand shahridagi sharqona me’morchilik obidalari amaliy san‘at sirlari bilan astoydil tanishadi. Chingiz

Ahmarov O'zbek xalqining tarixi, uning an'anaviy san'at merosiga qiziqadi. U juda ko'plab O'zbek adiblarining, jumladan, buyuk bobomiz Alisher Navoiyning asarlarini o'rganar ekan O'zbek milliy adabiyotiga, she'riyatiga mahliyo bo'ladi. Go'zallik sirlarini qidirish musavvirni Navoiy ijodiga yanada chuqurroq «kirish»ga jalb qiladi. «Xamsa»dagi voqealar nafisligini sezgan Chingiz Ahmarov uni bo'yoqlarda jonlantirishga kirishar ekan, har bir asar ustida qayta-qayta mehnat qilib to'laqonli va go'zal siymolarni yaratishga muyassar bo'ladi.

1945-yilda yaratilgan «Shirin portreti»da ana shunday betakrorlikni ko'ramiz. Shirinning sharqona chehrasi, liboslari, hatto xatti-harakatidagi holatlar bir-biri bilan uyg'unlashib o'ta mahoratli tasvirlangan. Bu portretda boshlari biroz egilgan, nozik qarashlar bilan eshik yonida turgan Shirinning to'liq gavdasi aks ettirilgan. Bunday asarlarda Navoiy bobomiz orzu qilgan o'zbek ayollariga xos go'zallik, iffatlilik va o'ta nazokatli xususiyatlarni Chingiz Ahmarov bo'yoqlar orqali jonli tasvirlashga muvaffaq bo'ladilar. Musavvirning mo'yqalamiga xos sharqona obrazlar va qiyofalar takrorlanmas tarzda yuzaga kela boshlaydi. Ayniqsa, Alisher Navoiy nomli O'zbek davlat akademik katta teatrining bezatilishida rassom o'z imkoniyatlarini namoyish eta bilgan. Bu yerda aks ettirilgan ramziy ma'nodagi tasvirlar vositasida o'ziga xos san'at sirlari ochib beriladi. Kezi kelganda quyidagi ramziy tasvirlarni ta'kidlab o'tish zarur. «Tasviriy san'at ramzi», «Raqs», «She'riyat», «Kuy» kabi san'atning ramziy tasvirlari diqqatga sazovordir. Bu yerda ishlangan monumental tasvirlar «Saddi Iskandariy», «Farhod va Shirin», «Bahrom Go'r va Dilorom», «Layli va Majnun» kabi devoriy suratlarda milliy tuyg'u va an'analar gavdalanitiriladi. Bu asarlarning hammasi musavvir tomonidan 1947-yilda yaratilgan. Rassom 60-yillarda ham mumtoz adabiyotimizga tayanib ajoyib devoriy polotnolar yaratdi. Uning har bir asarida o'zbek xalqining tarixi, ulug' mutafakkirlari siymolari, go'zallik timsollari shunday bir jozibali tasvirlanadiki, hali hech bir rassom Chingiz akaning mo'yqalamiga xos bunday xususiyatlarni jamlashtira olgani yo'q. Chingiz Ahmarov O'zbekiston tasviriy san'atida milliy an'analarni bo'yoqlarga to'yintirib va xarakterini to'laligicha ifodalab bera olgan mashhur rassomdir. (N.Oydinov)

Savol va topshiriqlar:

1. Chingiz Ahmarov yaratgan san'at namunalarini kuzatganmisiz?
2. Matndagi sizga ma'nosi tushunarsiz bo'lgan so'zlarni aniqlang va izohlang («Izohli lug'at» yordamida).

Yigirmanchi mashg'ulot

20. R r harfi:

R r harfi rahmat, rohat, orom, doira, bor, diyor, kabi so'zlarda til oldi ovozdor titroq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

1. R r harfining o'qilishi va yozilishiga e'tibor bering:

arra	Rayhon	rivoj	ruhiy
birinchi	ramz	rizq	ro'yobga
karam	real	rioya	ro'yxatiga
nisor	reja	rol	ro'kach
ravnaq	resurslar	Romeo	uzumzor
rag'bat		o'rta	
		Rudakiy	

Razzoq

3. Navoiy hikmatlarini o'qing. Ularni daftaringizga ko'chirib oling.

Yolg'onchi kishi emas, yolg'on aytmoq eranlar ishi emas. O't ishi – qovurmoq, yel ishi – sovurmoq. Har kimki so'zi yolg'on, yolg'oni zohir bo'lg'och – uyolg'on.

O'tdin isinurg'acha ovuch och,
Kuydurgudek anglasang keyin qoch!

Matnni o'qing.

Fotiha

Qishloqda rasm bor: olti-yetti oy, hatto bir yildan keyin borsangiz ham bu orada vafot etgan tanish-bilishlarga fotiha o'qib, oila a'zolariga ta'ziya bildirishingiz kerak.

Qishloqqa bir borganimda, bizning soy mahalladan yosh bir yigit vafot etganini aytib qolishdi. Mo'ysafid amakim va o'qituvchi jiyanim bilan marhumga fотиha o'qigani bordik.

Men marhumni bolaligidan tanir edim. U eri frontda halok bo'lgan, mushtipar bir bevaning yolg'iz o'g'li edi.

Yigit armiya safida uch yil xizmat qilib, u yerdan yaxshigina montyor bo'lib, rus qiziga uylanib qaytgan, lekin ko'p o'tmay, to'g'on qurilishida tok urib o'lgan edi.

Bu voqea men borishdan qariyb bir yil avval sodir bo'lgan, bu orada kelin ham Rossiyaga ketib qolgan edi.

Mushtipar ona qizining uyiga ko'chib o'tgan ekan, bizni kuyov bola bo'lsa kerak, oliftalarcha kiyingan, yosh, quvnoq bir yigit qarshi oldi va derazalari tog'ga qaragan katta chorsi xonaga boshlab kirdi.

Uyning to'rida, boshida ko'k doka ro'mol, ozg'ingina bir xotin ko'rpa qavib o'tirardi. Biz kirishimiz bilan ayol o'rnidan turdi va ro'molini yuziga tortganicha chetlab yurib, tog' tomondagi ichkarigi uyga kirib ketdi.

Amakim fотиha o'qidi. Keyin dasturxon yozildi. Choy ustida gap-so'z, har xil hangomalar. Kuyov bola ham xushchaqchaq yigit ekan, u yoq-bu yoqdan gapirib, kuldirib o'tirdi. Nihoyat, bir-ikki piyola choy ichilgach, qo'zg'aldik.

Biz hovliga chiqib, ko'chaga burilganimizda qayoqdandir orqadan, bog' tomondagi uydan, hazin bir kuy qulog'imga chalinganday bo'ldi. Beixtiyor qadamimni sekinlatdim-u, a'zoyi badanim qaqshab ketdi. Men kuy deb o'ylagan tovush kuy emas, ona yig'isi edi!.. Ona sekin, go'yo bizdan iymanganday, go'yo xushchaqchaq kuyov bolasi eshitib qolishidan qo'rqqanday, ohista yo'qlab, nimalarnidir aytib yig'lardi. Uning so'zlarini tushunib bo'lmas, lekin nima aytayotganini hazin kuyday mungli ovozi o'zi aytib turar, u kimgadir zorlanar, faryod chekar, nola qilar edi.

Nega biz bu ostonaga keldik? Nega mushtipar onaning bitmagan yarasini qayta tirnadik? Nega dasturxon ustida gurunglashib o'tirdik, hiringlashib kulishdik? Axir biz uchun u yigitning o'lganiga bir yil o'tgan bo'lsa o'tgandir,

lekin ona-chi? Ona uchun o'g'lining o'chmas siymosi ko'z oldida hanuzgacha turgandir axir?

Shu-shu biror joyga fotihaga borsam, bo'lakcha mungga, qandaydir yuksak musibat, ovunchsiz nolaga to'la o'sha tovush esimga tushadi. Bu tovush birovlarining musibatini chuqurroq his qilishga, sukut saqlashga da'vat etadi. (O.Yoqubov)

Savol va topshiriqlar:

1. Matndan asosiy fikr ifodalangan jumlani toping.
2. Qo'shimcha qo'shilganda tarkibida fonetik o'zgarish bo'lgan so'zlarni toping.
3. Xalqimizning urf-odat, an'analarini ifodalovchi matn tuzing.

Yigirma birinchi mashg'ulot

21. L l harfi:

L l harfi lola, loyiq, la'l, iloj, mahal kabi so'zlarda sirg'aluvchi ovozdor undoshni ifodalash uchun yoziladi.

L l harfining o'qilishi va yozilishiga e'tibor bering:

	leytenant	qalampir	feldsher
lahja	lo'ttiboz	shu'la	xolisona
layoqat	mazlum	litr	halol
lavh	ilohiyot	selitra	yasovul
lotereya	olifta	telegraf	kapital
lavlagi	qulf	fe'l	

Matnni o'qing.

Millat poytaxti

Shunday poytaxt shaharlar bo'ladiki, ular o'z xalqi taraqqiyotida, millatning ijtimoiy-siyosiy hayotida, ma'naviy va madaniy kamolotida eng yuksak va eng sharaflil vazifalarni ado etadi. Tarix sahifalaridan ma'lumki, o'tmishda poytaxtlarimiz bo'lgan – Buxoro va Samarqanddan so'ng poytaxt maqomiga ega bo'lgan Toshkent ana shunday buyuk yukni salobat bilan ko'tarib, poytaxtlik sha'nini shon-sharaf ila oqlab kelayotir. Poytaxtning yuki ham sharaflil, ham zalvarli va o'ta mas'uliyatli. Chunki bu yuk zahirida:

Vatan va xalq taqdiri yotibdi;

bugun va kelajakning nuri ufurib turibdi;

tinchlik, birlik, tenglik va ahillik mujassam;

O'zbekistonni metindek birlashtirib turuvchi mustahkam tomirlar nafas oladi.

Toshkent XX asrda yer yuzining eng go'zal, eng mo'tabar, eng ko'rkam, mehmondo'st, tinchlikparvar shaharlari qatoridan o'rin oldi. Uning xalqaro maydondagi nufuzi yanada oshdi.

Toshkent XXI asrda ozod xalqning ozod va obod poytaxti qiyofasida yana ham kengroq namoyon bo'lishiga ishonamiz.

Toshkent XXI asrda ham tinchlik, barqarorlik va turli millatlarni birlashtiruvchi qudratli do'stlik poytaxti bo'lib qoladi.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: «Barchamizga qadrdon bo'lgan bu azim, go'zal va betakror shahar nafaqat mustaqil davlatimizning poytaxti, balki yurtimizning qiyofasini belgilaydigan, serquyosh diyorimizning butun ko'rk-u tarovatini o'zida namoyon etadigan Vatan ostonasidir»(160 c'3).

Sal nariga borsak yo biroz olislab ketsak, albatta, Toshkentni sog'inamiz. Toshkent darhol tushlarimizga kiradi. Toshkentning mehri tortadi. Bu muqaddas mehrga bir bog'langanlar so'ng undan abadiy uzilib ketolmaydi. Toshkent ruhi yurakka bog'lanadi, yurakdan joy oladi. Yurakda poytaxt tarovati, uning go'zal manzaralari namoyon bo'la boshlaydi.

Bu tabarruk tuproqning ohanrabosi bor.

Bu go'zal zaminning na ta'rifi, na bahosi bor.

Bu muborak makonning bir olam ma'nosi bor.

Ha, Toshkentni bir bor kelib ko'rganlar umrbod shaharning oshig'i, maftuni bo'lib qoladilar. Va uni tez-tez ziyorat qilishga oshiqadilar, Toshkent qalban, ruhan maftun bo'lsa arziydigan shahar.

Toshkent qayta-qayta ziyorat qilsa, tavof etsa arziydigan maskan, ulug' avliyolar, olim-u fozillar yurti.

Toshkent – hamisha qut-baraka arimaydigan barakali zamin.

Toshkent – ko'pdan-ko'p millat-u elatlarni bag'riga jo etgan buyuk do'stlik, ya'ni do'stlarning mehr-oqibat uyi. Bu keng va yorug' uyning to'rida hamisha do'stlar o'tirgan. Bundan so'ng ham xuddi shunday bo'lib qoladi.

Savol va topshiriqlar:

1. *She'rdagi vatanparvar obrazining qanday o'ziga xosliklari bor?*
2. *U qanday so'zlar vositasida tasvirlanmoqda?*
3. *“Tiliga ham olmas erta-kech” ifodasi ijobiy ma'noda qo'llanganmi yoki salbiy ma'noda? Tushuntirib bering.*
4. *“Kerak bo'lsa, jonini berar, Lekin uni hech kimga bermas” misralarining ma'nosini tushuntiring.*
5. *Toshkent haqida yana nimalar deya olasiz?*
6. *Toshkent shahriga qarashli bo'lgan, tarkibida “l” undoshi ishtirok etgan toponimlarni daftaringizga yozing.*
7. *“Bu – tabarruk tuproqning ohanrabosi bor”... ifodasiga izoh bering.*
8. *Matnga tayanib “Toshkent ko'chalari” mavzusida insho yozing.*

Yigirma ikkinchi mashg'ulot

22. N n harfi:

1) non, nomus; ona, tana; bilan, tomon kabi soʻzlarda til oldi ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) shanba, yonbosh, jonbozlik, yonma-yon, koʻrinmaslik kabi soʻzlarda n tovushi baʼzan m aytilsa ham, n yoziladi.

N n harfining oʻqilishi va yozilishiga eʼtibor bering:

Nafaqa	naʼmatak	nim pushti	sovun
nafosat	nekrolog	anor	tanbur
namozshomgul	notarius	chinni	anhor
navoiyshunos	Norvegiya	non	Angliya
nash-u namo	notoʻgʻri	iymon	Mannon

Quyidagi soʻzlarni qatnashtirib gap tuzing:

Nazar, Nazira, nazm, nay, nayzachi, nasim, nasihat, nasr, natija, nihon, nov, nodir, qodir, nom, nomdor, nosir.

Matnni oʻqing.

Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari

Quyidagilar normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi:

- a) Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- b) Oʻzbekiston Respublikasi qonunlari;
- v) Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- g) Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari;
- d) Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- e) vazirliklar, davlat qoʻmitalari va idoralarining hujjatlari;
- j) mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Normativ-huquqiy hujjatlar qonun hujjatlari hisoblanadi va ular Oʻzbekiston Respublikasining qonun hujjatlari majmuini tashkil qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oʻzbekiston Respublikasining qonunlari, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonunlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonunosti hujjatlar hisoblanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarda:

"qonun hujjatlarida belgilangan tartibda" deb ko'rsatilganda barcha normativ-huquqiy hujjatlar;

"qonunda belgilangan tartibda" deb ko'rsatilganda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;

"qonunosti hujjatlarida belgilangan tartibda" deb ko'rsatilganda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega va O'zbekiston Respublikasining butun hududida qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasida qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning normalari va prinsiplariga zid kelishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yoki referendum o'tkazish orqali qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinadi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan ma'qullanadi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach hamda qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Normativ hujjatlar ro'yxatini daftaringizga ko'chiring.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy mohiyatini izohlab bering.

Yigirma uchinchi mashg'ulot

23. G g harfi:

G g harfi gul, go'zal; ega, gugurt; teg, eg kabi so'zlarda til orqa jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

G g harfining o'qilishi va yozilishiga e'tibor bering:

geometriya	gigiyena	pedagog	chegara
govmichcha	gersog	dangal	tugmoq
general	girdikapalak	degrezlik	ungur
giyohvand	garov	gvardiya	magistratura
gunohkor	barg	Angliya	magnitofon

Matnni o'qing.

Matnni o'qing.

-lar qo'shimchasining qo'llanish xususiyatlari

«Nutq chizig'i tufayli grammatika uchun shu zanjirdagi halqalarning miqdori va sifatigina emas, balki ularning tartibi ham muhimdir; ayrim halqalar o'rnini almashtirish biror halqani olish yoki qo'shish kabi ifodali vositadir». (A. A. Reformatskiy)

Buni -lar qo'shimchasining so'z tarkibidagi quyidagicha tartibi ham yaqqol ko'rsatib turibdi:

opamlar – opalarim	opanglar – opalaring
shaharlarda – shahardalar	keldilaring – keldinglar
pastlardagi – pastdagilar	ko'rganmilar – ko'rganlarmi

I. Ot turkumiga kiruvchi so'zlarda -lar qo'shimchasining egalik va kelishik qo'shimchalaridan oldin kelishi odatdagi tartibdir.

Mazkur norma tubandagi hollarda o'zgartiriladi:

1. Ko'plik emas, hurmat ifodalash zarur bo'lsa: Dadam ellik yoshdalar (og'zaki nutqdan).

Og'a, sog' borsangiz, avval,
Dadamlarga salom ayting.
Yugurib chiqqan ul mushfiq
Onamlarga salom ayting. (Hamza)

Ba'zi shevalarda, masalan, Marg'ilon shevasida -lar qo'shimchasini egalik qo'shimchasidan keyin keltirish hurmat ifodalash bilan birga, umumlashtirish, jamlash ma'nosini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Bunday ma'no ayrim

shevalarda (masalan, Toshkent shevasida) egalik qo'shimchasi bilan ko'plik qo'shimchasi o'rtasiga -gi qo'shimchasini qo'shish orqali ifodalanadi: Opamlar aytishdi – opamgila aytishdi.

Opamgilar kelib qolishdi (O'. Umarbekov).

2. Ifodaga xushmuomalalik bag'ishlash zarur bo'lsa. Bunday qo'llanishlar Toshkent dialektiga xos bo'lib, Farg'ona guruh shevalarida deyarli uchramaydi: Silachi, oyiyla (kitobiyla, o'qishiyla).

Tubandagi misollarda tartib hurmatning kimga tegishli ekanligini ifodalaydi: Bu kishi Azimovning qizlari (Hurmat Azimovga). Bu kishi Azimovning qizilar (Hurmat Azimovning qiziga).

II. Sifat turkumida -lar qo'shimchasining joylashuvida ham bir qator xususiyatlar mavjud. Bu haqida shularni aytish mumkin:

1. Odatdagi tartib taxmin ma'nosini ifodalash uchun o'zgartiriladi: 50 yoshdagilar... (odatdagi ma'no); 50 yoshlardagi (taxmin ma'nosi).

Taxmin bilan birgalikda odatdagi ko'plikka ehtiyoj bo'lsa, sifat tarkibida distant holda ikkita -lar qo'shimchasi ishlatiladi: 50 yoshlardagilar.

-lar sifat yasovchi qo'shimchasining ziddi -siz qo'shimchasidan oldin kelsa, otdan sifat yasalishi susayadi; sifat aniqlovchilik vazifasini yo'qotadi: bilimsizlar – bilimlarsiz.

-lar qo'shimchasi -dagi sifat yasovchi qo'shma qo'shimchadan oldin kelsa, o'rin-joy ma'nosidagi predmetning bir nechaligini, keyin kelsa, shaxslarning bir necha ekanligini bildiradi: uylardagi – uydagilar.

Son va aksariyat olmoshlar tarkibida -lar qo'shimchasining o'rni muhimdir. Faqat o'z, hamma kabi olmoshlar Toshkent, Namangan shevalarida o'zinglar, hammanglar shaklida, Marg'ilon, Qo'qon shevalarida esa o'zlaring, hammalaring tarzida qo'llanish xususiyatiga ega (Toshkent dialektida o'z, hamma olmoshlariga -lar va -ing qo'shimchalarini o'zlaring, hammalaring tarzida qo'shish ham mumkin. Bu mensimaslik kabi ma'nolarni ifodalaydi).

Fe'l tarkibida -lar qo'shimchasining qo'llanishi quyidagicha:

I. Shaxs qo'shimchalaridan so'ng kelib, u bilan birgalikda qo'shma qo'shimcha hosil qiladi. Bu fe'llar uchun odatdagi tartibdir:

Suhbat aylaylik kelinglar, jo'ralar, o'rtog'lar. (Muqimiy)

Toshkent shevasida esa odatdagi tartibning aksi ham bor. Bunday tartib tinglovchilarni mensimaslik kabi ma'nolar bilan bog'liq: Bo'ldi! Yo'qollaring hammang. Yo'qollaring!!! (O'. Umarbekov).

Ba'zan bunday tartib mensimaslikni ifodalamasligi ham mumkin: (Yusuf aka qizi Gulchehraga)... yetim o'smalaring, qarovsiz qolmalaring, deb olib keldim (O'. Umarbekov).

V. Ravish turkumida -lar qo'shimchasi -cha qo'shimchasidan oldin kelib, u bilan birgalikda qo'shma qo'shimcha hosil kiladi. Bunda -cha qo'shimchasi kichraytish ma'nosini bildirmaydi. -lar qo'shimchasini -cha qo'shimchasidan so'ng keltirish esa ma'noni tamoman o'zgartirib yuboradi. Bunday qo'llanishda so'z ravishlikdan chiqib, ko'plik hamda kichraytirish, erkalash otlariga aylanadi: bolalarcha – bolachalar, yigitlarcha – yigitchalar.

-lar qo'shimchasining so'z tarkibida joylashuvi XV – XIX asr yozma manbalarida bu qo'shimchaning yordamchi fe'l bilan asosiy fe'l tarkibida joylashuvida hozirgi zamon o'zbek adabiy tili me'yoriga va uning shevalariga mos kelmaydigan ba'zi xarakterli xususiyatlar bor ekanligini ko'rish mumkin: Taxminan to'rt-besh ming o'zbekni ushbu dastur bila **ulturdilar** ekan. (Bobir) Qushlar ustiga kelurlar erdi (Muhammad Solih). Baland yerlariga chigir ko'rarlar erdi. (Abulg'ozir Bahodirxon)

Xullas, so'z tarkibida morfemalarning joylashuvi ma'lum qonun-qoidalariga asoslangan, bu morfemalarning o'rnini istagancha o'zgartirishning imkoniyati yo'q, aksariyat hollarda ularning o'ri muhimdir. Shunga qaramay, so'z tarkibidagi ba'zi qo'shimchalarning, masalan, -lar qo'shimchasining joylashuvida ma'lum erkinlik mavjud; so'z tarkibida -lar qo'shimchasining odatdagi o'rnining o'zgarishi ko'p o'rinlarda semantik, grammatik, stilistik va shu kabi ma'nolar bilan bog'liq. (Y. Zulfiyev)

Savol va topshiriqlar:

1. Badiiy asarlardan -lar qo'shimchali so'zlarni topib, daftaringizga ko'chiring.
2. So'z tarkibidagi -lar qo'shimchasining qanday ma'no ifodalayotganini izohlang.

Yigirma to'rtinchi mashg'ulot

24. K k harfi:

K k harfi ko'l, ko'ylak; uka, moki; tok, bilak kabi so'zlarda til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

K k harfining o'qilishi va yozilishiga e'tibor bering:

Kapitan

kashf

Ka'ba

kakku

kongress	kardiogramma	kollona	mardlik
karantin	kombinezon	mazkur	tuynuk
ko'ppak	ko'rgulik	komputer	go'shak
ko'hna	komendant	tavakkal	beshek

Matnni o'qing.

Kundoshlik orqasida yuz bergan bu jinoyat zamonning nozikligi orqasida olovga tashlangan jizzadek bo'ldi. Kichkinagina uyezd shahrining kichkina va tor miyali amaldorlari – hammasi askardan yetishgan «azamatlar» – kelishmagan bir tasodifning to'rt chaqaga arzimagan bu qurbonini zamonning zo'r qahramoni darajasiga ko'tarib yubordilar. Shu bilan ular yangi fath etilgan o'lkada va yangigina bo'ysungan «vahshiy» xalq orasida juda yaxshi va ziyrak siyosat yurgizib, o'sha xalq orasidan shunday eslik va tadbirlik, toj-u taxtga nisbatan shunday sodiq va astoydil ma'mur yetishtirganliklarini o'zlaridan yuqori amaldorlarga ko'rsatmoq istardilar. Bularning shuncha yillar zo'r berib zo'rg'a-zo'rg'a yetishtirgan ziyrak davlat odamlarini munaqa osongina (kuchala bilan!) o'ldirib keta bersalar, o'lkada tutilgan siyosatning va ham u siyosatni amalga oshiruvchilarning bir chaqalik obro'si qoladimi? Ayniqsa, yerli xalq o'rtasida? Siyosatning obro'sizligi nima demak? Idora obro'sizligi emasmi? Hindistonga qo'shni va darvoza bo'lgan bir mustamlakadagi siyosatga to'kis-tugal obro' ta'min etilgan bo'lishi kerak. Yo'qsa natija yomon. Qo'rqinch!!!

Mana shu vahima va tashvishlar bilan liq to'lib Toshkentga tomon qanot qoqqan depeshalar (rasmiy telegrammalar) voqeaning uchinchi kunida Toshkentdan O'lka harbiy sudining sayyor hay'atini uchirib keldi. So'roqning o'zi esa sudning yetib kelishidan ham tez o'tdi. «Munday shoshilinch sud urush maydonlarida bo'lmasa, boshqa joyda bo'lishiga aqlim yetmaydi!» deb piching qilib gapirdi tilmoch...

Bu odam eskidan beri sudlarda ishlab, muttahamlikka guvohnoma olgan qadrdon tulkilardan emas, negadir chetdan, xolis kishilar orasidan chaqirilgan edi. Uni shahar odamlari, ayniqsa, yerli xalq kam taniydi. Nihoyati, pochtada ishlovchi (o'zi yerli xalqdan yetishib qolgan!) pastroq bir ma'mur...

Ammo zakunchi... Zakunchi – boshqa odam! Bu odam, yo‘q, bu zot Turkiston o‘lkasining qaysi bir olis joyida (Zakaspiyda emasmikan?) davlat xazinasining ko‘pgina pulini yeb qo‘ygan askariy bir to‘ra. Agar haqiqiy qonunlarga amal qilinganda, uni yo otish, yo umrlik surgun qilish shart edi. Faqat u o‘zi juda issiq mamlakatda yashasa ham, boshida qalin-qalin soyabonlari bor ekan, ular o‘z kishilarini butunlay kuydirib tashlashga yo‘l qo‘ymaganlar. Ularning soyalarida bu zot askariy rutbalaridangina ajrab, kissasi ko‘p ham qoqlanmasdan, o‘lkaning u chekkasidan bu chekkasiga «surgun» bo‘lib kelgan va munda... xususiy zakunchilik kasbiga kirishgan. Davlatni aldab o‘rinlatgan kishi boshqalarni aldab o‘rinlatolmaydimi? Tajriba – zo‘r, davlat – o‘zi! Bu odamning cho‘pqlari juda ko‘p. O‘z-o‘zini hurmatlay bilgan hech bir zakunchi tomonidan olinmaydirgan hamma «gumonlik ishlar»ni shu kishi oladi va ko‘pincha yutib chiqadi. Xullas, mustamlaka o‘lkasining nodon yerlilari orasida uezd miqyosiga yarasha ish ko‘radigan kichkinagina bir Plevako.

Mahalliy tergovchining «tergov protokoli» bilan harbiy sud prokurorining ayblash qog‘ozi zakunchining qo‘liga topshirilgan vaqtda, u boshqa katta bir ishni olish to‘g‘risida o‘ziga o‘xshagan bir kishi bilan gaplashib o‘tirgan edi. Kim ekan u – «o‘ziga o‘xshagan» kishi? Shaharda bo‘lsin, uездda bo‘lsin, uni tanimagan odam yo‘q, o‘zi yerlilardan. Yerli xalq uni – «Obrezqora» deb ataydi. O‘rta bo‘yli, qop-qora tanli arvoh, qotma bir kishi... Bu zakunchi – ruslardan chiqqan «advokat»... Qaysi bir sud majlisida «yolg‘on guvoh»ga hojat ko‘rilsa, Obrezqora tayyor. Uning bu xislati ham hammaga otning qashqasiday ma‘lum. Katta-katta qozilar, boylar, obro‘li odamlar shu Obrezqora bilan olishib...yer bilan yakson bo‘lishgan! Muni ham hamma biladi. Shu uchun hamma qo‘rqadi... «Bu Obrezqora «bosma» qilishdan ham toymaydi!» deb gapirishadi shahar odamlari.

(Cho‘lpon)

Savol va topshiriqlar:

1. Ushbu parcha Cho‘lponning qaysi asaridan olingan?

2. *Parchada tasvirlangan sud jarayoniga o'z munosabatingizni bildiring.*
3. *Matndagi qo'shtirnoqlarning qo'yilish sababini tushuntiring.*

Yigirma beshinchi mashg'ulot

25. Yy harfi:

Yy harfi yo'l, yigit, yetti, yaxshi, yoz; tuya, dunyo, tayyor; soy, kuy kabi so'zlarda til o'rta sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Yy harfining o'qilishi va yozilishiga e'tibor bering:

	yolg'iz	yakshanba	yaylov
yer	yolqin	yumronqoziq	yalqov
yelka	yordam	yurist	yigirma
yetim	yaxshilik	adyutant	
yelim	Yangiyo'l	yuksak	
yomonlik	yapaloqqush	ayyor	

Matnni o'qing.

...

Men o'zim farg'onadanman. O'ninchi sinfni bitirgach, harbiy bilim yurtiga kirib o'qidim, ofitser bo'lib, taqdir taqozosi bilan Uzoq Sharqqa kelib qoldim. Shu yerda uylandim, bola-chaqalik bo'ldim. Turmush o'rtog'im Svetlana – qismimizda hamshira. Ikki farzandimiz – o'g'il-qizimiz bor. O'g'limizning ismi Alisher (xotinim uni Alyosha deydi). Qizimizning ismi Shirin (xotinim uni Shura deydi). Biz juda inoq oilamiz. Uzoq Sharq bilasiz, iqlimi jihatdan bizning Farg'onamizga andak o'xshab ketadi. Shu boisdanmi, bilmadim, men bu yerlarni o'z yurtimday yaxshi ko'raman. Lekin Farg'onamni ham unutganim yo'q. Har yili bo'lmasa ham har ikki-uch yilda bir marta bola-chaqamiz bilan borib ota-onam, yor-u do'stlarni ko'rib kelaman. Yolg'iz men emas, oilam ham, ikki farzandim ham O'zbekistonni yaxshi ko'rishadi. Har yili yozda «Dada, dadajon, Farg'onaga borib kelaylik, buvimlarni sog'indik», – deb tixirlik qilishgani qilishgan.

Farzandlarim: «buvimlarni (mening oyimni) sog'indik», deyishganda, men doim marhum buvimni eslayman. Ehtimol, shuning uchundir, urush to'g'risida ko'p o'ylayman.

Gobi sahrosi va Xingan tog'laridan yayov o'tib, mashhur Kvantun armiyasiga qarshi shiddatli janglarda qatnashgan sizlardek otalarimiz va akalarimizga, ishonchlaringizni doim oqlaymiz, deb qasamyod etamiz. Sizga esa, yozuvchi sifatida faqat bir istagim bor: o'sha soldatlik chog'laringiz haqida batafsilroq bir kitob yozsangiz.

Hurmat bilan, rota soldatlari va ofitserlari nomidan kapitan Xolmat Majidov.
(O. Yoqubov)

Savol va topshiriqlar:

1. Parchadagi harbiy sohaga oid so'zlarni aniqlab, ular yordamida gaplar tuzing.
2. Urush va urush davri haqida yozilgan qaysi asarlarni o'qigansiz?

Yigirma oltinchi mashg'ulot

26. Ng ng harflar birikmasi:

Ng ng harflar birikmasi yangi, ko'ngil, dengiz, singil, keling, bordingiz, tong, ming, teng kabi so'zlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi.

Ng ng harfining o'qilishi va yozilishiga e'tibor bering:

Ko'ndalang

jang	ong	tenglama	rangli
o'nglamoq	jiringlamo	tanglik	lang
zang	q	kengaymo	
yengil	kenglik	q	
qarang	tinglovchi	changsiz	

She'rni ifodali o'qing.

ERK SO'ZI

Qizim, seni ko'rgim keldi,
Sochlaringni o'rgim keldi.
Qora, zuluk ko'zlaringdan
Yuragingni so'rgim keldi.

Qizim, seni suygim keldi,

So‘zlaringga to‘ygim keldi.
Seni ezgan churuk kuchga
Chuqur bir go‘r uygim keldi.

Qizim, sening yuragingdan
«Alla» dardin olay deyman.
Senga kulgan kelgusiga
Bag‘ishlab nay chalay deyman.

Qizim, sening alamingga
Bir bo‘z kafan to‘qiy deyman.
Eski kunlar arvofiga
So‘ng fotiha o‘qiy deyman.

Qizim, senga keng chamandan
Qizil chechak olib keldim.
Men, sen uchun «jannat»imda
Go‘zal bir ko‘shk solib keldim. (Botu)

Savol va topshiriqlar:

1. *Ng harflar birikmasi ishtirok etgan so‘zlarni toping va ko‘chiring.*
2. *N va g harflari yonma-yon kelganda alohida tovushlarni ifodalashi mumkinmi? Misollar bilan tushuntiring.*

Yigirma yettinchi mashg‘ulot

27. Q q harfi:

Q q harfi qizil, qimiz, qirq, haqiqiy, aql kabi so‘zlarda chuqur til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Q q harfining o‘qilishi va yozilishiga e’tibor bering:

Qo‘shin	qur’a	qo‘qqisdan	to‘sqinlik
qo‘mondon	qochoq	qo‘chqor	so‘qmoq
qism	qishloq	cho‘qqi	tariq
qamoq	qumursqa	sadoqat	urishqoq
quvur	qo‘shaloq	taqchil	

Matnni o‘qing.

Sizning sha’ningiz

Vatan posbonlariga

Qo‘lga olmoq-chun bir yulg‘ich, qallobni
Yoki bir muttaham, o‘g‘ri, kazzobni,

Sizga matonatdan ildizlar kerak,
Qanchalar kecha-yu kunduzlar kerak.

Men-ku she‘rim uzra ozib-to‘zarman,
Bugun yozmasam gar, erta yozarman.

Siz bir qabohatni etmoq-chun oshkor,
Qancha tunlaringiz kechgaydir bedor.

Choy uzra xotirjam o‘y surib, surmay,
O‘g‘il-qizingizni goh ko‘rib, ko‘rmay,

Bir zum uyqusida boqib ketasiz,
Hali uyga kirmay chiqib ketasiz.

Sizga sokingina tong boshlamoq yo‘q,
Bolishga bemalol yonboshlamoq yo‘q.

Tashvishli har xat-u xabar ichrasiz,
Hamisha xavf ila xatar ichrasiz.

Dunyoda yaxshilar ko‘pdir muqarrar,
Yomon ham ko‘p ekan solsang gar nazar.

Shod etib xun bo‘lgan dillaringizni,
Sizga kim qaytarar yillaringizni?

Sharaf degan so‘zga shon bergan ham siz,
Tinchlik zamonida jon bergan ham siz.

Toki yashar ekan bid‘at, jaholat,
Sizda orom bo‘lmas, bo‘lmas halovat.

Shul sabab eng go‘zal dil so‘zlarini,
Osmonning eng yorqin yulduzlarini,

Sizning sha‘ningizga o‘qilsin deyman,
Sizning yelkangizga to‘qilsin deyman.(S.Sayyid)

Savol va topshiriqlar:

1. She‘rni yodlang.
2. “Sizga matonatdan ildizlar kerak”, misrasi mazmunini izohlang.
3. She‘rda vatan posbonlariga xos bo‘lgan qaysi xislatlar ko‘rsatib berilgan?

4.Nima uchun shoir “eng go‘zal dil so‘zlarini” vatan posbonlariga bag‘ishlagan, ularni matnga tayangan holda izohlang.

Yigirma sakkizinchi mashg‘ulot

28. G‘g‘ harfi:

G‘g‘ harfi g‘oz, bag‘ir, tog‘ kabi so‘zlarda chuqur til orqa, jarangli, sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

G‘ g‘ harfining o‘qilishi va yozilishiga e’tibor bering:

	g‘alayon	og‘iz	qahr-u
G‘avvos	g‘oya	yoqilg‘i	g‘azab
g‘ildirak	qog‘oz	to‘ng‘iz	og‘zaki
g‘ulg‘ula	tog‘		mashg‘ulot
g‘ayriqonuniy		qirg‘iz	
	g‘aroyib		

She’rni ifodali o‘qing.

O‘zbekistonim

O‘zbekiston tong kabi xumor,
Bahor kabi lolazor diyor.

Turob To‘la

Bir mayin shamollar esib
keldilar,
Bulutlar osmondan bezib keldilar,
Kurtaklar qushlarni sezib
keldilar,
Gullarga ko‘mildi gulgun makonim,
Bahorning singlisi – O‘zbekistonim.

Torlarni uyg‘otgan o‘jar shalola,
Ko‘klam bayrog‘ini ko‘targan lola,
Dunyoni varrak deb yugurgan bola
Mening jonim erur, mening
jahonim,
Bahorning singlisi – O‘zbekistonim.

Kimlardir tirqishdan sizib
chiqdi-ku,
Bo‘ynini erkimga cho‘zib chiqdi-ku,
Qo‘lidan miltiqlar o‘sib chiqdi-ku,
Miltiqqa aylangan qushlar –
armonim,
Lekin ko‘klamdan so‘ng kelarmi hech
qish,
Machitga olinmas sag‘anadan g‘isht,

Qarg‘alar dunyosi qaytmagaydir:
«Kisht!»

Bulbullar maskani, bulbulistonim,
Bahorning singlisi – O‘zbekistonim.

Mangulik alqagay yosh damlaringni,
Yulduzlar sanagay qadamlaringni,
Quyoshga mengzarlar odamlaringni,
Sururim, g‘ururim, shavkatim-
shonim,
Bahorning singlisi – O‘zbekistonim.

Aldamchi o‘ylarni so‘zga yo‘latmay,
Bahorga chiqdik biz, do‘stim, to‘lat may,
Har umr iqbolga bitta yo‘lakday,
Yashnasin, yayrasin dorilomonim,
Bahorning singlisi – O‘zbekistonim.
Bahorning singlisi – O‘zbekistonim

Savol va topshiriqlar:

1. Mazkur she‘r olti banddan iborat. Har bir bandga sarlavha toping. Ularni izohlang.
2. Birinchi va ikkinchi bandlar orasida qanday mantiqiy yaqinlik mavjud?
3. Uchinchi bandning ulardan qanday farqi ko‘rinadi?
4. “Qarg‘alar dunyosi qaytmagaydir: “Kisht!” misralari zamirida qanday poetik ma‘no borligini izohlab bering.
5. Har bir bandning oxirgi ikki misrasi bilan aloqador ma‘no tovlanishlarini izohlashga urinib ko‘ring.

Yigirma to‘qqizinchi mashg‘ulot

29. X x harfi:

X x harfi xabar, xo‘roz, xohish, xushnud, baxt, axborot, mix kabi so‘zlarda chuqur til orqa jarangsiz sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

X xi harfining o‘qilishi va yozilishiga e’tibor bering:

axloqiy
axborot
baxshi
ixlos
ixtiyor

ixcham
maxsus
mutaxassis
xabar
xayrli
xalaqit
xalq
xarakteri
xaritadan
xatarli
xiyonat
xavfsizlik
xomashyo
Xorazm
xunuk

Matnni o‘qing.

Alisher Navoiy

O‘zbek xalqi ma’naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan ulug‘ zotlardan yana biri – bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo‘tabar nomi, ijodiy merosining boqiyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so‘z yuritamiz.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha’nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir. Ta’bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron-bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa.

Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.

Inson qalbining quvonchu qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu

bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz.

Ma'lumki, biron-bir xalq ma'naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e'tirof xalqning g'urur va iftixori, milliy o'zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, keyingi paytda buyuk ajdodlarimizning so'nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish xorijiy ellarda ham ortib borayotgani barchamizni quvontiradi. Buning tasdig'ini dunyoning turli mamlakatlarida ularning hayoti va faoliyati haqida e'lon qilinayotgan ilmiy va badiiy asarlar, ulug' ajdodlarimiz xotirasiga barpo etilayotgan yodgorliklar misolida ham ko'rish mumkin. Shular qatorida Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Moskva, Tokio va Boku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga, Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg'oniy xotirasiga o'rnatilgan muhtasham haykallarni eslash joiz.

(I.Karimov)

Savol va topshiriqlar:

- 1. Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bog'liq yana qanday ma'lumotlarga egasiz?*
- 2. Shoirning odil shoh haqidagi g'oyalari qaysi asarlarida o'z aksini topgan?*
- 3. Alisher Navoiy ijodidan namunalar yod ayting.*

O'ttizinchi mashg'ulot

30. H h harfi:

H h harfi hosil, hamma, bahor; isloh, nikoh kabi so'zlarda jarangsiz sirg'aluvchi bo'g'iz undoshini ifodalash uchun yoziladi.

H h harfining o'qilishi va yozilishiga e'tibor bering:

bahosiz	hisob	hokimiyat	hayot
harbiy	hissa	bahra	haykal
hatto	hodisa	voha	hayron
hashar	hozirgi	havas	haqgo'y
hikmatli	hokazo	hadis	hali

Matnni o'qing.

Matnni o'qing.

Abror Hidoyatov

U kishi sahnadagina emas, hayotda ham quyib quygan Otello edi. Egnida eskiroq movut palto, yalangbosh, deyarli oq oralamagan qalin jingalak sochlari bir oz to'zg'igan Abror aka aksariyat teatrdan chiqib Xadragacha kelar va Shayxontohurga qarab piyoda ketar edi...

Uning qiyofasida – yag'rindor qomati, qirg'iy burni, sinchkov nigohli o'tkir ko'zlarida shoirona dard, his aks etib turardi. U yo'lovchilarning salomlariga, «Ana, Abror Hidoyatov!» degan shivir-shivirlariga e'tibor qilmas, o'z o'ylari bilan band, ohista odim tashlar edi. Men ko'rgan paytlarimda Abror aka betobroq edi. Ba'zi bir ichi qoralar u kishining sha'niga mayda gaplar tarqatardi. Lekin bu siymoning obro'-e'tibori shu qadar baland ediki, bu gaplar u kishining qadrini tushirish u yoqda tursin, yana ham oshirar edi. Uning nomi hayot vaqtidayoq ajoyib afsonalar bilan o'ralgan edi. Abror akaning oltmish yoshlik to'yi. «Otello» spektaklining besh yuzinchi marta qo'yilishi!..

Abror aka – Otello, egnida qizil shohi ko'ylak, belida qizil shohi belbog', qulog'ida «tilla» sirg'a, qop-qora chehrasida viqor, vazminlik, olijanoblik, tishlari yarqirab sahnaga kirib keldi. Kirib keldi-yu, sahna ham, teatr ham esimdan chiqdi. Chunki ko'z oldimda Abror Hidoyatov emas, o'sha Shekspirni ilk bor o'qiganimda tasavvur etganim – Otello turardi! (????????????????????)

Savol va topshiriqlar:

1. *Matnni ifodali o'qing.*
2. *Abror Hidoyatov haqida yana nimalar bilishingizni aytib bering.*
3. *“O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”dan Abror Hidoyatovga oid matnni o'qing.*

O'ttiz birinchi mashg'ulot

31.Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi:

baland, Samarqand, poyezd; do'st, artist, g'isht kabi so'zlarda d, t tovushi ba'zan aytilmasa ham, yoziladi.

metall, kilogramm, kilovatt, kongress kabi o'zlashma so'zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so'zda xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi: metall +lar = metallar, kilogram+mi= kilogrammi kabi.

Quyidagilardan qo'sh undoshli va qator undoshli so'zlarni ajratib yozing.Namuna: qo'sh undoshli – malla, g'alla; qator undoshli – kasr, kadr.

Dars, darz, stol, achchiq, yetti, ikki, daraxt, muallim, soat, fahm, zehn, sabr, jizza, munajjim, muqaddas, sport, rang, mas'h, taxt, karaxt, mutaxassis, serjant, tank, durroj, taalluqli, qarz, qars, million, tunnel, tennis, sinf, favvora, tinchlik, issiq, meshshan, absess, ammiak, assotsiatsiya, farzand, doktorant, ekspluatatsiya, fayz, faxr, hukm, quvvat, komissiya, kodeks, konspekt, kredit, bank, qadr,ong.

Matnni o'qing.

Hassos daryo

Tog'ay Murodning ilk asarlarini o'qiganda, ularning kutilmagan poeziyasi meni o'ziga rom etdi. Esimizda, o'sha asarlar dunyoga kelib o'qilayotganda juda ko'pchilik o'quvchilarga va qalam ahllariga bu kutilmagan poeziya shunday juda chuqur taassurot qoldirgan edi. Ular yaqin-yiroq adabiyotlar sarhadlari va ufqlariga qaraganda ham o'xshashi yo'q adabiy-badiiy hodisalar ekanligi ko'rinib turardi.

Gruzinlarning Pirosmani degan rassomi o'tgan. Uning suratlari barchasi xuddi juda talantli bolalar chizgan suratlarga o'xshaydi. Buni primitivizm ham deyishadi. Yaxshi ma'noda. Pirosmani shu o'ta odmi suratlarida gruzinning qiyofasi, gruzinning to shoirligi – san'atkorligi va o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini juda yorqin va takrorlanmas tarzda aks ettirgan. Pirosmanining Tog'ay Murodga hech aloqasi yo'q. Lekin Tog'ay Murod ham xuddi shu gruzin rassomi kabi takrorlanmas, xalqonadir.

Togʻay Murodni oʻqisangiz, odam dam-badam toʻlib ketadi. Yigʻi. Zavq-shavq. Ilhomga. Togʻay Murod bu – Toʻpolon daryo. Uni men dunyodagi eng chiroyli daryolardan biri deb bilaman. Voy, bu daryoning shoʻxligi! Voy, bu daryoning oʻziga odamni sigʻdirmasligi! Bir kaft suv ololmaysiz! Bir zum oyogʻingizni rohat toʻlqiniga sololmaysiz. Qoʻymaydi! Shitob bilan oqizib ketadi. Chirpirak qilib yuboradi. Lekin butun Surxon uning bois gul-gul yashnaydi, ochiladi, tiriklik qoʻshigʻini aytib jar soladi.

Niagara Amerika diyoridagi shoirlarni yaratganmi, yaratmaganmi, aytolmayman. Lekin Toʻpolon daryo Surxonda Togʻay Murodni yaratgan. Unga oʻz shaddod shoirligidan ulugʻ ulush ato etgan. Meni bu ikki ulugʻvor hassoslik doim hayratga soladi. Bu ikki daryo boʻyida doim odamning bagʻri kengayganday, yayraganday, dunyoning tahlil etib boʻlmas sirlariga oshno boʻlganday sezadi odam oʻzini.(I.Gʻafurov)

Savol va topshiriqlar:

1. *Togʻay Murodning qanday asarlarini oʻqigansiz?*
2. *Ularda oddiy va samimiy insonlarning tasvirlanishini izohlab bera olasizmi?*
3. *Adibning quyidagi asarlaridan bittasini topib oʻqing. Uning mazmunini oʻrtoqlaringizga gapirib bering: “Yulduzlar mangu yonadi”, “Ot kishnagan oqshom”, “Oydinda yurgan odamlar”, “Momo yer qoʻshigʻi”, “Otamdan qolgan dalalar”*

Oʻttiz ikkinchi mashgʻulot

32.(') tutuq belgisi:

aʻlo, baʻzan, maʻyus, taʻzim; raʻy, taʻb; eʻlon, eʻtibor, eʻtiqod, meʻmor, neʻmat, sheʻr, feʻl; Nuʻmon, shuʻla kabi oʻzlashma soʻzlarda unli dan keyin shu unli tovushning choʻziqroq aytilishini ifodalash uchun qoʻyiladi; moʻjiza, moʻtabar, moʻtadil kabi soʻzlardagi oʻ unlisi choʻziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qoʻyilmaydi;

2) inʻom, sanʻat, qatʻiy, masʻul kabi oʻzlashma soʻzlarda unli dan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qoʻyiladi.

Quyidagi soʻzlarda tutuq belgisining qoʻyilishini izohlang va soʻzlarning toʻgʻri talaffuziga eʻtibor bering:

Raʻno	aʻyon	sheʻr	saʻva
eʻtibor	moʻjiza		qalʻa
sunʻiy	sanʻat	surʻat	taʻna

In'om	jur'at	xushfe'l	mas'h
mas'um	nash'a	shar'iy	Is'hoq
e'lon	ma'rifat	mas'ul	
	e'zoz	ma'lumot	
e'tiqod	qit'a	as'hob	

Matnni o'qing.

Osiy banda

Shu qadar donoki, koinotning olis puchmoqlarida yuz yildan keyin nima ro'y berishini ayta oladi.

Shu qadar nodonki, ertaga o'zining nima bo'lishini bilmaydi.

Shu qadar mehrliki, chumoliga ozor bermaydi. Shu qadar qahrliki, bir-birining dilini vayron qilib, huzur topadi.

Qalbi shu qadar uyg'oqki, osmonda charaqlab yotgan yulduzlarni tomosha qilib, ko'ziga yosh oladi. Qalbi shu qadar so'qirki, o'z bolasini yetimxonaga, o'z otasini g'aribxonaga tashlab ketadi.

Bir burda nonga to'yadi. Dunyoning jamiki boyliklari kamlik qiladi.

Bir qo'li bilan samo kemalari, "oynayi jahon"lar yaratadi. Bir qo'li bilan yer yuzini kultepaga aylantiruvchi qurol yasaydi.

Bir fe'li – adolat. Bir fe'li – razolat.

Bir hunari – sadoqat. Bir hunari – xiyonat...

Nachora... Odamzot shunday: nur va zulmat qorishig'idan bino bo'lgan.

Kommunizm

–Jannat bilan kommunizm orasida farq bormi?

–Bor! Jannatdan hech kim qaytib chiqmaydi. Kommunizmga hech kim yetib bormaydi!

Orzuli dunyo

...Bir kunlari o'tib turuvdi. Birovdan oldin, birovdan keyin degandek... Qora qozon qaynab turuvdi...

... Orzuli dunyo ekan. Xotin dugonalari bilan gap yedi. Unisini ko'rdi, bunisini ko'rdi... O'kindi:

–O‘rtoqlarim brilliantga belanib yuribdi. Men sho‘rlikda tuzukroq uzuk ham yo‘q. Peshonam sho‘r bo‘lmasa, shu noshudga tegarmidim?! Nima qilay? O‘zimni sotaymi?

Erning hamiyati ozor chekdi. Ayoliga oltin “komplekt” olib berdi.

... Orzuli dunyo ekan. Xotin tag‘in nolidi:

Paxmoq qizning baxtini bersin, degani rost ekan. Anavi Humayradan nimam kam? Maktabda eng xunuk qiz edi. Eri “Mersedes»da olib yuradi. Bu noshud mashina tugul bittagina o‘g‘liga velosiped ham oberolmaydi. Peshonam sho‘r ekan! O‘zimni sotaymi endi?!

Erning hamiyati ozor chekdi. Judayam “Mersedes” emas-ku, “Matiz” sotib oldi.

Ittifoqo yon qo‘shni imorat soldi. “Uchastka”. Ikki qavatli. Saunasi bilan.

Basseyini bilan! Qo‘shnining qasri oldida ularning “shipir” tomli uyi bostirmaga o‘xshab qoldi. Xotin o‘kinib nola qildi:

–Shu xonadonga tushganimga o‘n besh yildan oshdi. Bu noshud bittayam g‘isht qo‘ygani yo‘q! Gadoyning kulbasi yaxshidir bundan! Peshonam sho‘r bo‘lmasa, shunga tegarmidim? O‘zimni sotaqolay endi!

Er “uchastka” soldi. Saunasi bilan. Hovlida fontani bilan!

... Orzuli dunyo ekan... Xotin endi tog‘da quriladigan dachani orzu qilib turganida... to‘satdan qiy-chuv bo‘lib qoldi. Xotin ertalab “jinday suyagini qizitish uchun” saunaga kirsam, er o‘zini osib qo‘yganmish!

Xotin dod ustiga dod soldi:

–Voy-dod! Peshonam sho‘r bo‘lmasa shu noshudga tegarmidim?! O‘lmay o‘lgur bir parcha xat tashlab ketibdi. Olam-jahon qarzi bor ekan! “Prasan”ining o‘zi sakson ming dollarmish! Nima qilay, o‘zimni sotaymi, endi?!

... O‘zini sotmoqchi edi... xaridor chiqmadi... (O‘. Hoshimov)

Savol va topshiriqlar:

1. O‘. Hoshimovning qanday asarlarini o‘qigansiz?
2. Ularda sof o‘zbekona timsollarning tasvirlanishini izohlab bera olasizmi?

3. Adib qanday vositalar bilan kulgi hosil qilmoqda? Izohlab bering.

O`ttiz uchinchi mashg`ulot

Asos va qo`shimchalar imlosi

33. Qo`shimcha qo`shilishi bilan so`z oxiridagi unli o`zgaradi:

1) a unlisi bilan tugagan fe'llarga -v, -q, -qi qo`shimchasi qo`shilganda a unlisi o` aytiladi va shunday yoziladi: sayla-saylov, sina-sinov, aya-ayovsiz, so`ra-so`roq, bo`ya-bo`yoq, o`yna-o`ynoqi, sayra-sayroqi kabi;

2) i unlisi bilan tugagan ko`pchilik fe'llarda -v, -q qo`shimchalari qo`shilganda bu unli u aytiladi va yoziladi: o`qi-o`quvchi, qazi-qazuvchi, sovi-sovuq kabi. Lekin i unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarda -q qo`shilganda bu unli i aytiladi va yoziladi: og`ri-og`riq, qavi-qaviq kabi.

Eslatma:

1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga -uv qo`shiladi: ol-oluv, yoz-yozuv kabi;

2) undosh bilan tugab, tarkibida u unlisi bor fe'lga -uq qo`shiladi: uz-uzuq, yut-yutuq kabi. Lekin uyushiq, burushiq, uchuriq, (shuningdek, bulduriq) kabi so`zlarning uchinchi bo`g`inida i aytiladi va yoziladi.

Matnni o`qing.

Ayol mo`jizasi

*Tabiatda bitta mukammal mo`jiza bor, u – Ayoldir!

Erkak g`ayrati va ilmi bilan dunyo quradi, ayol latofati va hilmi bilan. Erkak hamisha bezovta, borini sarflab dunyo kezgani kezman, ayol – osuda, mehrini sarflab uyini bezagani bezagan. Erkak uchun dunyo – uy, ayol uchun uy – dunyo. Erkakning qismati jabr, ayolning qismati – sabr. Chunki erkak jabr tortib taxt topadi, ayol sabr qilib – baxt...

Ayollar qismatiga qarab yurtning qismatini aytib bersa bo`ladi.

Ayolning bir narsaga hech ishongisi kelmaydi – qariganiga. Shuning uchun ham vaqt daryosini orqaga qaytarishni orzu qilmagan ayolni topish dushvor.

*Hamd va hadyaga ziqna kishi ayolga do`st bo`la olmaydi.

*Ikki purma`no hikmat bor. Birinchisi – ayol qulog`i bilan sevadi, erkak – tili bilan. Ikkinchisi – haqiqat gapiruvchining tilida emas, eshituvchining qulog`ida. Bu ikki hikmatni bir-biriga qo`sholsangiz, ayol diliga yo`l topasiz.

“Asal” deb “zahar” totish – erkak qismati, “asal”dan erkak bezmasin deb, “zahar” bo‘lish – ayol hikmati.

Ayol o‘zini malika bilib qanchalik ko‘z-ko‘z qilmasin, o‘zi tuqqan farzandining cho‘risi ekanini aslo unutmaydi.

Erkak uchun sevilish emas, sevmaslik azob, ayol uchun sevish emas, sevilmaslik azob.

* Malik bo‘lishni istamagan yigit yo‘q, malika bo‘lishni istamagan qiz.

*Erkaklar aqlli ayolga emas, chiroyli ayolga uylanishni ma’qul ko‘radilar. Chunki, birinchisi ular dilida hasad uyg‘otadi, ikkinchisi – havas. Havas bilan bir umr yashash mumkin, hasad bilan-chi? Aslo.

Er ko‘rgan ayolning erkaligi boshqa, ayol ko‘rgan erkakning – ayyorligi.

Ayollardan faylasuf chiqqan emas. Chunki ular donolik qilishdan donolar tug‘ishni afzal ko‘radilar.

Baxtiyorlik boisini ayol o‘zida deb biladi, baxtsizlik boisini – erida.

Hatto rad qilib bo‘lmas dalillar bilan aybini isbotlasang ham, ayol o‘z begunohligini isbotlash uchun dalil topa oladi.

Ayolning raqibi – ayol.

Mahbubasi ilhom yoki dalda bermaganida, erkak zoti birorta ham arzigulik kashfiyot qila olmasdi. Shuning uchun u barcha kashfiyotlarni ayol ismi bilan ataydi va o‘z ojizligini bilmagan holda, oshkor etadi.

Ayollar birlashsa taxtlar, chegaralar va saltanatlarga o‘rin qolmasdi, barcha xalqlar bir davlatga fuqaro bo‘lib, bir dinga e’tiqod qo‘yib, bir mavjudotdan najot kutib yashardi. O‘sha davlat, o‘sha din, o‘sha mavjudot – ayoldir, ayol!

Ayol rad etgan hikmatdan hikmat topa olgan odamgina yashashdan hikmat topa oladi.

Alla – mangulik madhiyasi. Allada barcha donishmandlar topgan va hali topolmagan donishmandlik yashiringan.

Ayol mavjudligining o‘zi bir ziynat!

Sevganlar ko‘p, sevilganlar oz. Sevganlar ham, sevilganlar ham ayol hukmida.
(V.Alimasov)

34. k, q undoshi bilan tugagan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga; shuningdek, bek, yoq kabi ayrim bir bo‘g‘inli so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda k undoshi g undoshiga, q undoshi g undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: tilak-tilaging, yurak-yuragim, kubok-kubogi, bek-begi; tayoq-tayog‘i, qoshiq-qoshig‘i, yaxshi-yaxshirog‘i, yo‘q-yo‘g‘i kabi. Lekin ko‘p bo‘g‘inli o‘zlashma so‘zlarga, bir bo‘g‘inli ko‘pchilik so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda k, q tovushi aslida aytiladi va yoziladi: ishtirok-ishtiroki, ocherk-ocherki, erk-erki, huquq-huquqim, ravnaq-ravnaqi, yuq –yuqi kabi.

Quyidagilardan egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda fonetik o‘zgarish bo‘ladigan so‘zlarni ajrating va ko‘chiring.

shahar	farq	so‘roq	osmon
ona	qishloq	tumshuq	raqib
burun	qorin	kurak	sadoqat
og‘iz	qo‘shiq	zirak	tuproq
qoshiq	oshiq	devor	qo‘rg‘on
chelak	bek	kitob	
tilak	taroq	lab	
erk	o‘roq	go‘zal	
kasb	boshliq	qo‘l	

Matnni o‘qing va qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida tarkibida o‘zgarish bo‘lgan so‘zlarni ko‘chiring.

Kanareykalar

Kanareykalarining kelib chiqish tarixi Kanar, Azor hamda Madeyra orollariga borib taqaladi. Xonaki kanareykalarga qiziqqan kishilar uning o‘tmishi bilan tanishib, bu qushning chiroyi bilan birga xush ovozga egaligi, boshqa qushlarda uchramaydigan xislatlari borligidan ham boxabar bo‘ladilar. XV asrda Yevropada xonakilashtirila boshlangan bu qushning dovpyg‘i bora-bora biznes bilan shug‘ullanuvchilarga xizmat qilishini va kanareykashunoslik uchun katta daromad manbaiga aylanishini hech kim xayoliga keltirmagan. Dastlab bu mitti yovvoyi jonzo tuslanayotganda sariq rang hosil bo‘ladi. Ustki qismi carg‘ish-ko‘kish patining uchlari qoramtir va par chetlari bo‘ylab yoyiq tiniq nuqtalari bo‘ladi. Uning dum uchlari sarg‘imtir-ko‘kimtir rangda, ko‘ksi va bo‘yni och sariq – sarg‘imtir. Dum tarafga qarab sariq rangi ko‘payib boradi. Kanareykaning momiq patlari ingichka sariq chiziqcha bilan qoramtir tusga kirib boradi. Yosh qushchalar to‘lqinsimon tusda, sariq-kulrang belgilar bilan hamda tumshuq atrofi va bo‘ynida

uncha katta bo'lmagan to'q sariq rang ko'zga tashlanadi. Qush gavdasining uzunligi 12-14 sm bo'ladi. O'zbekistonda ko'proq uning sariq, sarg'imtir-ko'kish, qizil va qizg'ish hamda tojli turlari tarqalgan va ular asosan xonadonlarda boqiladi. O'lkamizning tog'li hududlarida ularning yovvoyi qarindoshlari uchraydi.

Yovvoyi kanareykalar tuxum qo'ymaydigan vaqtda gala bo'lib, bir joydan ikkinchi joyga ozuqa izlab ko'chib yuradi. Ular turli-tuman o'simlik urug'lari, yam-yashil ko'katlar va ba'zi bir mevalar, masalan, uzum va yangi unib chiqqan maysa urug'lari bilan oziqlanadi. Bu qushlar uchun tariq, poliz ko'kati, karam, shuningdek, yarim pishgan "kanareykacha" urug'i ozuqa bo'ladi. Shuningdek, oziqlanish paytida kanareyka qushlari mayda qurt-qumursqalarni va ignabargli o'simlik poyalarini ham cho'qilab yeydi. Suvda cho'milish odatiy hol bo'lib, ularni ko'pincha kam suvli irmoq va daryolarda cho'milayotganini uchratish mumkin. Quyosh botishidan avval tunash joyida bir yerga to'plana boshlaydi, so'ngra daraxtda uzoq vaqt chug'urlab sayraydi. (N.Alimov)

35. Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

1) o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, qayir, ayir kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi -il qo'shimchasi qo'shilganda, ikki, olti, yetti so'zlariga -ov, -ala qo'shimchalari qo'shilganda ikkinchi bo'gindagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: o'rin-o'rnim, qorin-qorni, burun-burning, o'g'il-o'g'ling, ko'ngil-ko'ngli, yarim-yarmi; qayir-qayril, ulug'-ulg'ay, sariq-sarg'ay, ikki-ikkov, ikki-ikkala, yetti-yettov kabi;

2) u, bu, shu, o'sha olmoshlariga -da, -dan, -day, -dagi, -ga, -gacha, -cha qo'shimchalari qo'shilganda n tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: unda, bunday, shunda, o'shancha kabi; bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi: buningiz, o'shanisi kabi;

3) o, o', u, e unlilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari -m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si (yoki -lar) shaklida tovush orttirmay qo'shiladi: bobom, bobong, bobosi; bobomiz, bobongiz, bobosi (yoki bobolari); orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzusi kabi;

b) parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir y tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro'yim, obro'ying; obro'yimiz, obro'yingiz kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi parvo, avzo, obro', mavqe so'zlariga -yi shaklida, xudo, mavzu so'zlariga esa -si shaklida qo'shiladi: avzoyi, mavzusi kabi (dohiy kabi y undoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda -si qo'shiladi: dohiysi kabi);

men, sen olmoshlariga -ni, -ning, -niki qo'shimchalari qo'shilganda qo'shimchadagi n aytilmaydi va yozilmaydi: meni, mening, meniki; seni, sening, seniki kabi.

Quyida berilgan so'zlarning xatosini toping, qo'shimcha qo'shilganda fonetik o'zgarish bo'ladigan so'zlarni ko'chiring.

menning	toqqa	do'slarim	ulug'ay
og'izim	ketkan	Toshkenga	tilakim
qoshiqqa	senniki	singilim	buyruqi
soqqan	obro'im	pastay	yaxshiroqi
aytti	terakka	o'g'ilimiz	chiroqimiz

Matnni o'qing.

Ikki vafodor yor bir-biriga vafo qilib, boshlaridan kechgani, ularning sharofati bilan yuz ming bosh qilichdan va qilich qindan qutulgani, hatto qayta qinga kirgani

Eshittimkim, baxtli podshoh, to'rt ulusning xoni Temur Ko'ragon iqlimlarni fath etishga kirishganda, Hindistonda qattiq jang bo'ldi. Unga g'alaba yuz ko'rsatib, taqdir dushman lashkariga shikast soldi. Dushmanlarning hammasi dinsiz bo'lgani uchun (Temur) bek: «Hammasini qilichdan o'tkazinglar!» – dedi. O'liklarning ko'pligidan dashtlar to'lib ketdi. Qizil qon Nil bo'lib oqdi. O'sha soy toshicha kallalar uchdi; har kishi o'zboshimchalik bilan bosh oldi. O'tkir tig'lar har tomonda qon to'kib, butun olamga g'avg'o soldi. Shu payt ikkita bechora sevishgan nogoh ushbu qotillarga duch keldi. Shohning jazosidan omon qolish uchun askarlardan biri ularning birini chopmoqchi bo'lib otidan tushdi. Uni o'ldirish uchun askar yonidan tig'ini chiqargan edi, unisi o'z sherigini tig' ostida ko'rib, uni himoya qilish uchun qotilga o'z boshini tutdi.

–Agar sening maqsading bosh olish bo'lsa, uni qo'y, uning o'rniga bu boshni ola qol! – dedi u.

Askar uning boshini olmoqchi bo'lgan edi, unisi ham xuddi shu so'zni aytdi. U qaysi biriga o'z zulmini ko'rsatmoqchi bo'lsa, boshqa biri o'sha gap bilan oyog'iga yiqilar edi. Burgut panjali qotilning jahli chiqib:

– Paysalga solmay ikkalangizni ham chopaman! – dedi.

U qaysi birini o'ldirishga oshiqsa, ikkinchisi toqatsizlik bilan der edi:

– Tez bo'l, oldin meni o'ldira qol, to men o'lguncha loaqal u tirik tursin!

Ular bir-birlariga o'z boshlarini in'om qilardilar. Boshlarini kestirish uchun tig'ni talashar edilar. Shu munosabat bilan orada birpas hayallash yuz bergan edi, birdan xalq orasida omon-omon bo'lgani haqida nido ko'tarildi. Chunki bu ikki yor bir-biri uchun jonidan kechgan edi, shoh ham xalqning gunohidan o'tdi. Bu ikki yor do'stlik, sadoqat tuyg'ularini namoyish qilib, elni ham, o'zlarini ham xalos qildilar. (Alisher Navoiy)

Savol va topshiriqlar:

1. Qo'shimcha qo'shilganda tarkibida o'zgarish bo'lgan so'zlarni aniqlang.
2. Vafo va sadoqat, do'stlik g'oyalari ulug'langan yana qanday asarlarni o'qigansiz?

O'ttiz to'rtinchi mashg'ulot

36. Quyidagi qo'shimchalarining birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoziladi:

1) -bon, -boz qo'shimchalari ba'zan -von, -voz aytilsa ham, hamma vaqt -bon, -boz yoziladi: darvozabon, masxaraboz kabi. Lekin -vachcha qo'shimchasi hamma vaqt shunday aytiladi va yoziladi: amakivachcha, xolavachcha kabi.

2) o'rin-payt va chiqish kelishigi qo'shimchasining o'tgan zamon yasovchi va III shaxs ko'rsatkichi -di qo'shimchasining boshidagi undosh ba'zan t aytilsa ham, hamma vaqt d yoziladi: ishda, misdan, ketdi, kelmabdi kabi.

Matnni o'qing.

Uyqu va salomatlik

Insoniyat zamonaviy tamaddunning yangi-yangi bosqichlariga qadam qo'ygani sari to'yib uxlamaydigan kishilar soni oshib bormoqda. Bunga uyquni behuda vaqt o'tkazish deb hisoblovchilar ko'paygani ham sabab bo'lmoqda, – deydi akademik Yakov Levin. – Aslida bu noto'g'ri tushuncha. Ovqatlanish, muomala, hattoki ichkilik ichish madaniyati ham bor ekan, demakki, uyqu madaniyati ham bo'lishi zarur. Aks holda salomatlikka ziyon etadi.

Uyqu madaniyati hali u qadar shakllanmagan. Ko'pchilik muayyan vaqtda yotib, muayyan vaqtda uyg'onishni, uyqudan oldin sayr qilish, tunda so'kinmaslik, yotishdan oldin to'yib ovqatlanmaslik va ko'p ichib qo'ymaslikni uyqu madaniyati, deb tushunadi. Biroq juda kamchilik bunga rioya etadi. So'ng esa: "Ko'p ishlayman, harakatchanman, lekin negadir uyqumning mazasi yo'q", deya taajjublanishadi.

Tunda ishlashning zarari ko'p. Biroq hayotning ham o'z talabi bor. Shu bois, uyqu vaqtini ish uchun sarflash hollari yuz berishi tabiiy. Amerikalik mutaxassislar hisob-kitobiga ko'ra, hozirgi zamon odamlari haftasiga uch soat kam uxlaydigan bo'lishgan. Buning biror-bir yaxshi jihati yoq. Negaki, genetik jihatdan shakllangan mexanizmga ko'ra, odamning quyosh botgandan so'ng uyquga ketib, tongda uyg'onishi tabiiy hol. Elektrning kashf etilishi mazkur xronobiologik muvozanatni o'zgartirib yubordi, holbuki, inson a'zoyi badani uchun zarur gormonlarning aksariyati uyqu paytida hosil bo'ladi. To'yib uxlamaslik semirishga, ayollarda hayz tizimi va boshqa jarayonlar buzilishiga olib keladi.

Bundan tashqari, uxlaganda biz uyg'oq paytimizda sarf etgan kuch-quvvatni tiklaymiz, ichki a'zolarimiz o'z holatidan bosh miyaga xabar beradi. Agar odam muttasil (bir oydan ko'proq) to'yib uxlolmasa, bu uning intellektual imkoniyatlari kamayishi, xotirasi zaiflashishi va boshqa muammolar tug'ilishiga olib keladi. Ginnesning rekordlar kitobida eng uzoq uxlamagan, ya'ni 264 soat (11 kecha-kunduz) davomida uyg'oq holatda bo'lgan odam qayd etilgan. Shu narsa ham ayonki, odam faqat besh kungacha uxlamay yurishi mumkin, biroq shundan so'ng yurib borayotib, ko'zi ochiq holda ham mizg'ishga majbur bo'ladi. Negaki,

biologik jihatdan hamma narsadan uyquning ehtiyoji kuchli: odam suvsiz o'n kunga, taomsiz esa bir oygacha ham chidashi mumkin. Biroq uyqusiz...

Tibbiyot nuqtayi nazaridan odamga bir kunda 5,5-6 soat uyqu yetarli bo'lishi mumkin. Bundan ortig'i esa, har bir odamning individual xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Buni aniqlash uchun ta'til payti har kuni bir vaqtda yotib, istagancha uxlang. Bir necha kundan so'ng, uyquga to'ygach, aytaylik, ertalab soat o'n birda emas, soat yettida uyg'onadigan bo'lasiz. Mana shu vaqt uyqungiz uchun eng kerakli muddat hisoblanadi. Bundan kami – kam, ortig'i – ortiq!

Tadqiqotchilarning fikricha, agar odam yil davomida haftasiga hatto bir oqshom uyqudan qolib ishlasa ham bu uning salomatligiga ta'sir ko'rsatmay qolmas ekan. Ya'ni bu holda kishining xafaqon, me'da yarasi, qandli diabet kasalliklariga boshqalarga qaraganda besh marta ko'proq chalinish ehtimoli bor. Shu bois bir oqshom uyqudan qolgan kishiga ikki kecha to'yib uxlash tavsiya etiladi.

Ayrimlar uyquasi buzilganiga ko'pam tashvishlanmaydi. Bugun bo'lmasa ertaga uxlab olarman, deb bu holatga bee'tibor qarashadi. Aslida esa, bu organizmda kechayotgan jarayonlar me'yorida emasligiga nozik bir ishora. Ikkinchi xato esa alkogolli ichimlikdan uxlatuvchi vosita sifatida foydalanishda namoyon bo'ladi. To'g'ri, bunday ichimlikning ta'siri bor, biroq hech kim buning uchun zarur bo'lgan o'ttiz grammning o'zi bilan kifoyalanmaydi-da... Uchinchi xatolik esa, uxlatuvchi dori-darmonlarga ruju qo'yishdir. Hozir bunday vositalarning organizmga ziyoni kamroq bo'lgan yangi turlari chiqqan. Ulardan tanlab foydalansa bo'ladi. (/?/?/?/?/?/?/?)

Savol va topshiriqlar:

- 1. Talaffuzi va yozilishida farq bo'lgan so'zlarni ko'chirib yozing.*
- 2. “Salomatlik – tuman boylik” degan mavzuda matn tuzing. Tuzgan matningizdagi talaffuzi va yozilishida farq bo'lgan so'zlarning tagiga chizing.*

O'ttiz beshinchi mashg'ulot

37. Quyidagi qo'shimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

1) taqlid so'zlardan fe'l yasovchi -illa (chirilla, taqilla) qo'shimchasi so'z tarkibida v yoki u tovushi bo'lganda -ulla aytiladi va shunday yoziladi: shovulla, lovulla, gurulla kabi;

2) nisbat shaklini yasovchi -dir qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarda ("kel"dan boshqa), shuningdek z undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo'shiladi: quvdir, kuldir, yondir; o'tkazdir, tomizdir kabi. Qolgan barcha hollarda -tir aytiladi va shunday yoziladi: tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir kabi;

3) jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ga, chegara bildiruvchi -gacha, ravishdosh shaklini yasovchi -gach, -guncha, -gani, -gudek, sifatdosh shaklini yasovchi -gan, buyruq maylining II shaxs ko'rsatkichi -gin, shuningdek -gina qo'shimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi;

a) k undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi k aytiladi va shunday yoziladi: tokka, yo'lakkacha, ko'nikkach, zerikkuncha, to'kkani, bukkani, ekin, kichikkina kabi;

b) q undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi q aytiladi va shunday yoziladi: chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniquqani, qo'rqqudek, achchiqqina kabi;

d) qolgan barcha hollarda, so'z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo'shimchalarning bosh tovushi k yoki q aytilishidan qat'iy nazar, g yoziladi: bargga, pedagogga, bug'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha kabi.

Matnni o'qing.

Muchal

Juda qadim zamonlardan beri o'lkamizda muchal bo'yicha yil ag'darish odati bor. Qariyalar muchaling nima, deb so'rab yoshingizni aytib berishadi. Muchal - 12 ta hayvonning nomi bilan ataladigan yillar. Muchal hisobi Osiyo va Afrikadagi ko'pgina mamlakatlar xalqlari orasida qadimdan keng tarqalgan. Yozma ma'lumotlarga qaraganda, muchal hisobini dastlab bizning o'lkamizda ko'chmanchi chorvador xalqlar ishlatgan. Keyin u Mo'g'uliston, Xitoy, Yaponiya, Hindiston, Misr, Iroq, Eron, Afg'oniston va boshqa mamlakatlarga tarqalgan. Odamlarning tug'ilgan yillarini hayvonlar nomi bilan atash odati ayrim hayvonlarga sig'inish oqibatida kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Shuning uchun qaysi mamlakatda qanday hayvon hosiyatliroq hisoblansa, u 12 yillik yil hisobiga kiritilgan. Masalan, Xitoyda baliq o'rniga afsonaviy ajdaho, Afrikadagi ba'zi

xalqlarda baliq o'rniga timsoh, Misrda sichqon o'rniga mushuk, ot o'rniga eshak va hokazo hayvonlar nomlari qo'llanilgan. O'lkamizda esa mana bu hayvonlar muchalni ifodalaydi. 1. Tovuq, 2. It, 3. To'ng'iz, 4. Sichqon, 5. Sigir, 6. Yo'lbars, 7. Quyon, 8. Baliq, 9. Ilon, 10. Ot, 11. Qo'y va 12. Maymun. Odam shu hayvonlarning nomi bilan atalgan yilning qaysi birida tug'ilgan bo'lsa, uning muchali shu hayvon nomi bilan ataladi. Dastlab, muchalning birinchi yili deb sichqon yili olinardi. Keyinchalik muchal hisobini biz ishlatadigan milodiy hisobga bog'lash maqsadida teskarisiga hisoblansa, milodiy hisobning birinchi yili tovuq yili ekan. Shuni nazarga olib muchalning hisob boshi tovuq yili desak, grigoriy taqvimi bo'yicha yozilgan yilni 12 ga bo'lganimizda hosil bo'ladigan qoldiq son muchal yili tartibini bildiradi. Masalan, 2000 yilning qanday yil ekanligini bilish uchun uni 12 ga bo'lamiz: $2000:12 = 166 (8)$ bo'ladi. Bunda qoldiq 8 bo'lgani uchun 2000 yil baliq yili ekan. Tabiiyki, agar qoldiq nol bo'lsa, yil 12, ya'ni maymun yili bo'ladi.

Muchal hayvonlarining tasviri turmushda ishlatiladigan turli-tuman buyumlarga chizilgan, ayollarning bezaklariga tushirilgan. 12 yillikning har bir yili tabiatdagi ulkan tabiiy hodisalar bilan bog'liq degan qadimiy rivoyatlar ham to'g'riligiga ishonch hosil qilish mumkin. Quyoshdagi chaqnash, portlash hodisalari, dog'larning ko'payib-kamayib ketishi va shularga bog'liq holda Yerdagi ham ob-havo sharoitlaridagi o'zgarishlar, magnit bo'ronlari hodisalari va hokazolar ham 12 yillik davr bilan o'zgaradi. Qurg'oqchilik, namgarchilik, qahraton qish, iliq qish, jazirama yoz va hokazolar, bularga bog'liq holda qimmatchilik, arzonchilik kabi jamiyatdagi hodisalar bilan bog'lanib ketadi. Hatto tug'ilgan bolaning taqdiri, fe'l-atvori uning muchaliga bog'liq bo'ladi, deguvchilar ham bor. Chunonchi, ilon yilida qurg'oqchilik, qimmatchilik bo'larkan, qish sovuq kelarkan, tug'ilgan farzand nodon bo'larmish, to'ng'iz yilida yog'ingarchilik ko'p, narx-navo arzon, farzand tug'ilsa, u davlatmand va dono bo'larmish, quyon yilida tug'ilgan bola uzoq umr ko'rib, badavlat, oqil va odil inson bo'lib yetisharmish va hokazo.

Muchal hisobi bo'yicha yil boshi deb ko'pchilik sharq mamlakatlarida, jumladan, O'zbekistonda ham 22 mart olinadi. Shuning uchun tug'ilgan bolaning

muchal hisobidagi yilini aniqlashda ehtiyot bo'lish kerak, Navro'zning birinchi kuniga qadar o'tgan yilning muchali hisobga olinadi. Endi, bolalar, muchalingizni aniqlashni istasangiz, tug'ilgan yilingizni 12 ga bo'ling, shunda hosil bo'lgan qoldiq son sizning muchalingizni ko'rsatadi. Aytaylik, siz 1987-yilda tug'ilgansiz. Uni (1987 ni) 12 ga bo'lsangiz, 7 qoldiq qoladi. Demak, sizning muchalingiz quyon ekan. ("Bolalar ensiklopediyasi"dan)

Savol va topshiriqlar:

1. Talaffuzi va yozilishida farq bo'lgan so'zlarni ko'chirib yozing.
2. Odamlarning tug'ilgan yillarini hayvonlar nomi bilan atash odati, sizningcha, qanday kelib chiqqan bo'lishi mumkin?

O'ttiz oltinchi mashg'ulot

Qo'shib yozish

38. Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, surat, talab kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: qabulxona, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab kabi.

39. - (a)r (inkor shakli - mas) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmas kabi.

40. Takror taqlid so'zlarga qo'shimchalar qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi: pirpirak (pir-pir+ak), bizbizak (biz-biz+ak), hayhayla (hay-hay-la), gijgijla (gij-gij+la) kabi.

41. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan, bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: bir narsaga nisbatlash yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar: karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z kabi.

42. Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq kabi.

43. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar: kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo'ra, nosqovoq, ko'zoynak kabi.

44. Narsani joyga nisbatan berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul kabi.

45. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: kiriyuvdi, kelintushdi, qoryog'di, Urto'qmoq, Ochildasturxon kabi.

46. Qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga keladigan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi kabi.

47. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki obod so'zi bilan ifodalangan joy nomlari qo'shib yoziladi: Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzacho'l, Sirdaryo, Kosonsoy, Yangiobod, Xalqobod kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq kabi.

48. Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti kabi.

49. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo'shiladigan qo'shimchalar qo'shib yoziladi: SamDU, TDPU, O'zMUning kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: O'z XDP MK (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi) kabi.

50. Bir tovush ikki va undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko'rsatiladi: yo'o'q, nimaa, himm, ufffi kabi.

Qo'shib va ajratib yoziladigan qo'shma so'zlarni ikkita ustun shaklida ko'chiring. Imlosini tushuntiring.

Orom(baxsh), iskab(topar), erta(pishar), tez (pishar), atir(gul), pir(pir+ak), Shimoliy (Amerika), zavq(baxsh), osma(ko'prik), to'rt(burchak), har (kim), Issiq(ko'l), Nur(ali), Katta (qo'rg'on), O'rta (Osiyo), o'zbek(film), Qora(daryo), oq(oltin,) o'rin(bosar), Sora(opa), temir(yo'l), Yangi(ariq), Yangi (Farg'ona), Botir(aka), so'z (boshi), osh(xona), tavsif(noma), Markaziy(Amerika), men(bop), xush(surat), ham(xona), TATU(dan), oyna(ko'rsatar), kam(gap), havo(rang), umum(jamoa), issiq(mijoz), obro'(talab), karnay(gul), O'z(LiDP), osh(qovoq), sher(yurak), osh(qozon), tom(orqa), sakson(bir), baqa (terak), oq(tepa), ko'k(qarg'a), soch(siypatar), osh(taxta), bir(pas), bir(yo'la), yurt(boshi), shirin(so'z), Katta(Xorazm), hech (qanday), kino(teatr), tok(qaychi), foto(apparat), yarim(tayyor), tele(boshlovchi), Bux(DU), yuz(ochar).

Matnni o'qing.

Hikoyat

Kunlardan bir kun qurbaqa anhor bo'yiga suvdan sakrab chiqsa, uyasidan chiqib turgan sichqon salom beribdi, qurbaqa alik olibdi. Ikki orada do'stlik paydo bo'libdi. Sichqon do'sti bilan suhbatlashib turgisi kelarkan. Ammo qurbaqa suvga sho'ng'ib ketaverarkan.

– Men sen bilan chaqchaqlashib yurgim keladi. Sen bo'lsang bir soniya suhbatlashmasdanoq suvga tushib ketaverasan, – debdi sichqon o'pkalab.

– Unday bo'lsa, uzun ip topaylik-da, bir uchini sening belingga, ikkinchi uchini esa, mening belimga bog'lab qo'yaylik, qachon kerak bo'lsam, ipni tortsang, chiqib kelaveraman, – maslahat beribdi qurbaqa.

Shunday qilishibdi ham. Ittifoqo bir kuni sichqon uyasidan chiqib, oftobda toblanib yotgan ekan, uchib borayotgan lochin tappa changallab, osmon-u falakka ko'tarilibdi. Ipning ikkinchi uchida qurbaqa ham jon hovuchlab borarkan. Nodon va nojins do'stning aqlsiz maslahati ikkovini ham ovchi domiga giriftor etibdi.

(Jaloliddin Rumi)

Savol va topshiriqlar:

1. Matn ichidagi soʻzlardan foydalanib qoʻshma soʻzlar hosil qiling.
2. Bu hikoyada doʻstlikka sadoqat ham, nomunosib doʻstlikning ayanchli natijasi ham badiiy obrazlar orqali koʻrsatib berilgan... (tahlilni davom ettiring)
3. Quyidagi gaplarni davom ettiring.
Agar doʻsting nodon boʻlsa...
Agar doʻsting dono boʻlsa...
Agar doʻsting kasal boʻlsa...
Agar doʻsting safarda boʻlsa...

Oʻttiz yettinchi mashgʻulot

Chiziqcha bilan yozish

51. Juft soʻz va takror soʻz qismlari chiziqcha bilan yoziladi: el-yurt, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-toʻrt, oʻn-oʻn beshta (10-15ta), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldab, oʻylab-netib, soʻramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming(ming-minglab), bitta-bitta(bitta-bitalab), baland-baland, chopa-chopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan kabi.

Eslatma:

juft soʻzdan qoʻshimcha yordamida yasalgan soʻzlar ham chiziqcha bilan yoziladi: baxt-saodatli, xayr-xoʻshlashmoq kabi.

juft soʻz qismlari orasida –u (yu) bogʻlovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qoʻyiladi va juft soʻz qismlari ajratib yoziladi; doʻst-u dushman (doʻst-dushman), kecha-yu kunduz (kecha-kunduz) kabi.

3) yetakchi va koʻmakchi feʼl bir xil shaklda boʻlsa, chiziqcha bilan yoziladi: yozdi-oldi, borasan-qoʻyasan, uxlabman-qolibman kabi.

52. Belgini kuchaytiruvchi qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, toʻppa-toʻgʻri, bab-baravar kabi soʻz shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin oppoq soʻzi qoʻshib yoziladi).

53. Soʻzning -ma, -ba yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: koʻchama-koʻcha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday soʻzlar qoʻshib yoziladi: roʻbaroʻ, darbadar kabi.

54. Rus tilidan aynan yoki soʻzma-soʻz tarjima qilish yoʻli bilan olingan soʻzlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: unter-ofitser, kilovatt-soat kabi.

55. -chi, -a(ya), -ku, -u(yu), -da, -e, -ey(-yey) yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qo'y-e, yashang-e, o'g'lim-ey, keldi-yey kabi. Ammo -mi, -oq, (-yoq), -yov, -gina, (-kina, qina) yuklamalari o'zidan oldin kelgan so'zga qo'shib yoziladi: keliboq, o'ziyoq, ko'rganov, ko'rdiyov, mengina, qo'shiqqina kabi.

56. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, -nchi qo'shimchasi o'rniga chiziqcha (-) qo'yiladi: 7-sinf, 5-"A" sinfi, 3-,7-,8-sinf o'quvchilari, 60-yillar, 1991- yilning 1-sentabri kabi. Tartib sonni ko'rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: XX asr, X sinf kabi.

Quyidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing va ularning imlosini tushuntiring.

Yosh-yalang, patir-putur, aka-uka, yakka-yu yagona, tez-tez, onda-sonda, qo'y-e, ko'm-ko'k, 2-kurs, o'ldi-qoldi, ayta-ayta, oldi-berdi, top-toza, yonma-yon, vitse-prezident, men-chun, akam-chi, 2010-yil, 90-yillar, xotin-qizlar, tomma-tom, do'st-u yor, darbadar, qo'ni-qo'shni, ro'baro'.

Matnni o'qing.

Garmsel

Qaynoq garmsel har quturganda, shaharcha quyuk to'zon ichida qoladi.

U biydek dashtning qoq kindigida bo'y rostlagan bu shaharchani yer yuzidan supurib tashlamoqqa ahd qilgandek, to'lg'onib, yulqinib, quyun uyurib esadi. So'ng shiddati andak susaygandek bo'ladi-da, tag'in yangidan kuch olib, ko'p qavatli qizg'ish g'ishtin uylar-u ko'kka nayzadek sanchilgan quvuridan kun-u tun ko'kish-qoramtir tutun arimaydigan korxonaning katta-kichik, baland-past binolarini qaynoq nafasi bilan yalab, shahar ko'chalari bo'ylab och bo'riday izg'irkan, o'tkinchilarning yuz-u ko'ziga qum sochgani yetmagandek, qandaydir mo'jiza bilan omon qolgan yo'l bo'yidagi yakkam-dukkan daraxtlarga yopiriladi, ular vujudidagi oxirgi namlikni so'rib olish payida kuyib-pishadi.

Garmsel azaldan yashil rangni yomon ko'radi.

Dasht sap-sariq.

Shaharcha ham shu tusda.

Daraxtlar esa yashil dog'dek juda xunuk ko'rinadi ko'ziga.

Yashil rangga esa, singlisi – sarin yel o'ch. U ko'klamda uyg'onib, saratongacha dashtda javlon urarkan, borliqqa bahor nafasini ufuradi. Bu paytda qaynoq garmsel qirning gadoytopmas biror o'ngirida biqinib yotadi. Havo qizib, sarin yel olisdagi tog'lar bag'ridagi archazorga chekinish bilan garmselga jon kiradi. Tushov uzgan ayg'irdek irg'ishlaydi. Maysalarni quritib chechaklarni qaqshatib, shunday quturadiki, uning o'tli nafasidan yashil borliq sarg'ish tus oladi. Ko'cha bo'ylaridagi ariqchalar qurib o't-o'lanlar xas-xashakka aylanadi. Qisqasi, akasi – kuz shamoli qo'zg'olgunga qadar u dashtda tanho hukmron – yashil tusda neki bor, barini quritib mahv etmoqqa urinadi.

Har yili shu hol, shu ahvol.

Biroq bu safar shunday bir sinoat yuz berdiki, tongdanoq yer-u ko'kka otash purkab kelayotgan garmsel hayratdan bir lahza dong qotdi. Qaynoq nafasi ichiga urib, bir qalqib tushdi. So'ng ko'zlariga ishonmay, aylanib-o'rgilib boqdi.

Yo'q, ko'zlari aldamagan.

Shaharchaga kiraverishdagi to'rt qavatli binoning chap qanotida, oppoq harir parda tutilgan eng quyi deraza tagidagi kaftdek yerda bir necha tup atirgul chamanday ochilib turardi.

Qip-qizil!

Shaharchaga xos bo'lmagan hol edi bu.

Sarin yelning erkasi bo'lmish bu gullar, o'zlariga ne balo ko'z tikib turganidan mutlaqo bexabar, tong nurlarini xushnud qarshilamoqda edi. Garmsel ularning bu navozishidan qah-qah urib kuldi. Qaynoq nafas urib kuldi. Oqibat, kechga tomon atirgul yaproqlari shalvirab tushdi.

U tantana qildi.

Ammo ertasi gullarni tiyrak holda ko'rib, taajjubdan garmselning esi og'ib qolayozdi. Bu jumboqning tagiga yetmoq niyatida, chir aylanarkan, tongda va tunda gullar sug'orilganini payqadi. Bildiki, atirgullar dashtdagi himoyasiz chechak emas, mehriboni bor ularning.

Qaynoq garmsel shundagina ilk bor kishi xonasiga mo'ralamoq istagini tuydi. Oppoq to'shakda pish-pish uxlayotgan qizchasi tepasida xayolchan o'tirgan xushro'y juvonga ko'zi tushdi. Negadir g'amgin edi u. Shaharchaga begona, garmsel ilgari uni hech uchratmagan. Yotligi – shaharcha ahliga xos loqaydlik yo'q edi chehrasida. Turish-turmushidan nafosatga moyilligi sezilib turardi. Hayotga tashna, o'z navbatida g'oyat ma'yus edi.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Matndagi chiziqcha bilan yozilgan so'zlarni daftaringizga ko'chiring.*
- 2. Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.*
- 3. “Yomg'irdan so'ng”, “Qishning izg'irin kunida”, “Shudring” mavzularidan birida jajji hikoya yozing.*

O'ttiz sakkizinchi mashg'ulot

Ajratib yozish

57. Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: sarf qil, ta'sir et, tamom bo'l, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma kabi.

58. Ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'ldan ajratib yoziladi: aytib ber, olib ko'r, so'rab qo'y, ko'ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish kabi. Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qismlar qo'shib yoziladi: aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan) kabi.

59. Ko‘makchilar ajratib yoziladi: shu bilan, shu uchun, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo‘yi kabi. Lekin bilan ko‘makchisining -la shakli, uchun ko‘makchisining -chun shakli chiziqli bilan yoziladi: sen-la, sen-chun kabi.

60. Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o‘sha, so‘zlari o‘zidan keyingi yoki oldingi so‘zdan ajratib yoziladi: hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, shu yoqdan, o‘sha yoqqa kabi. Lekin birpas, biroz, birato‘la, birvarakayiga, birmuncha, buyon so‘zlari qo‘shib yoziladi. Shuningdek, qay so‘zi yoq, yer so‘zlari bilan ishlatilganda, bir u tovushi tushsa, bu so‘zlar qo‘shib yoziladi: qayoqqa, qayerda kabi.

61. Sifat oldidan kelib belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan to‘q, jiqqa, tim, liq, lang, och kabi so‘zlar ajratib yoziladi: to‘q qizil, jiqqa ho‘l, tim qora, liq to‘la, lang ochiq, och sariq kabi.

62. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: o‘n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi kabi.

63. Yildan yilga, tomdan tomga kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo‘nalish kelishigida bo‘lgan birikmalar ajratib yoziladi.

64. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi ko‘pdan ko‘p, tekidan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi kabilar ajratib yoziladi.

65. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so‘zlarga i shaklida, unli bilan tugagan so‘zlarga yi shaklida qo‘shiladi: dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so‘zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o‘zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so‘zlar qo‘shib yoziladi: gulbeor (guli beor), dardisar kabi.

Matnni o‘qing.

* * *

Tug‘ilmasdan to...

Uyingizga mehmon kelgan. Ziyofat qilyapsiz. Hovlingizning bir chetida kabob pishyapti... Ayolingiz sekin kelib, qulog‘ingizga shipshuydi. “Dadasi, kabob tarqatishdan oldin ikki sixini ajratib qo‘ying: Qo‘shnining kelini boshqorong‘i...” deydi.

Buning otini nima deyish kerak? Buning oti inson bolasi tug‘ilmasdanoq mehrga muhtoj bo‘ladi, bir-biringizdan mehrni ayamang, degani bo‘ladi.

Arzimagan bahona bilan ikki kishi g‘ijillashib qoldi. Unisi ham o‘zicha xaq, bunisi ham. Indamay tursangiz, janjal kattalashib ketadigan. Shunda esli bir odam o‘rtaga tushib: “hay-hay-hay, tobutkashsizlar-a, baraka topkurlar, bir gapdon qolinglar”, deydi. Yonib turgan olov o‘sha zahoti o‘chadi.

Buning otini nima deyish kerak? Buning oti inson hayotdan ko‘z yumganidan keyin ham mexrga muhtoj bo‘ladi, bir-birlaringdan mehrni ayamanglar, degani bo‘ladi.

Buning oti O‘zbek udumi, O‘zbek mentaliteti, deyiladi! (*O‘tkir Hoshimov*)

Savol va topshiriqlar:

1. Yuqoridagi matndan ataylab xato yozilgan soʻzlarni belgilang. Ular ishtirokida mustaqil gaplar tuzing.

Oʻttiz toʻqqizinchi mashgʻulot

Bosh harflar imlosi

66. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: Dilbar, Oʻrinova Muhabbat Majidovna, Azamat Shuhrat oʻgʻli, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif Soʻfizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat; Yelpigʻichxon, Salomjon Alikov kabi.

67. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: Andijon, Yangiyoʻl (shaharlar), Naymancha, Buloqboshi (qishloqlar), Bodomzor, Chigʻatoy (mahallalar), Zavraq (dara), Yorqoq (yaylov), Qoratogʻ, Pomir (togʻlar), Oqtepa, Uchtepa (tepalar), Zarafshon, Sidaryo (daryolar), Yoyilma (kanal); Turkiya, Hindiston (mamlakatlar) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum kabi.

68. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: Hulkar, Qavs, Mirrix (yulduz va sayyoralar nomi), Tinchlik dengizi (Oydagi relyef nomi) kabi. Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi boʻlib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi.

69. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va sanʼat asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qoʻyilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: “Tong” (mehmonxona), “Saodat” (firma) “Navroʻz” (xayriya jamgʻarmasi), “Kamalak” (matbaa birlashmasi), “Gʻuncha” (bogʻcha), “Botanika” (sanatoriy) “Paxtakor” (stadion), “Dilorom” (opera), “Tanovar” (kuy), “Kecha va kunduz” (roman), “Ozodlik” (haykal), “Jasorat” (yodgorlik), “Sino” (sovutgich) kabi.

70. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navroʻz bayrami kabi.

71. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir soʻz bosh harf bilan boshlanadi: Oʻzbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi: Bosh vazirning oʻrinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, Oʻzbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: Sogʻliqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qoʻmitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti kabi.

72. Davlatning oliy darajadagi mukofoti nomi tarkibidagi har bir soʻz bosh harf bilan boshlanadi.: “Oʻzbekiston Qahramoni” (unvon), “Oltin Yulduz” (medal). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi: “Sogʻlom avlod uchun” (orden), “Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi” (faxriy unvon), “Matbaa aʼlochisi” (nishon) kabi.

73. Gapning birinchi soʻzi bosh harf bilan yoziladi: Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim (O. Yoqubov).

Eslatma:

1) koʻchirma gapdan keyin kelgan muallif gapning birinchi soʻzi (agar u atoqli ot boʻlmasa) kichik harf bilan yoziladi: “Bu men”, - qoʻrqibgina javob berdi koʻlaga (O. Yoqubov);

2) xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziq qoʻyiladi va ular kichik harf bilan yoziladi:

Maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ishni koʻrishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:

- mazkur ishni koʻrib chiqish uning huquq doirasiga kirish-kirmasligini;

- maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi protakol va ishga oid boshqa materiallar toʻgʻri tuzilgan-tuzilmaganligini... hal qiladi;

3) gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qoʻyib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:

Hozirgi oʻzbek adabiy tilining lugʻat boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan: 1) umumturkiy soʻzlar; 2) oʻzbekcha soʻzlar; 3) tojik tilidan kirgan soʻzlar; 4) arab tilidan kirgan soʻzlar; 5) rus tilidan kirgan soʻzlar (“Oʻzbek tili” darsligidan).

74. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot boʻlmagan baʼzi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: AQSH (Amerika Qoʻshma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi) kabi.

Qisqartma tarkibida boʻlinga teng qism boʻlsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: ToshDTU (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi.

Quyidagi misollardagi xato oʻrinlarni toping. Ularni tuzatib daftarga koʻchiring:

azamat shuhrat oʻgʻli, Muhammadsharif Soʻfizoda, mannon Otaboy, Muqimiy, Fitrat; Andijon, naymancha, Buloqboshi, Chigʻatoy, Qoratorogʻ, pomir;

hulkar, mirrix; xotira kuni, Ramazon hayiti; yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi.

Qirqinchi mashg'ulot

Ko'chirish qoidalar

75. Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi: to'q-son, sifat-li, si-fatli, pax-takor, paxta-kor kabi. Tutuq belgili so'zlarda bo'g'in ko'chirishda tutuq belgisi oldingi bo'g'inida qoldiriladi: va'-da, ma'-rifat, mash'-al, in'-om, kabi.

76. So'zlarning bosh yoki oxirgi bo'g'ini bir harfdan iborat bo'lsa, ular quyidagicha ko'chiriladi:

1) so'z boshidagi bir harfdan iborat bo'lgan bo'g'in yolg'iz o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi: a-badiy emas aba-diy; e-shikdan emas eshik-dan kabi;

2) so'z oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingi satrga ko'chirilmaydi: mudofa-a emas mudo-faa; matba-a emas mat-baa kabi;

77. O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'shiriladi; dia-gramma, mono-grafiya;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: silin-drik kabi.

78. Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko'chiriladi: pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz kabi.

79. Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'p xonali raqamlar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi: AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi: 5-“A”sinf, V “B” guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm kabi.

81. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi: “Navro'z-92” (festival), “O'qituvchi-91” (ko'rik-tanlov), “Andijon-9”, “Termiz-16” (g'o'za navlari), “Boing-767” (samolyot), “Foton-774” (televizor) kabi. 82. A.J.Jabborov, A.D.Abduvaliyev kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek, v.b (va boshqalar), sh.k (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

Matnni ifodali o'qing.

PORTRET

Tasviriy san'atning keng tarqalgan janrlaridan biri portretdir. «Portret» fransuzcha tasvirlash so'zidan olingan bo'lib, mavjud bir shaxs yoki guruh kishilarning tasvirini anglatadi. Asardagi obrazning asliga o'xshashligi portretning asosiy mezonidir. Bunda tashqi o'xshashlikdan tashqari uning ruhiyati, ma'naviyati, shaxsi, davri ham yoritiladi, unda, shuningdek, muallifning qarashi ham o'z ifodasini topadi. Portretning tarixan keng va ko'p turlari shakllangan; ijro usuli, vazifasi, tasvirlanayotganlarning o'ziga xosligiga qarab dastgohli (kartina, byust, grafika varaqalari) va mahobatli (freska, mozaika, haykallar), tantanavor va o'ta nozik, ko'krakkacha, bor bo'yiga, yon tomondan tasvirlangan kabi turlari farqlanadi. Rassom yoki haykaltarosh naturadan yoki esdaliklar, xotiralar asosida arxiv materiallariga tayanib portret yaratishi mumkin. Shuningdek, kishilarning bosh suyaklarini ilmiy o'rganib portret yaratish usuli ham ishlab chiqilgan. Amir Temur, Shohruh, Ulug'bek, Rudakiy portretlari shu uslubda yaratilgan.

Portretlar qadimdan tanga, nishon, muhrlarda keng tarqalgan. Qadimgi Yunoniston va Rimda bu janr yuksaklikka erishgan, haykaltaroshlik va rangtasvirda birday rivojlangan. Sharqda din hukmronligi portretning rivojiga to'sqinlik qildi. Behzod (Shayboniyxon, 1507), Mahmud Muzahhib (Alisher Navoiy, XVI asr boshlari) kabi mo'yqalam ustalari qo'lyozma kitoblarga chizgan asarlar orasida ham portret namunalari bor(160 cŷ3).

Savol va topshiriqlar:

1. Bo'g'inga noto'g'ri ajratilgan so'zlarni toping. Ularni izohlang.
2. Bo'g'inga ajraladigan, ammo ko'chirilmaydigan so'zlarni aniqlab, daftaringizga yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Qirq birinchi mashg'ulot

Gap.

Kesimlik shakllari orqali ifodalanuvchi, ohang va fikr tugalligiga ega bo'lgan so'z yoki so'zlar qo'shilmasi gap deyiladi. U biror voqea-hodisa haqidagi xabar, so'roq, buyruq yoki istakni bildiradi. Gap tarkibidagi so'zlar ham ma'no tomondan, ham grammatik tomondan o'zaro bog'lanadi. Har bir gap biror maqsadni – mazmunni ifodalaydi. Og'zaki nutqda ana shu mazmunga mos keladigan tugal ohang bo'ladi. Ohang ayni bir vaqtda gaplarni bir-biridan ajratib ham turadi. Ohang va kesimlik gap uchun eng muhim belgilardir. Yozma nutqda ana shu ohangga qarab har bir gap oxiriga nuqta, so'roq, undov yoki ko'p nuqta qo'yilishi mumkin.

So'z	Gap
Qish, qor, oppoq, qoplanmoq	Qish. Hamma yoq oppoq qor bilan qoplangan.

Maqsad,erishish, bilim, ishchanlik	Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun bilim qatori o‘sha darajada ishchanlik ham kerak.
------------------------------------	--

Gaplar ifoda maqsadiga ko‘ra to‘rt xil (darak, so‘roq, buyruq, istak) bo‘ladi.

Darak gap	Harakatchan kishilar, odatda, omadli bo‘ladilar.
So‘roq gap	Sen general bo‘lishni istamaysanmi?
Buyruq gap	Tungi soqchilikda sergak bo‘l.
Istak gap	Qani endi, dunyodagi barcha bolalar baxtli bo‘lsa.

Savol va topshiriqlar:

- 1.To‘rtta darak gap tuzing. Tuzgan gaplaringiz harbiy daraja va unvonlar bilan bog‘liq bo‘lsin.
- 2.Bu gaplarni so‘roq, buyruq va istak gaplarga aylantiring.
- 3.Quyidagi gaplarni ko‘chiring.

I. Biron-bir ishni bajarmayman deb ko‘ngilga keltirdingizmi, shu paytdan boshlab uni amalga oshirish siz uchun g‘oyat mushkul bo‘lib qoladi. (*B. Spinoza*) Ikkilanish, kuchni yo‘qotish demakdir. (*O. Balzak*) Yutuq aksariyat dadil harakat qiluvchilarga nasib etadi, jur‘atsiz, hadeb oqibatini o‘ylayveradigan kishilarning esa ishi chappasidan ketadi. (*J. Neru*) Istakning o‘zi yetarli emas, harakat qilish kerak. (*I. Gyote*) So‘z hamisha ishga nisbatan botirroq bo‘ladi. (*F. Shiller*)

II. Sen bahorni sog‘inmadingmi? (*A. Oripov*) Dedi: qaydinsen, ey majnuni gumrah? (*A. Navoiy*) Dezdemon, men senga bergan ro‘molcha qani? (*V. Shekspir*) Yaxshi ho‘kiz birov yetaklasa, ketaveradimi? (*A. Qahhor*)

III. Ayrimlas qo‘shningga uyatli so‘z aytma.

Dindan chiqsang ham, eldan chiqma.

Dushmanni yengmoqchi bo‘lsang,

do‘stingni ehtiyot qil.

Avval o‘z aybingni bil, so‘ngra boshqadan kul.

Bolta bo‘lsang – ur,

Kunda bo‘lsang – chida.

IV. Orzum shul: o‘chmasin yongan chirog‘ing. (*A. Oripov*) Ey Vatan! Polvonlaring bor bo‘lsin! Uyg‘oq bo‘lsin! (*Y. Eshbek*) Bizning loyihimiz tanlovda yutib chiqsa. (*O. Yoqubov*) Sochlari oq, xasta bo‘lsa ham, orangizda onam bo‘lsaydi... (*Qo‘shiqdan*)

1. Quyidagi soʻzlar ishtirokida gapning ifoda maqsadiga koʻra turlarini hosil qiling:

Insoniyat, yoʻllar, borsa, yagona, har bir, xalq, tarz, jami, oʻz, ulush, iborat, faqat, fikrlash, narsa, munosabat, din, til, muhim, muammo, maʼnaviy, tosh, isbot, sheʼriyat, singil, aql, ota, baliq, tuproq, egallamoq, teri, qizil, oʻchoq, vatan, yoʻlbars, yashil, sen, maʼlum, juda, bilim, qurbaqa, bir, malol, bogʻ, lazzat, koʻz, soat, ilm, kecha, ibodat, dars, hamma, dil, savol, kitob, kerak, yurmoq, sekin, koʻp.

2. Endi tuzgan gaplaringizni soʻroq gaplarga aylantiring. Namuna:

Mehnat bizning zamonda buyuk huquq va buyuk burchdir. –
Nima bizning zamonda buyuk huquq va buyuk burch boʻladi?
Mehnat bizning zamonda buyuk huquq va buyuk burchmi?
Mehnat bizning zamonda buyuk huquq va buyuk burchdir?

Darak, soʻroq, buyruq, istak gaplar egali va egasiz, yigʻiq va yoyiq, sodda va qoʻshma gaplar shaklida boʻladi.

Gaplar grammatik asoslar miqdoriga koʻra ikki turga boʻlinadi: sodda va qoʻshma gaplar.

Sodda gaplar	Qoʻshma gaplar
Ota – oila ustuni. Qaramaysiz? Qatortol qishlogʻiga ilk bahor keldi. (A.Qahhor) Jaloliddin Manguberdi moʻgʻul bosqinchilariga qarshi kurashda jasorati tufayli buyuk vatanparvar va milliy qahramon sifatida Sharq-u Gʻarbda dong taratdi. (B.Ahmedov) Eli baquvvatning beli baquvvat. (Maqol) Soddalik goʻzallikning birinchi va zarur shartidir. (Lev Tolstoy) Toleim jahonda bir guliston tanlaganimdir. (H. Olimjon) Izlangan, abatta, maqsadiga erishadi. Turnalar argʻimchogʻi gʻira-shira osmon ortiga-bulutlar bagʻriga singiydi. (X.Eshonqulov)	Umr oʻtar, vaqt oʻtar, xonlar oʻtar, taxt oʻtar... (O. Matjon) Noqobilga tarbiyat qilmak hayf va qobilga tarbiyat qilmamak zoyedir. (Alisher Navoiy) Shabnam tomar, oʻrmon shuvillar, bulbullar yigʻlar. (M. Jalil) Kimki koʻzi ojiz odamni qirq qadam yetaklagan boʻlsa, uning jannatga kirishi aniqdir. (Hadis) Aql – eskirmas kiyim, bilim boʻlsa tuganmas buloqdir. (Maqol) Majlis vaqtida boshlanmadi, chunki rais ushlanib qoldi. (O. Muxtor) Men osmonga uzatganda qoʻl, sayyoralar qoʻnar kaftimga. (E. Vohidov)

Gaplar his-hayajonning ishtirokiga koʻra ikki turga boʻlinadi: his-hayajonsiz gaplar, his-hayajon (undov) gaplar. Darak, soʻroq, buyruq va

istak gaplar his-hayajonsiz gaplardir. Agar bu gaplar kuchli his-hayajon bilan aytilsa, undov gapga aylanadi.

	His-hayajonsiz gap	His-hayajon gap
Darak gap	Ertaga maktabimizga san'atkorlar keladi.	Ertaga maktabimizga san'atkorlar keladi!
So'roq gap	Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?	Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?!
Buyruq gap	Meni xafa qilgingiz kelmasa, u yerga bormang.	Meni xafa qilgingiz kelmasa, u yerga bormang!
Istak gap	Koshki, onamni qayta ko'ra olsam.	Koshki, onamni qayta ko'ra olsam!

Imlo belgilari

Hozirgi yozma adabiy tildagi imlo belgilari so'zlarning to'g'ri yozilishida xizmat qiladigan belgilar sanaladi. Ular quyidagilar:

1. (') Ko'chish (o'tish) belgisi – bosma o' va g' harflarini o va g harflaridan farqlash uchun yoziladi, yozma shaklda esa harfning tepasiga (~) to'liqinsimon chiziq chizish bilan ifodalanadi: O'zbekiston, G'afur G'ulom, mo'jiza, g'uncha.

2. (') Tutuq belgisi (apostrof):

a) ba'zan, ma'yus, ta'zim, ra'y, ta'b, e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l, Nu'mon, shu'la kabi o'zlashma so'zlarda unlidan keyin shu unli tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi; mo'jiza, mo'tabar, mo'tadil kabi so'zlardagi o' unlisi cho'ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi;

b) in'om, san'at, qat'iy, mas'ul kabi o'zlashma so'zlarda unlidan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi;

d) s va h harflari yonma-yon kelib, alohida tovushlarni ifodalaganda, ular orasiga tutuq belgisi (') qo'yiladi: Is'hoq, as'hob, mas'h, as'har.

3. (-) chiziqcha (defis):

a) juft va takror so'zlar orasida: ota-ona, asta-sekin, baland-baland, shu-shu;

b) tartib sonlar arab raqami bilan yozilganda -(i)nchi qo 'shimchasi o'rniga chiziqcha qo'yiladi: 9-sinf, 1989-yil, 1-oktabr, 30-yillar;

d) ayrim yuklamalar chiziqcha bilan yoziladi: -chi, -ku, -da, -a, -ya, -u, -yu, -e, -ey, -yey. Masalan, bola-ya, kelgan-u, qo'y-e, keldi-yey;

e) bilan, uchun ko'makchilarining qisqargan shakllari (-la, -chun) chiziqcha bilan yoziladi: sen-la, men-chun va hokazo.

4. (') urg'u:

a) soʻzdagi biror boʻgʻin kuchliroq ohang bilan talaffuz qilinganda qoʻyiladi: qishloʻq, bolaʻ, haʻmma, teʻxnika.

b) urgʻu maʼno farqlash vazifasini ham bajaradi: aʼtlas(xaritalar toʻplami) – atlaʼs (mato), gullaʼr (manzarali oʻsimlik) – guʼllar (gullamoq), olmaʼ (daraxt va uning mevasi) – oʻlma (olmoq).

Tinish belgilari

Hozirgi yozma adabiy tilda 10 ta tinish belgisi qoʻllanadi: nuqta (.), soʻroq belgisi (?), undov belgisi (!), koʻp nuqta (...), qavs (), qoʻshtirnoq („“), vergul (,), nuqtali vergul (;), ikki nuqta (:), tire (–).

Tinish belgilarini qoʻllash qoidalarining asoslari

Maʼlum bir maqsad, fikr ogʻzaki nutqda maʼlum bir ohang bilan, yozuvda esa gapning grammatik qurilishi va tinish belgilari orqali ifodalanadi. Tinish belgilari fikrni, maqsadni yozuvda koʻrsatishda qoʻshimcha, ammo zaruriy vositadir. Soʻzlovchining maqsadini tinish belgilari orqali bilib olamiz:

Onam keldi. Onam keldi! Onam keldi?

Bu uch gapdagi xabar, his-hayajon, soʻroq mazmuni gaplardan soʻng qoʻyilgan tinish belgilari orqali bilinadi.

Tinish belgilari mazmun, ohang va gapning grammatik qurilishiga koʻra qoʻllanadi:

1. Mazmun. Ifodalanmoqchi boʻlgan mazmun tugallangan boʻlsa, *nuqta, undov* yoki *soʻroq belgisi*, koʻp nuqta qoʻyiladi. Masalan:

—*Oʻzimiz institut ochyapmiz, bilib qoʻy...*

—*Institut?*

—*Institut! (Asqad Muxtor)*

Oʻzgalarning gapi boʻlsa, qoʻshtirnoqqa olinadi:

“Ertaqa sinovlar boshlanadi”, – dedi oʻqituvchimiz.

Gaplar orasidagi mazmun munosabatlari qoʻshma gaplarda *ikki nuqta, tire, vergul* yoki *nuqtali vergul* orqali ifodalanadi.

Tugallanmagan yoki izohtalab tushunchalar koʻp nuqta yoki qavslar orqali ifodalanadi.

2. Grammatik qurilish. Ayrim tinish belgilari gapning grammatik tuzilishiga koʻra qoʻllanadi. Masalan, ega bilan kesim orasida *tire* qoʻyilishi yoki qoʻyilmasligi maʼlum grammatik qoidalar asosida belgilanadi.

Ayrim ergash gaplar oʻz tuzilishiga koʻra vergul bilan ajratiladi. Masalan, *Yoʻlchi, qancha aqchasi boʻlsa ham, berishga tayyor edi. (Oybek)* Bu jumladagi *qancha aqchasi boʻlsa ham* tobe gap boʻlgani uchun bosh gap orasida toʻxtalish (pauza) boʻlmasa ham, undan soʻng vergul qoʻyiladi.

3. Ohang. Ohang fikr, maqsadning ogʻzaki nutqdagi ifodasidir.

Har bir tinish belgisi oʻziga xos ohangga ega boʻladi: undov, soʻroq belgisi, koʻp nuqta va nuqta – tugallangan ohang bilan; qoʻshtirnoq, qavs kichik toʻxtalish

bilan, ajratilgan ohang bilan; ikki nuqta, tire – izoh ohangi bilan; vergul, nuqtali vergul kichik to‘xtalish ohangi bilan talaffuz qilinadi.

Ayrim tinish belgilari ohang talabi bilangina qo‘yiladi:

Qush mag‘rur – qanoti bo‘lgani uchun,

Tog‘ mag‘rur – savlati bo‘lgani uchun. (Hasan Po‘lat)

Bu jumlada tire ohang talabi bilan, birinchi gaplarning ma‘nosiga diqqatni jalb etish talabi bilan qo‘yilgan.

Vatanimiz – kelgusida buyuk davlat bo‘ladi. Bu jumlada kesim egaga bo‘ladi bog‘lamasi bilan birikkani uchun egadan so‘ng tire qo‘yilmasligi kerak edi. Ammo ega mantiqiy urg‘u olgani uchun undan so‘ng tire qo‘yilgan.

ILOVALAR

HIKMAT GULISTONI

O‘TKIR HOSHIMOV HIKMATLARI

20 SAVOLGA 20 JAVOB

– Eng yaxshi hunar qaysi?

– Mehnatning aybi yo‘q, hunarning yomoni yo‘q. Ammo hunarlar orasida eng yaxshisi – dehqonchilik. Hazrat Navoiy don sepib rizq undiruvchi dehqonni Odam Atoga qiyoslagani bejiz emas. Bu kasbda ilohiyotga aloqadorlik bor. Dehqonning qo‘li ketmonda, ko‘zi osmonda bo‘ladi...

– Har bir xalqning o‘ziga xos xususiyatlari – mentaliteti bo‘ladi. Bizning xalqimizga xos fazilatlar va malol kelmasa, ayrim “mundayroq” jihatlar haqida nima deya olasiz?

– O‘zbek xalqining jahonga ko‘z-ko‘z qilgulik yuzlab fazilatlar bor. Birgina misol. Qadimda ota-bobolarimiz farzandlariga shunday deb o‘git bergan. “Hech qachon o‘choqboshingni qo‘shnining devoriga taqab solma. Taom pishirayotganingda chiqqan tutun qo‘shnining ko‘zini achitsa, yegan ovqating harom bo‘ladi!” Shu udumning o‘zida naqadar teran ma‘no bor! Insof, andisha, o‘zaro hurmat-ehtirom, mehr, oqibat, kamtarlik...

Siz aytayotgan “mundayroq” jihatlarimizga kelsak... Albatta, o‘z xalqining ayrim kamchiliklari haqida gapirish o‘z onasiga iddao qilishga o‘xshaydi. Lekin bunday kamchilikdan o‘zimiz ham “benasib qolmaganimiz”ni tan oladigan bo‘lsak boshqalar ranjimaydi deb umid qilaman.

Bu ham qadimdan qolgan hangoma-da. Bir kuni Afandi eshigining tagiga chiqib nos cheke-e-eb o‘tirs, qo‘shnisi hovliqib kep qopti.

–Mulla Nasriddin, mulla Nasriddin, – debdi hansirab. – Ko‘cha boshida bir arava kelyapti. Ichi to‘la noz-ne‘mat, sovg‘a-salom...

Menga nima? – debdi Afandi nosini tupurmay.

Iye, qiziqmisiz? – debdi qo‘shnisi. – O‘sha sovg‘a-salomlarni hokim buva sizga yuboribdilar!

–Unda senga nima? – debdi Afandi pinagini buzmay.

Afsuski, “senga nima, menga nima” degan loqaydlik kasali hammamizda ham ozmi-ko‘pmi bor.

– Keyingi paytlarda adabiyotda udum bo‘layotgan “modernizm”ga qanday qaraysiz?

– Ijod – izlanish demak. Modern esa yangilik degani. Ijoddagi har bir izlanishni ma‘qullash kerak. Hozir adabiyotda yigirmadan ortiq “izm”lar bor. Ularning har biri o‘z so‘qmog‘idan tog‘ning eng baland cho‘qqisiga chiqib borayotgan alpinistga o‘xshaydi. O‘sha cho‘qqining nomi Gumanizm deb ataladi. Zero, adabiyotning bosh vazifasi Insonni kashf etish. Cho‘qqiga kim yetib boradi, kim yarim yo‘lda qolib ketadi, bunisi Xudo bergan talantga bog‘liq.

– Eng katta armoningiz?

– Onam bilan suratga tushmaganim!

– Eng og‘ir gunoh nima?

– Ota-onani va go‘dakni xo‘rlash.

– Yozuvchining ijtimoiy burchi haqida...

– Tushundim. Haqiqiy ijodkor o‘z xalqining sodiq farzandi, sodiq posboni, sodiq xizmatkori, boringki... sodiq quli bo‘lmog‘i kerak!

– Qanday insoniy fazilatlarni qadrlaysiz?

– Halollik, samimiyat, rostgo‘ylik, kamtarlik, sadoqat.

– Qaysi illatlarni yomon ko‘rasiz?

– Nopoklik, ikkiyuzlamachilik, yolg‘onchilik, yaltoqilik, kalondimog‘lik, xiyonat.

– Ona mehri ota mehridan yuz chandon kuchli bo‘ladi, deyдилar.

– Unchalik emas. Ota mehri ona mehridan kam emas, “yashirinroq” bo‘ladi.

– O‘z fe‘lingiz tufayli aziyat chekkan paytlaringiz bo‘lganmi?

– So‘ramang! Qaysi biridan boshlay? Birinchidan, birov kamsitilayotganini ko‘rsam, chidolmay qolaman. Yetti yot begonani himoya qilaman deb, baloga qolaman. Ikkinchidan, o‘zim yolg‘ondan hazar qilganim uchun meni yosh bola ham bemalol aldashi mumkin. Uchinchidan, to‘g‘ri so‘zning “to‘qmog‘i” boshqalardan ko‘ra o‘z boshingni ko‘proq g‘urra qilishini bilsam ham shu yaramas odatni hech yo‘qota olmayman... Bir odamga shuncha nuqson yetarli bo‘lsa kerak?

– Qaysi asaringiz o‘zingiz uchun, ayniqsa, qadrli?

– Necha yil avval yozilganidan qat‘i nazar bugun ham kitobxonni hayajonga solayotgan, hayot haqida o‘ylashga undayotgan asarni. Ular qaysi kitob ekanini o‘quvchining o‘zi hal qiladi.

– “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” qayta-qayta nashr etilib, qo‘lma-qo‘l bo‘lib o‘qilyapti. Bu asarni qaysi janrga kiritgan bo‘lardingiz?

– Umuman, insonning, qolaversa ijodkorning tafakkuri bir lahza ham “bekor turmaydi”, muttasil fikrlaydi. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” – mening qariyb

yarim asr davomidagi o'ylarim, insonning buyukligi va ojizligi haqidagi kuzatuvlarim, xulosalarim... Ammo ular shunchaki birovga "aql o'rgatish" niyatidagi nasihatlar emas. Ularning har birini alohida "sintezlangan" asar deb atasa bo'ladi. "Bitiklar" kitobxonni hayajonga solsa, o'ylashga undasa, demak ularda tuyg'u bilan fikr uyg'unlashgan ekan...

Ya'ni bu – badiiy-falsafiy kitob. Uni qandaydir janr qolipiga solishni o'ylagan emasman. Nazarimda, buning kitobxon uchun ham ahamiyati yo'q.

– Siz farzandi uchun jon fido qilishga tayyor jafokash onalar haqida ko'p yozgansiz. Ayting-chi, ayollar orasida bolasini yetimxonaga tashlab ketayotganlar ko'payib bormayaptimi? Ikkinchi jahon urushida bizning oilalarimiz jangohlardan chiqib kelgan yuz minglab yetim bolalarni boqib olgan, so'nggi burda nonini ularga bergan. Hozir nega ba'zilar o'z bolasidan voz kechyapti?

– Har kim o'zidan o'tganini o'zi biladi. Ayol kishi biron musibatga yo'liqqan yoki noilollik tufayli shunday qilayotganini tushunish mumkindir. Ammo uchta bolani uchta erkakdan "ilashtirib", "tug'ish mendan, boqib olish davlatdan" deb farzandini yetimxonaga tashlab qochayotganlar Ona degan, Ayol degan unvonga loyiq emas! Bundaylarning millati ham, onalik mehri ham, ayollik ori ham yo'q! Bular jo'jasi xalaqit bermasligi uchun tuxumini inkubatorga topshirib, har kuni har xil xo'roz bilan "don olishadigan" tovuqqa o'xshaydi.

– Esimda, 1989-yili "Ikki eshik orasi" romaningiz 120 ming nusxada nashr etilib, bir yilga qolmay tarqalib ketgan edi. Holbuki, asar undan biroz avval 60 ming nusxada chiqib ular ham tez sotilgandi... Keyingi paytlarda kitob o'qish ancha kamayib ketyapti. Sababi?

Chindan ham o'tgan asrning saksoninchi yillarida she'riy kitoblar 60 ming, nasriy asarlar 90-120 ming nusxagacha bosilar va tezda tarqalib ketardi. (Albatta, yaxshi asar bo'lsa.) Keyingi yillarda kitobning "ommaviyligi" bir qadar kamaygani to'g'ri. Buning sababi yaxshi asarlar kam yozilayotganida emas. Sabablari ko'p. Qog'oz, plyonka, umuman, nashr xarajatlari qimmatlashgani uchun kitobning tannarxi ko'tarilgani, kitob savdosidagi ayrim nuqsonlar, masalan, boshlang'ich narxi ming so'm bo'lgan kitobni o'n chaqirim nariga olib borib, "erkin narxda" – ikki-uch ming so'mga pullashlar, bir marta o'qishga arang arziydigan "oldi-qochdi" "asarlar"ning "bolalab ketgani", "ko'ngil xushlik uchun" pulini oldindan to'lab qo'yib, kitob chiqaradigan **ramyeni** baquvvatlar paydo bo'lgani... Yana bir sabab. Bugungi yosh avlodning kitob o'qishdan ko'ra "osonroq", "qiziqarliroq" boshqa mashg'ulotlari ham oz emas. Qaysi ko'chaga kirmang, qaysi bekatga bormang, "internet klub"ga duch kelasiz. Albatta, internet yigirmanchi asrning eng buyuk ixtirolaridan biri. "Klub"ga kirib "ralli" yoki "boyevik" o'ynaydigan bolaning reaksiyasi tezlashadi, biroq aqli peshlanib qolmaydi. "Bolajon" "boyvachcha" ota-ona esa oltinchi sinfda o'qiydigan bolasiga "komputer o'yini uchun" har kuni 500 so'mini ayab o'tirmaydi. Bir soat o'yin uchun! Holbuki, ikki kunlik "o'yin"ga ketadigan pulni yig'sa, bitta yaxshi kitob olish mumkin. Internet o'yini bir soatga yarasa, kitob (albatta, yaxshi asar) bir yil, o'n yil, ehtimol bir umrga xizmat qilishi mumkin.

Demak, aybni o'zimizdan ham izlash kerak. Bir narsani mamnuniyat bilan aytishim mumkin. Keyingi paytda yoshlarning kitobga qiziqishi, badiiy asarni

tushunishi kuchayib borayotgani ko‘rinib turibdi. Demak, adabiyot o‘zining buyuk vazifasi – insonparvarlik missiyasini davom ettiraveradi!

– Eng muhim hayotiy prinsipingiz?

– Xudo yozganini bandasi o‘chirolmaydi. Xudo berganini bandasi tortib ololmaydi.

– Eng muhim ijodiy prinsipingiz?

– Xudo ko‘ngilga solmaguncha haqiqiy ijodkor qo‘liga qalam olmaydi.

– Tanqidga munosabatingiz?

– Tanqidni yong‘oqqa o‘xshataman. Chaqib ko‘raman. Mag‘zi to‘q bo‘lsa, mamnuniyat bilan qabul qilaman. Puch bo‘lsa, tupurib tashlayman.

– “Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q” degan iborani qanday sharhlagan bo‘lardingiz?

– Sharhlash shartmi? Tasavvur qiling. Oldimizdan oqqan suvga qo‘limizni chaysak chidaydi. Yuzimizni yuvsak chidaydi. Oyog‘imizni yuvsak ham chidaydi... Bu ham yetmagandeyek unga tupursak, cho‘p tiqib loyqalatsak, ustidan mag‘zava ag‘darsak oldimizdan oqqan suvning gunohi nima?! Biz o‘zimiz kimmiz?!

– Odamzotni ichidan yemiruvchi qusurlar bo‘ladi. Shular orasida eng xatarlisi, sizningcha, nima?

– Nafs!

– “O‘ng yuzingga ursalar, chap yuzingni tutib ber”, degan falsafaga munosabatingiz?

– Bunday falsafa hamma xalqlar va hamma dinlarda bor. Aslida bu odamzotni kechirimli, insofli bo‘lish, qasoskorlikdan o‘zini tiyishga da‘vat etuvchi insonparvar shior. Men ham doim shunga amal qilishga urindim. Har kim qilmishiga yarasha javobini olishiga ishondim. Qolaversa, yana bir shiorim bor edi. Esli odam oyog‘iga yopishgan loyni qo‘li bilan tozalamaydi...

Afsuski, andishani qo‘rqoqlik, kamtarlikni nodonlik deb sanaydigan, yomonligiga javob qilmasang, “ana, gunohi bo‘ynida ekanki, ovozi o‘chib qoldi”, deb battar quturadiganlar ham bor ekan. Shuni anglagandan keyin garchand o‘zim fe‘limni o‘zgartirishim mushkul bo‘lsa-da, farzandlarimga boshqacha o‘git beradigan bo‘ldim. “Kamtarin bo‘l, ammo kamtarlik orqasida g‘ururing yaqqol sezilib tursin! Andishali bo‘l, ammo andishasiz oldida hech qachon tilingni qisiq qilma! Ikki bukilib ta‘zim qilganga uch bukilib ta‘zim bajo ayla. Ammo qarshingda tog‘dek keriladiganlar oldida o‘zingni osmon qadar tut! Bir yuzingga ursalar, ikki yuziga urib javob qil! Shunda sen bilan hisoblashadigan bo‘ladilar! Nabiralaringa ham shuni o‘rgat!”

«Daftar hoshiyasidagi bitiklar» turkumidan

Biri ikki bo‘lmagan...

Qadimda ikki aka-uka bo‘lgan ekan. Ikkalasi harchand uringani bilan ishi yurishmas, omadi chopmas ekan. Kunlarning birida aka-ukalar Donishmand huzuriga borib, maslahat so‘rabdi:

– Shuncha harakat qilsak ham birimiz ikki bo‘lmaydi. Nima qilaylik?

Donishmand aytibdi:

– Ikkovlaring inoqmisan? Faqat to‘g‘risini gapir!

Aka-ukalar noahil ekanini tan olibdi.

– Ey, nodon! – debdi donishmand. – Ikkisi bir bo‘lmaganning qandoq qilib biri ikki bo‘lsin?!

Bezovta ruh

Ezgulikni ko‘rsa, o‘zini anvoyi chechaklar ochilgan gulzorda yurgandek sezadigan...

Razillikni ko‘rsa, yovvoyi hayvonlar o‘kirgan o‘rmonga kirib qolgandek bezovta kekadigan Ruh bor.

Bu Ruhning ismi – Vijdon...

Oftob chiqar olamga

Bu dunyoda chegaralar ko‘p. Qit‘alar chegarasi. Davlatlar chegarasi. Siyosiy chegaralar, diniy chegaralar...

Bu dunyoda hech qanday chegarani tan olmaydigan ikkita m o‘jiza bor. Biri – quyosh nuri. Biri – ona mehri...

Oftob barchaga baravar nur sochaveradi. Ona barcha farzandlarini birdek yaxshi ko‘raveradi. Ona yuzi – oftob, degan gap ham shundan qolgan...

Kambag‘alni kamsitmang

Rivoyat qilishlaricha, bir yigit dong‘i ketgan boyning qiziga oshiq-u beqaror bo‘lib qolibdi. Qizning ham unda ko‘ngli bor ekan. Yigit necha bor sovchi yubormasin, rad javobini olaverganidan keyin boyning huzuriga o‘zi boribdi.

– Ming bora uzr, boy ota, – debdi odob bilan. Ko‘ngil ishi ekan. Aybga buyurmaysiz, qizingizni chin dildan yaxshi ko‘rib qoldim. Nima shartingiz bo‘lsa, roziman, faqat noumid qilmang...

Boy o‘ylab-o‘ylab, bu “betamiz” yigitning adabini berish yo‘lini topibdi.

– Mayli, – debdi. – Ikkita shartim bor. Birinchisini bajarganingdan keyin ikkinchisini aytaman.

– Jonim bilan! – debdi yigit.

– Shartim shuki, uch kun ertadan kechgacha tilanchilik qilasan! Bozor boshida, o‘z mahallangda, masjid darvozasi oldida. Men buni o‘z ko‘zim bilan ko‘rishim kerak.

Yigit chindan ham uch kun tilanchilik qilibdi. To‘rtinchi kuni boy peshingacha kutsa ham yigitdan darak bo‘lmabdi. Boy izlab borsa, yigit bozor boshida gadoylik qilib o‘tirganmish.

– Ikkinchi shartim shuki, – deb gap boshlagan ekan, yigit aytibdi:

– Shartingiz ham, qizingiz ham o‘zingizga siylov. Mening siz bilan gaplashadigan gapim yo‘q!

Buni qarangki, qiz otasiga “shundan boshqasiga bersangiz, o‘zimni o‘ldiraman!” deb turib olibdi...

Qissadan hissa: kambag'alni kamsitganning ishi gadoyga tushadi!

Sevinch va o'kinch

Hayotingizda sevinchdan ko'ra o'kinch ko'proq bo'lsa, ajablanmang. Odam bolasi yig'lab tug'iladi. Kulishni esa ancha keyin o'rganadi...

“Ixtiro”

Samarqand bozorida chet ellik turistlar yurgan ekan. Bittasi, ayniqsa, e'tiborimni tortdi. Kalta ishton kiygan, qora ko'zoynakli shopmo'ylov kishi o'g'il sumakka tamaki to'ldirib, chekib ketyapti...

... Shunaqa “univyersal” buyumni ixtiro qilgan xalqimizga tasanno dedim...

Chegara

Odamzod nima uchun kaftdek hovlisiga gul ekadi? Undan ko'ra sholg'om eksa, qozoniga tushadi-ku.

Odamzod nima uchun bulbul chah-chahini eshitganda entikib ketadi? Undan ko'ra bulbulni sho'rvaga solib pishirsa, nafsini qondiradi-ku.

Odamzod nima uchun osmonda charaqlab yotgan yulduzlarni ko'rib, ko'ngli zavqqa to'ladi? Yulduzlar uning hamyonidagi tillalar emas-ku.

Odamzod nima uchun kitob o'qiyotib, suyukli qahramoni o'lib qolsa yig'laydi? Uni yozuvchi “ichidan to'qib chiqargani”ni biladi-ku?

Odamzod nima uchun o'zga yurtlarga borib behisob mol-dunyo orttirsayu, ittifoqo bolaligi kechgan kulbasi tushiga kirib qolsa, tuni bilan yig'lab chiqadi? Axir u shohona qasrda yashaydi-ku.

Odamzod nima uchun bolasining boshida alla aytadi? Go'dak alla eshitmasa uxlamaydimi?

Odamzod nima uchun nevarasini yetaklab necha zamon avval o'tib ketgan bobosining qabrini ziyorat qiladi? Marhum uni ko'rmaydi-ku?!

Gap shundaki, Odamzodni hayvonotdan ajratib turadigan chegara bor. Bu chegaraning nomi Ma'naviyat deb ataladi!

Farzandlarimga o'gitlar

Bir narsani orzu qilaman.

Bu dunyoda men qilgan yaxshi ishlardan aqalli bitta ko'proq yaxshilik qilsang.

Bu dunyoda men qilgan xatolardan aqalli bitta kamroq xato qilsang...

Xudo ko'rsatmasin-ku, boshingga sinovli kunlar tushsa, yaxshi hamkasbing, yaxshi jo'ralaring yoki dugonalaring emas, “yomon” umr yo'ldoshing, “yomon” bolalaring kuningga yaraydi.

Kulib turgan odamning oldida yig'lama. Yig'lab turgan odamning oldida kulma.

* * *

Go'dakligingda ota-onang seni qanday avaylagan bo'lsa, keksayganda sen ham ota-onangni shunday avayla. Keksalik ham go'daklikdir...

* * *

Qush bo'lib, osmonda uchma.

Toshbaqa bo'lib, yerda sudralma.

Daraxt bo'l! Boshing osmonda, oyog'ing yerda bo'lsin!

* * *

Deraza oynadan yasaladi. Ko'zgu ham. Farqi shuki, ko'zgu o'zingni o'zingga ko'rsatadi. Deraza esa hammasini ko'rib turadi-yu, o'zini ko'rmaganga soladi... Ko'zguga ko'proq qara!

* * *

Hech kimga ozor berma. Yerda yotgan toshni tepsang ham oyog'ing sinishi mumkin.

* * *

Bandasining boshi – Ollohning toshi, deydilar. Boshingga ko'rgulik tushsa, noumid bo'lma: bulut o'tkinchi, Quyosh esa abadiydir...

* * *

Shijoatli bo'l. Biroq andishasiz bo'lma. Andishali bo'l. Biroq shijoatsiz bo'lma.

* * *

Nodonlar davrasida kar bo'l. Donolar davrasida soqov bo'l...

* * *

O'zingdan kuchsizga ozor berma: o'zingdan kuchlidan ozor chekmaysan.

* * *

Hech bo'lmasa haftadami, oydami, bir marta ota-onangdan "nima dardingiz bor?" deb so'rab qo'y. Ular senga dardini aytnasligi mumkin. Ammo ko'ngli ko'tariladi...

(O'tkir Hoshimov).

Matnni o'qing.

Hindistonda faqat o'sha yerga xos hayvonlar tarqalgan. Yovvoyi hayvonlardan biri fildir. Hindistonliklar uni "haatiy" deb ataydilar, u Kalpiy viloyatining chegaralarida bo'ladi. Undan yuqori – Sharq tomonga qarab borgan

sari yovvoyi fillar ko'proq uchraydi. O'sha yerlardan fil tutib keltiradilar. Kurara va Maniqurning o'ttiz-qirq joyidagi aholi fil ovlash bilan shug'ullanadi. U yerliklar hukumat mahkamasi oldida har bir fil uchun javobgardir. Fil ulkan va ziyrak jonivor. Nima desalar, tushunadi va nimani buyurishsa, bajaradi. Bahosi kattaligiga qarab belgilanadi, uni bo'yiga qarab sotadilar. Fil qancha katta bo'lsa, bahosi shuncha baland bo'ladi. Rivoyat qiladilarki, ba'zi orollarda bo'yi o'n qari keladigan fillar ham bor ekan. Bu yerlarda to'rt-besh qaridan baland fillarni uchratmadik. Fil faqat xartumi bilan yeb-ichadi. Xartumi bo'lmasa, u yasholmaydi. Xartumining ikki yonida, yuqorigi jag'ida, ikkita katta tishi bor. Shu tishlari kuchi bilan devor va daraxtlarni yiqitishi mumkin. Urishish va kuch ishlatiladigan har qanday ishni shu tishlari bilan bajaradi. Bu tishlarni oj deydlar. Hindistonliklar bu tishlarni juda qadrlaydilar. Filning tuki bo'lmaydi. Hindiston xalqi uchun filning ahamiyati katta. Lashkardagi har bir guruh (bo'linma, qism, otryad)ga, albatta, bir necha fil hamroh bo'ladi. Filning ba'zi yaxshi xususiyatlari bor: u katta va tezoqar suvlardan og'ir yukni osonlik bilan ko'tarib o'ta oladi. To'rt yuz, besh yuz kishi tortadigan qozon aravasini (to'p ortilgan aravani) uch-to'rtta fil bemalol tortadi. Biroq filga juda ko'p yemish kerak. Bitta fil ikki tuyaning yemishini yeydi.

Yana Hindistonda kark (karkidon) tarqalgan. U ham juda ulkan jonivordir. Kattaligi uchta ho'kizga teng keladi. Bu yerlarda kark filni shoxi bilan ko'tarmish, deb tarqalgan gaplar to'g'ri bo'lmasa kerak. Burnining ustida bitta shoxi bor, bir qarichdan uzunroq, ikki qarichga yetadiganini uchratmadik. Bir katta shoxidan kema shaklidagi suvdon va bitta nardning soqqachasi yasaldi. Yana uch-to'rt enlik ortibdi. Terisi juda qalin bo'ladi. Tarang yoy bilan ipini qo'ltiqqacha tortib (qulochkashlab) va yaxshi mo'ljallab otsalar, juda yaxshi kirsar, to'rt enlik kirishi mumkin. Biroq aytishlaricha, terisining ayrim joylaridan o'q juda oson o'tarkan. Ikki qo'li (oldingi oyoqlari) oldida va ikki buti (orqa oyog'i) oldida qat-qat burma tushgan. Uzoqdan yopig' (jul) yopib qo'ygandek ko'rinadi. Boshqa hayvonlardan ko'ra otga o'xshash tomonlari ko'proq. Chunki, otning katta qorni bo'lmaydi, bunda ham katta qorin yo'q, chunki otida oshiq o'rnida bir parcha suyak bo'lgani kabi bunda ham oshiq o'rniga bir bo'lak suyak joylashgan; chunki otning iligida ko'migi bor, buning iligida ham ko'mik bor. U fildan ko'ra yirtqichroq. Biroq fildek itoatkor va bo'ysunuvchan emas. Parshovar va Hashnag'ar changalzor (o'rmon, to'qay) larida juda ko'p uchraydi. Yana Sind daryosi bilan Bhira viloyati orasidagi changalzorlarda ham ko'p bo'ladi. Yana Hindistondagi Saru daryosi qirg'oqlarida ham bisyor. Hindistonga yurish chog'ida Parshavar va Hashnag'ar changalzorlarida ko'p kark o'ldirdik. Yaxshi shox tashlaydi. Ov paytida ko'p kishilarni va otni shoxi bilan suzganmish. Bir safar ovda kark Maqsud degan xos soqchining otini shoxi bilan bir nayza bo'yi uloqtirdi. Shu sababli unga Maqsudi kark deb laqab qo'ydilar.

Hindistonda tarqalgan hayvonlardan yana biri yovvoyi ho'kizdir. U bizning ho'kizdan ancha katta bo'ladi. Uning shoxlari bunikidek orqaga qarab ketganmas. U juda yomon va yirtqich jonivordir. Hindistonning Saru daryosi qirg'oqlarida juda ko'p uchraydi.

Qushlardan Hindistonda to'vus tarqalgan. Bo'yoqdor (purrang) va juda chiroyli jonivordir. Tanasi rangi va bezaklaricha emas. Gavdasi turnadek keladi,

biroq bo'yi turnadek baland emas. Narining ham, urg'ochisining ham boshida yigirma-o'ttiztadan ikki-uch enlik balandlikdagi pari bor. Modasining bezagi va bo'yog'i yo'qdir. Nar tovusning boshida gulsapsar rangidagi halqa bor, bo'yni chiroyli ko'kish rangda. Orqasining bo'ynidan pastroq qismi sariq, zangor (sabza) ko'k va siyohrang naqshlar bilan bezalgan. Ustidagi gullari kichikroq-kichikroq gullardir. Orqasidan pastrog'i to dumining uchigacha shu rangdagi yirik-yirik gullar bilan bezalgan. Ayrim tovuslarning guli bir quloch keladi va ularning gullik parlari ostida kalta, boshqa qushlarnikiga o'xshamagan yana bitta dumi bo'ladi. Bu rasmiy – oddiy quyrug'i. Uning qanotlari qizildir.

Tovuslar Bajavr va Savodda va undan pastroqda bo'ladi. U yerdan yuqorida – Kunar, Lamg'anot va boshqa yerlarda uchramaydi. Uchishda qirg'ovuldan ham ojizroqdir.

U bir-ikki martadan ortiq ko'tarila olmaydi. Uchishga ojiz bo'lganligi uchun yo tog'da, yo changalzorda yashaydi. Yana qizig'i shundaki, tovuslar yashaydigan changalzorda chiyabo'rilar juda ko'p bo'ladi. Tovuslar bir quloch dumi bilan changaldan changalga o'tib yuraveradi. Nima uchun ular chiyabo'rilardan ziyon ko'rmaydi? Hindistonliklar tovusni «mo'r» deydi. Imom Abu Hanifa mazhabida uning go'shti halol hisoblanadi. Go'shtini mazasiz deb bo'lmaydi, durrojning go'shtiga o'xshaydi, ammo tuyaning go'shti kabi istamayroq yeydilar.

Yana bu yerda to'ti tarqalgan. U ham Bajavr va undan pastroqdagi yerlarda uchraydi. Yozda tut pishig'i chog'ida Ningnahor va Lamg'anotga uchib keladi. Boshqa paytlari bu yerda uchramaydi. To'tilar bu yerda xilma-xildir. Bizning viloyatlarga olib boriladigan bir turi bor, uni gapirishga o'rgatadilar.

Yana bir turi bu to'tidan kichikroq bo'lib, uni ham gapirishga o'rgatadilar. Bu to'tilarni «jangaliy» – changalzor to'tisi deb ataydilar. Bu to'tilar Bajavr va Savod va o'sha yerlarga yaqin joylarda ko'p. Besh-olti ming to'ti bir gala bo'lib uchadi. Bu to'tilar bilan avvalgilarining o'rtasida faqat katta-kichikligida farq bor, ranglari bir xil.

Yana bir nav to'ti bor. U changalzor to'tisidan ham kichikroq. Boshi qip-qizil, qanotlari ham qizil. Dumining uchi ikki enlikcha oq bo'ladi. Bu turdagi to'tilarning boshi sapsar rangidadir. Bu toifa to'tilar gapirishni bilmaydilar. Ularni Kashmir to'tisi deb ataydilar.

Yana bir to'ti borki, u changalzor (o'rmon) to'tisidek kichkina bo'ladi. Tumshug'i qora, bo'ynida katta halqasi bor, qanotlarining usti qizil, gapirishni yaxshi o'rganadi (Zahiriddin Muhammad Bobur).

Savol va topshiriqlar:

1. "Boburnoma" da Hindistondan boshqa yana qaysi o'lkalar haqida ma'lumot bor?
2. Asarning ilmiy-badiiy qimmatini nimalarda namoyon bo'ladi?
3. "Boburnoma" dan Boburning sarkardalik mahoratiga tasvirlangan o'rinlarni topib o'qing va sharhlang.

JENSHEN – HAYOT ILDIZI

Bundan 4000 yil muqaddam jenshen Sharq xalq meditsinasida juda muhim o‘rinni egallagan edi. Xitoy tabiblari uni turli-tuman xastaliklarni davolovchi dori, keksalarni yoshartiruvchi eleksir sifatida ishlatganlar. Qadimgi farmakopiya kitoblaridan birida “Ildiz sharbati” hatto o‘lim oldidan behush yotgan kishiga ichirilganda ham bu ajoyib o‘simlik o‘zining shifobaxsh ta‘sirini juda tez ko‘rsata oladi, deb yozilgan.

Jenshenning bu xususiyatlari Xitoyda juda ajoyib usullar bilan aniqlangan. XI asrda yashagan Xitoy vrachi Su Sunaning hikoya qilishicha, barobar jismoniy quvvatga ega bo‘lgan ikki yigitning biriga tekshirilayotgan jenshen ildizidan bir bo‘lakni tishlatib, 3 yoki 5 km ga choptirilgan. Agarda ildiz tishlagan chopqir marraga bemalol, hansiramay yetib kelsa-yu, ikkinchisi yo‘lda charchab, halloslab qolsa, shundagina obro‘li tabiblardan tashkil topgan maxsus hay‘at tekshirilayotgan ildizning qimmati haqida xulosa chiqargan.

Jenshenning Tibet meditsinasida ham ahamiyati katta bo‘lgan. Uni tabiblik bilan ham shug‘ullanuvchi, Tibetning martabali ulamolari – Lamalar o‘z qo‘llarida saqlaganlar. X asrning boshlarida O‘rta Osiyoliklar ham jenshen to‘g‘risida yaxshi bilganlar. Buyuk Abu Ali ibn Sino o‘z kitobida u haqda mufassal yozadi. Hozirgi davrgacha jenshen haqida yozilgan asarlarning soni bir yarim mingdan oshib ketdi.

Ko‘pincha jenshenning ildizlari kichik odamlar shaklini eslatadi.

Agar uning poyasi shamol, hayvonlar tomonidan yoki boshqa sabablarga binoan sindirilsa, ildizi uzoq muddat uyquga kiradi. Bu holatni terimchilar “jenshen yerga kirib ketdi” deb talqin qilishadi. Ildizning uyqusi 20 yil va undan ham ko‘proq davom etishi mumkin, so‘ng sharoit qulay bo‘lganida undan yangi poya va barglar o‘sib chiqadi – normal hayot boshlanadi.

Jenshenning tabiiy zahiralari endi ancha kamayib ketgan. Har mavsumda Ussuriy o‘rmonlaridan uni 100 kg dan ortiq terib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham uning sun‘iy plantatsiyalarini barpo qilish ustida katta ishlar qilinmoqda. Hozirgi vaqtda Uzoq Sharqda jenshen ekish uchun moslashtirilgan yirik xo‘jaliklar mavjud. Ukraina, Belorussiya va Boltiqbo‘yi respublikalaridagi botanika bog‘larida hamda tajriba dalalarida o‘stirilmoqda.

Yillarni quvib yillar o‘tmoqda, shifobaxsh o‘simlik ildizining shuhrati esa tobora ortib bormoqda.

RAHMDIL O‘SIMLIK

Madagaskar orolida o‘sadigan barglari tovuşning quloch yozib turgan nafis patlarini eslatuvchi bu o‘simlik – Ravenala. Uni, ayniqsa, sayyohlar maroq bilan tilga oladilar, chunki ravenala turli maqsadlarda cho‘l va sahrolarda kezib yurgan kishilarni o‘z bag‘riga olib, ularni jazirama oftobdan saqlaydi hamda barg qo‘ltig‘ida saqlab kelayotgan shudring va yomg‘ir tomchilaridan hosil bo‘lgan suvdan bahramand etadi.

Ravenala gigant o‘tlardan hisoblanadi. Uning butun tanasi barglardan iborat. Barglarning joylashgan qismi (tubi) tana vazifasini bajaradi.

Yovvoyi tarvuzlar

Biz tarvuz deganda ko‘z oldimizga osiyoliklarning shirin-shakar, qip-qizil etli, sevimli mevasini keltiramiz. Ammo tarvuzning yovvoyi, juda achchiq ta‘mli turini ko‘pchilik bilmasligi ham mumkin. Bu achchiq tarvuz O‘rta Osiyoda faqat dorivor o‘simlik sifatidagina ayrim joylarga ekiladi. Achchiq tarvuzning poyasi qattiq tuklar bilan qoplangan, mevasi mayda (10 –12 sm kattalikda) va achchiq. Xalq tabobatida yovvoyi tarvuzning mevasi juda o‘tkir surgi sifatida qo‘llaniladi.

Bu o‘simlikning vatani Kalahari sahrosi bo‘lib, hozirgi kunda u yovvoyi holda Janubiy Afrikada, Arabiston yarimorolida va Eronda uchraydi. Tarvuzdan yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lgan yillari mo‘l hosil olinadi.

Afrikada bu o‘simlik mevasining hajmi apelsindan katta bo‘lmasa-da, serurug‘ va serhosil bo‘ladi. Mevasi pishib oftobda quriydi va urug‘i shamol yordamida uzoq-uzoqlarga tarqaladi. Bu yerda tarvuzchalar bilan oziqlanadigan turli hayvonlar ham uchraydi. Tarvuz urug‘lari yerga to‘kilgach, qulay sharoitda unib chiqadi va shu usulda har yili tarvuz o‘sgan yangi-yangi paykallar tashkil topib boradi. Qurg‘oqchilik yillari bunday maydonlar juda kamayib ketadi.

Uyatchan mimoza

Kundalik hayotda biz doimo o‘simliklarga duch kelamiz. Ularni sug‘oramiz, tagini yumshatamiz, mevasini teramiz, xushmanzara turlarining gullaridan guldastalar tayyorlaymiz va hokazo. Ularga qanchalik ta‘sir qilmaylik o‘simlikning asosiy organlarida hech qanday o‘zgarish yuz bermaydi. Lekin biz hikoya qilmoqchi bo‘lgan o‘simlik butunlay o‘zgacha, u har qanday tashqi ta‘sirotga befarq qarab tura olmaydi. Agar uning biror qismiga, xususan, bargining biror joyiga tashqi kuch ta‘sir qilsa, u shu daqiqadayoq barglarini pastga osiltirib, mayda bargchalarini berkitib oladi.

(Ne‘matjon Hoshimov, Muborakxon Payziyeva, Ahmadjon Mamatkarimov, “Ajabtovur o‘simliklar” kitobidan).

IKROM OTAMUROD

Olamda mangulikka daxldor bo‘lgan hodisalar juda kam, ular sanoqli. Bu olamdagi har bir narsa, har bir jonzot, har bir hodisa o‘zgarishlar ichida yashaydi,

ular o'zgarishga mahkum. O'zgarmasdan qoladigan hodisalar sirasiga nimalar kiradi? Bu savolga Ikrom Otamurod javob beradi:

Quyosh yuz ko'rsatar har kun boshqacha,
Kun-u tun o'zgarar qisqa yo uzun.
Hatto sukut bosib yotgan toshgacha
Tuslanar **yeylanib, eylanib**, to'zib.
Vujud ila joni abadiy bir tan,
Bu dunyoda faqat o'zgarmas Vatan.

Evrilishga, o'zgarishga, tuslanishga mahkum bo'lgan hodisalar sanog'i cheksiz va chegarasizdir. Ayniqsa, shoir nigohi ularning tur va shakllarini nozik darajada ilg'aydi. Shoirona kuzatishdagi ushbu sanoqni ko'rish esa kitobxonga malol keltirmaydi, aksincha, u bu sanoqlarni huzur bilan "hisobga oladi":

Havoning avzoyi turlanar damda,
Lahzada o'zgarib boradi iqlim.
Yog'in ado, yog'in paydo qadamda,
Daryolar goh **qayrang**, goh suvga lim-lim.

Demak, turlanadigan, o'zgarib boradigan hodisalar oz emas. Bular shoirning o'zgarmas, muqim va barqaror tushunchalar haqidagi hukmini qat'iylashtiradi:

Vujud ila joni abadiy bir tan,
Bu dunyoda faqat o'zgarmas Vatan.

Shoir kuzatishni davom ettiradi. She'riy misralardagi yoqimli va diltortar ohanrabo kitobxonni ham shu kuzatishlar silsilasidan tashqarida qolib ketmaslikka da'vat etib turadi:

Tog'lar balandlaydi, tog'lar pasayar,
Suyanch qoyalarin qurbi mo'rt tortib.
Oy nuri to'lg'in, oy nuri susayar,
Ko'k zebi – yulduzlar jilvasi yorti.

Yerda tog' o'zgaradi, ko'kda oy o'zgaradi, yulduzlar o'zgaradi, hatto "suyanch qoyalari mo'rt tortib" qoladi. Oldingi bandlarga singdirilgan mantiqqa ko'ra, "unda nima o'zgarmaydi"? degan savolning paydo bo'lishi tabiiy bo'ladi. Javob esa aniq:

Vujud ila joni abadiy bir tan,
Bu dunyoda faqat o'zgarmas Vatan.

Ikrom Otamurodning mazkur she'rini Vatan haqidagi shye'riy guldastalarning yana bir yorqin g'unchalari qatoriga qo'shish unga munosib haq berish bo'lgan bo'lur edi.

TAVSIFNOMA

BIR CIMDIM HAZIL

ASKAR YIGIT MAKTUBI

“...Oyijon, xizmatdan qaytguningcha unashtirib qo‘ymoqchiman, tanlagan qizing bo‘lsa yozib yubor, debsiz. Sinfdoshim Diloromga sovchi yuboravering. Mabodo, u “yo‘q” desa, qo‘shnimiz Nasibaning ham roziligini olgandim. U ham aynib ketgan bo‘lsa, Ma‘mur qassobning qizi Rayhon sevgimga rozi bo‘luvdi. Uyam bo‘lmagan taqdirda qishlog‘imizdagi Robiya, Inobat, Salomat, O‘g‘ilbibi, Karomat, Mahbubalarga ham odam yuborib ko‘ring...

Hech qaysisi nasib etmasa xafa bo‘lmang, bu yerda praporshchigimizning shaharda taksi haydaydigan jo‘rasi bor. Uning Marina ismli tutingan jiyani bor ekan. O‘tgan kuni o‘sha taksichining o‘zi tanishtirib qo‘ydi. Qishlog‘imiz qizlari ko‘nmagan taqdirda, Marinaga uylanib boraman.

Sizni va siz orqali nomi ma‘lum bo‘lmagan kelingizni o‘pib qoluvchi o‘g‘lingiz Boyxo‘roz» (To‘lqin Eshbek)

SEVGI HAZILI

Sen go‘zal, nozanin, dilrabo, dildor,
Nega tushunmaysan gapga, bilmayman,
Butun hayotimda eng sevikli yor,
Men seni hech qachon xafa qilmayman.

Sening-chun yashayman olamda, ishon,
Shuning-chun dunyoni chappa qilmayman.
Men xafa qilmayman seni hech qachon,
Senga o‘xshaganlarni ham xafa qilmayman.

RAHIMOV SOBIR UMAROVICH (1902-1945)

Sobir Umarovich Rahimov – xalqimizning shonli farzandi, jangovar o‘zbek generali, urush Qahramoni. Uning hayoti xalqqa fidoyilarcha xizmat etishning yorqin namunasi bo‘lib qoldi.

Sobir Rahimov Toshkentda tug'ildi. Juda yoshligidan yetim qoldi. Birin-ketin ham otasi, ham mehribon onasidan judo bo'ldi. Yetimxonada o'sgan yosh Sobirning niyati harbiy komandir bo'lish edi. 1922-25-yillarda Bokudagi Birlashgan harbiy maktabda o'qidi. Shu yerda u mashqdagi yutuqlari, chavandozlik mahorati uchun qimmatli sovg'a – bronzadan quyilgan ot haykalini olishga muvassar bo'ldi. Harbiy ilmni, sarkardalik mahorati sirlarini keyinroq, Harbiy akademiyada puxta o'zlashtirdi.

Urush boshlanganda u tajribali komandirlardan hisoblanardi. Uning qo'shinlariga eng og'ir janglarda qatnashishga to'g'ri keldi. Smolensk, Yelnya shaharlari, Don daryosi bo'ylari, Shimoliy Kavkazda olib borilgan janglarda u komandirlik qilgan polk hamma sinovlardan muvaffaqiyatli o'tdi.

U diviziya komandiri etib tayinlanganda endigina qirq yoshda edi. Ko'p o'tmay, Rahimovga general-mayor unvoni berildi.

1945-yil 7-mart kuni Polsha hududida yuz bergan voqea xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirdi. Nemis-fashistlari Graudens shahri va qal'asini bir necha yil davomida himoyaga tayyorlab, mustahkam qo'rg'onga aylantirib yuborgan edilar. Bu shahardan fashistlarni surib chiqarmay, olg'a harakat qilish qiyin edi. Hal qiluvchi jangga general Sobir Rahimov komandirlik qilgan 37-o'qchi diviziya kirdi. Shahardagi har bir uy, uning har bir qavatini uchun 40 kun davomida keskin janglar bo'ldi. Jangda generalning o'zi shaxsan ishtirok etdi. Qo'shinlarimiz dushman saflari orasini yorib o'tib, tosh devorlar bilan o'ralgan qal'aga bostirib kirishga muvaffaq bo'ldilar. Shahar garnizoni boshlig'i – Gitlarning ishongan generali Frikke endi qarshilik ko'rsatish behuda ekanligini tushundi. Dushmanning 4 mingdan ortiq soldat va ofitseri asir olinib, juda ko'p qurol-yarog' va oziq-ovqat zaxiralari qo'lga tushirildi. Bu yirik g'alaba munosabati bilan kechqurun Moskvadan Oliy Bosh qo'mondonning buyrug'i eshittirildi.

Sobir Rahimov gvardiyachilari sharafiga to'plardan 20 marta o'q uzib, salyut berildi.

Sobir Rahimovning so'nggi jangi uning mardligi va dovyurakligining haqiqiy namunasidir. Bu jang Polshaning yirik port shahri Dansig (Gdansk) ostonalari bo'lib o'tdi. Rahimov diviziyasining oldingi qismlardan biri shaharga intildi. Rahimov radio orqali artilleriya kuzatuv punktiga: «O'rmon chekkasiga chiqdim. Shaharni ko'ryapman. Uni bugun egallaymiz» – deb xabar berdi. Shu payt uning yonida mina portladi. Rahimov va boshqa ofitserlar og'ir yaralandilar. 26-mart kuni uning halok bo'lganligi haqidagi noxush xabar tarqaldi.

Sobir Rahimov Belorussiyaning Grodno shahrida dafn etildi. Urushdan keyin generalning hoki Toshkentga olib kelinib, Birodarlik qabristoniga qo'yildi. Unga vafotidan so'ng Qahramon unvoni berildi.

Ajoyib sarkarda Sobir Rahimovni hamisha hurmat va mehr-muhabbat bilan eslaymiz. Uning nomini abadiylashtirish maqsadida Toshkentdagi tumanlardan biriga hamda metro stansiyasi, maktab, ko'chalar, shuningdek, jamoa xo'jaligi, temir yo'l stansiyasiga Sobir Rahimov nomi berilgan. «General Rahimov» nomli dengiz kemasi ham bor.

ALISHER NAVOIY

Hotami Toyi

Hotami Toyiga bir ko'ngli ochiq odam dedi:

– Ey, himmatda erkin tabiat kishi, saxiylik kaftingga odat bo'lganidan buyon o'zingga o'xshagan kishini hech ko'rdingmi?

U dedi:

– Bir kun men hamma uchun yig'in qildim. Unga o'sha cho'ldagi odamlarning hammasini chaqirdim. Pishirish uchun yuzta tuya qurbon qilindi; so'yilgan qo'y-qo'zilarining ham son-sanog'i yo'q edi. Bazm bo'lib turgan vaqtda birpas havo olgim kelib, dasht tomonga chiqdim. Aylanib yurib, mehnatda ezilgan bir qari cholni ko'rdim. U orqasiga bir quchoq tikon-o'tin ortgan edi. Gavdasini u yuk egib, vujud uyiga hassadan ustun tirkagan edi. Har qadam tashlaganda, birpas to'xtab, har dam olganda ma'lum bir fursat o'tardi. U chekayotgan azob o'ti ko'nglimni yondirib, rahm-shafqat bilan unga shunday xitob qildim:

– Ey qaddini mashaqqat yuki bukkani, tanasida g'am tikanlari o'rnanishgan odam! Dashtda yurib xabaring bo'lmadimi? Nega Hotamning uyiga bormading. U hammani o'zining uyiga chaqirib, yaxshi-yu yomonni bugun mehmon qilmoqda-ku. O'tinni tashla, izzat gulshaniga bor, mashaqqat chekib o'ltirmay, tur, chaqiriqqa bor!

U mening uning ahvolidan iztirob chekkanimni tushunib, bosh ko'tarib kuldi-yu, shunday javob berdi:

– Ey, oyog'ini ochko'zlik band etgan, bo'yniga g'araz va qizg'onchiqlik sirtmoq boylagan, ey g'ayrat vodisida qadam bosmagan, himmat qal'asiga bayroq tikmagan odam, sen ham bu tikan tashish azobini tortib ko'r. Hotami Toyi minnatini esa torta berma. Qiynalib, mashaqqat bilan bir tanga topish birov bergan xazinadan yaxshiroqdir.

Uning so'zlari shunday o'rinli ediki, shuning uchun ham uning himmati menikidan ortiq edi.